**5-usul:** Bu usulni birinchi usuldan farqi shuki, quduqdagi mahsuldor qatlamga himoya tizmasining ostki qismi teshilgan holda tushiriladi (quvur bo'ylab ma'lum bir

oraliqqacha teshilgan). Tizma tushirilgandan so'ng quduq kesimining mahsuldor qatlamlardan yuqori qismi sementlanadi.

**Qulayligi:** Perforatsiya qilish uchun quduq ustida hech qanday mablag' sarflanmaydi va vaqtni ko'p talab qilmaydi.

**Noqulayligi:** Bu usulda har-xil bo'lgan mahsuldor qatlamlarni ishlatib bo'lmaydi. Quduq tubining konstruksiyalari 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm.** Quduq tubi konstruksiyasi sxemalari.

1-himoya tizmasi; 2-sementlangan oraliq; 3-mahsuldor qatlam;  
4- suvli qatlam; 5- ochiq stvol; 6-paker; 7-filtr; 8-quduq devori;  
9-dumcha; 10-perforatsion kanallar.

### **Qatlamni birlamchi ochish uchun yuvuvchi suyuqlikning tarkibini va hossalari tanlash.**

Mahsuldor qatlamni burg'ilash vaqtidan boshlab burg'ilash eritmasi qatlam bilan aloqada bo'ladi va kollektorlar ichiga singib kirishga xarakat qiladi. Qatlamga yuvuvchi suyuqlikni kirishi quyidagilarga olib keladi:

1. Burg'ilash jarayonida ko'p hollarda quduq ichida ortiqcha bosim ushlab turiladi. Agar qatlam granulometrik kollektorlardan iborat bo'lsa, ortiqcha bosim ta'sirida yuvuvchi suyuqlikni dispersli muhiti kollektorlarga kiradi (ko'pincha bu kimyoviy reagentlar va tuzlarda mavjud bo'lgan suv). Dispers faza zarrachalari quduq devorlarida tutilib filtratsiya qobig'ini hosil qiladi yoki qatlamga qisman 1-2 sm kirib, kolmatatsiya zonasini hosil qiladi.

Filtrat tarkibida mavjud bo'lgan dispers fazaning mayin, changsimon zarralari qatlamga chuqur kirib borishi mumkin. Ortiqcha bosim ta'siri ostida granulyar qatlamga filtratni kirish chuqurligi yuvuvchi suyuqliqni suv bera oluvchanligi yuqori bo'lsa, qatlamni burg'ilab o'tish davomiyligiga, xalqa oralig'idan chiqayotgan oqimni tezligiga, ortiqcha bosimga va xaroratga bog'liq. Laminar oqimga nisbatan turbulent oqim rejimida yuvuvchi suyuqlikni ta'siri qatlamga sezilarli ta'sir etadi. Ortiqcha bosim ta'sirida yoriq g'ovaklarga faqat dispers faza emas, balki dispers zarralarni chuqur kirishi kuzatiladi.

2. Kapillyar kuchlar ta'siri ostida suvli dispersion muhit qatlamga chuqur kirib boradi va quduqdagi neftni siqib chiqaradi. Sirt tarangligi ortishi bilan kapillyar kuchlarni ta'siri ostida suvni kirish chuqurligi ortadi.

3. Yuvuvchi suyuqlik tarkibidagi minerallar qatlamni minerallashganiga nisbatan kam bo'lsa, mahsuldor qatlamda osmotik massa almashinuvi hosil bo'lishi mumkin. Qatlamga yuvuvchi suyuqlikni va uni filtratini kirishi natijasida qatlam kollektori hossalarga salbiy ta'siri tufayli burg'ilash so'ngida qatlamdan suyuqlik olish sharoiti yomonlashadi. Demak, kolmatatsiya zonani o'tkazuvchanligini yuvuvchi suyuqlik dispers fazasi zarralari g'ovak kanallarni berkitishi natijasida ko'p marta kamayishiga olib keladi. Mahsuldor qatlamda deyarli har doim ma'lum bir miqdorda gilli yoki shunga o'xshash zarralar mavjud bo'lib, ular suvga beriluvchandir. Qatlamga kirgan suv filtratiga bu zarralar to'yinib bo'kadi, ya'ni hajmi kengayib g'ovak kanallarni qisman yoki to'liq berkitadi.

Burg'ilash jarayonida mahsuldor qatlamni ochish uchun eng yaxshi yuvuvchi suyuqliklar gazzimon agentlar va asosida neft bo'lgan suvsiz eritmalar, shuningdek mineral suv fazali emulsion eritmalar hisoblanadi. Maxsuldor qatlamni ochish uchun tanlanadigan yuvuvchi suyuqliklar quyidagi talablarga javob berishi shart:

1) yuvuvchi suyuqlikni filtrati – gilli zarrachalarni to'yinishi (bo'kishiga) yo'l qo'ymasligi, jinsni gidrofilligi oshmasligi va qatlam g'ovaklaridagi fizik bog'langan suv miqdori oshmasligi;

2) filtratni tarkibi shunday bo'lsinki, uni qatlamga kirishi natijasida fizik yoki kimyoviy ta'sirlar oqibatida erimaydigan cho'kindi hosil bo'lmasin.

3) yuvuvchi suyuqlikni qattiq fazasining granulometrik tarkibi, mahsuldor qatlamni g'ovaklik strukturasi mos kelishi kerak, qattiq fazalar qatlamga chuqur kirib ketmasligi uchun burg'ilash eritmasini tashkil etuvchi zarrachalarning diametri

$d_2 > \frac{1}{1} dn$  umumiy qattiq fazaning hajmidan 5% kichik bo'lsin.

4) filtrat chegarasidagi sirt taranglik kuchi uglevodorod mavjud qatlamlarda minimal bo'lsin.

5) quduq tubi sharoitida suv beraoluvchanligi, xarorat va bosim minimal bo'lishi kerak. Zichligi va reologik hossalari shunday bo'lishi lozimki, mahsuldor qatlamni burg'ilash jarayonida defferensial bosim qatlamda nolga yaqin bo'lsin.

6) minerallashtirish darajasi va filtratni tuz tarkibi qatlam bosimiga yaqin bo'lishi lozim, osmotik bosim minimal bo'lishi kerak.

Bu sharoitlardan kelib chiqib, mahsuldor qatlamlarni ochish uchun suv beraoluvchanligi kam bo'lgan, ishqorsiz mineralli yuvuvchi suyuqliklar chuchuk suvli yoki ishqorli (USHR bilan ishlov berilgan) eritmalarga nisbatan yaxshi natija beradi.

Qidiruv quduqlari burg'ilanayotgan har bir maydonda birinchi quduqlarni mahsuldor qatlamdan namuna olib, laboratoriya tekshirish ishlarini amalga oshirgandan keyin burg'ilash eritmasini aniq tanlash imkoniyati tug'iladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Aminov A.M., Sultonmurodov Sh. Quduqlarni burg'ilash sohasi atamalarining ruscha-o'zbeksa izohli lug'ati. Toshkent: Moliya, 2003.
2. Aminov A.M., Yodgorov N., Tolipov X.T. Burg'ilash eritmalari. Toshkent: Fan, 1996.
3. Aminov A.M., Nurmatov U.D. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash. Toshkent, 1999.
4. Aminov A.M. Neft va gaz quduqlarini qurish asoslari. Toshkent, 2010.
5. Булатов А.И. и др. «Технология бурения нефтяных и газовых скважин». М.: Недра, 2000.
6. Булатов А.И. и др. Заканчивание скважин. М.: Недра-сервис, 2001.
7. Булатов А.И. и др. Справочник инженера по бурению. М.: Недра, 1985.
8. Басарыгин Ю.М. «Технология бурения нефтяных и газовых скважин». М.: Недра-сервис, 2001.
9. Вадецкий Ю.В. «Бурение нефтяных и газовых скважин». М.: Недра, 1985.
10. Даниелян С.Г. Буровые машины и механизмы. М.: Недра – 1961.



## O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Sharofiddinova Madinabonu**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti PP-101- guruh magistri

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi. Maqolada ta'limning shakllanishida va o'quvchilarning rivojlanishida o'qituvchining ta'lim jarayonidagi roli, boshqaruv va ota-onalar bilan o'zaro aloqada bo'lish, shuningdek kasbiy faoliyatda ilgarilab borish uchun samarali muloqot ko'nikmalari zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** pedagog, oliy ta'lim, kommunikatsiya, talaba, o'quvchi, kompetensiya, usul, yondashuv.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается практическая целесообразность развития коммуникативных и управленческих компетенций у будущих педагогов. В статье подчеркивается роль педагога в образовательном процессе в формировании образования и развитии учащихся, необходимость формирования эффективных коммуникативных навыков взаимодействия с руководством и родителями, а также прогресса в профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** педагогика, высшее образование, коммуникация, студенты, студенты, компетенция, методы, подходы.

### ABSTRACT

The article discusses the importance of developing communication and management competencies among future higher education teachers. The article emphasizes the need to develop effective communication skills to create an effective learning environment, interaction with management and parents, as well as progress in professional activities, taking into account the importance of the role of the teacher in the formation of education and the development of students. The article also suggests practical ways to develop these skills in higher education, including curriculum integration, field experiences, and mentoring programs.

**Keywords:** teacher, secondary education, communication, student, student, competent management, methods and approaches.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi.

Zamonaviy oliy ta'lim kelajak oliy ta'lim o'qituvchilari uchun yangi va xilma-xil qiyinchiliklar tug'diradi. Ular nafaqat talabalarni o'qitishadi, balki o'quv rejalarini boshqarish, ta'lim sifatini baholash, shuningdek oliy ta'lim sharoitini rivojlantirish bilan ham shug'ullanadilar. Bularning barchasi ulardan yuqori kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarini talab qiladi. Kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishi oliy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining muhim elementi hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar ularga o'quv jarayonlarini samarali boshqarishga, talabalarning sifatli ta'lim olishiga hissa qo'shishga va zamonaviy oliy ta'limning qiyinchiliklarini engishga yordam beradi.

**Bo'lajak o'qituvchilar uchun kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalari nima uchun muhim?**

**1. Sinfni samarali boshqarish.** O'qituvchilar har birining o'ziga xos individual ehtiyojlari, o'quv uslublari va xulq-atvoriga ega bo'lgan turli xil o'quvchilar guruhlarini uchratadilar. O'qituvchilar samarali o'quv muhitini yarata olishlari, intizomni saqlashlari va o'quvchilarni motivatsiya qilishlari kerak. Muloqot ko'nikmalari o'qituvchilarga o'z o'quvchilarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga va ular bilan o'rganishni rag'batlantiradigan darajada o'zaro aloqada bo'lishiga yordam beradi.

**2. Ma'muriyat va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik.** Oliy ta'limlarning o'qituvchilari talabalarning ma'muriyati va ota-onalari bilan ham o'zaro aloqada bo'lar ekanlar. Boshqarma bilan samarali muloqot qilish imkoniyati o'qituvchilarning ta'lim dasturi va o'quv muhitini yaxshilashda ishtirok etishlariga yordam beradi. Muloqotni boshqarish ko'nikmalari ota-onalar bilan konstruktiv o'zaro aloqalarni o'rnatish uchun ham qulay keladi, bu esa muvaffaqiyatli ta'lim jarayoniga hissa qo'shadi. Oliy ta'limlar kelajakdagi o'qituvchilarda bu kompetensiyalarni qanday shakllantira oladi?

**1. O‘quv dasturlariga integratsiya.** Oliy ta’limlar kelajakdagi o‘qituvchilar uchun o‘quv dasturiga aloqa va boshqaruv ko‘nikmalarini o‘rgatishni birlashtirishi mumkin. Bunga samarali muloqot, sinfni boshqarish, nizolarni hal qilish va kasbiy etika bo‘yicha kurslar kiritilishi mumkin. **2. Amaliy tajribalar.** Nazariy tayyorgarlikdan tashqari, talabalarga haqiqiy talabalar bilan ishlash yoki amaliyotda boshqaruv vazifalarida ishtirok etish orqali amaliy tajriba orttirish imkoniyati berilishi kerak. Bu esa ularga bilimlarini amalda qo‘llanib, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari amaliy yondashuv orqali kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishning metodik ta‘minotini ishlab chiqishni taqozo qildi. O‘quv mashg‘ulotini axborot, o‘zini o‘zi anglash va amaliy kabi uchta blokda qurish maqsadga muvofiq. Oliy pedagogika ta‘limining o‘ziga xosligini bunday tushunish madaniyat va ta‘lim tizimi shaxslaridan, o‘qituvchidan o‘z kasbiy-mutaxassisligi kompetentligini doimiy namoyon etish talab etilishi an’anaviy ta‘lim tizimi mazmun-mohiyatidan izlash manbai bo‘lishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари тўплами миллий базаси <https://lex.uz/>.
2. Ахмедов, А. Ю. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ. Academic research in educational sciences, (4), 778-781.
3. Ahmedov. A & Egamberdiyev. O (2022). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. “Science and innovation” international scientific journal, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6653657>

## DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS (BASED ON THE CULTURE OF READING)

**Yaxshilikova Hilola Ulug‘bek qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

### ABSTRACT

Creative thinking is a vital skill for teachers as it enables them to engage students, design innovative lesson plans, and adapt to ever-changing educational landscapes. One way to nurture creative thinking in future educators is by cultivating a strong reading culture. This article examines the significance of developing creative thinking skills in prospective teachers through fostering a culture of reading.

**Keywords:** Creative thinking, future educators, developing creative thinking skills, culture of reading, methodologies.

### BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJODKORLIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH (KITOBXONLIK MADANIYATI ASOSIDA)

#### **I. The Connection Between Reading and Creative Thinking:**

##### **1.1 Enhancing Imagination and Mind Expansion:**

Reading exposes individuals to a variety of perspectives, ideas, and narratives. This exposure stimulates imagination, allowing future teachers to think beyond conventional boundaries and envision new possibilities.

##### **1.2 Developing Critical Thinking and Problem-Solving Abilities:**

By immersing themselves in diverse literary works, individuals acquire advanced reasoning skills. Analyzing characters, deciphering complex plots, and exploring different literary genres fosters critical thinking and problem-solving abilities.

##### **1.3 Promoting Reflection and Complex Thinking:**

Reading cultivates a habit of reflection, enabling future teachers to ponder on different concepts, themes, and issues within texts. This reflection encourages complex thinking, as they evaluate and contemplate multiple perspectives and interpretations.

#### **II. Creating a Culture of Reading:**

##### **2.1 Integrate Literature into Teacher Education Programs:**

Teacher education programs should emphasize the significance of reading by incorporating literature courses that expose future teachers to various genres, styles,

and themes. This exposure encourages them to explore different types of texts and develop a deeper understanding of the power of storytelling.

### 2.2 Establish Reading Communities and Book Clubs:

Forming reading communities and book clubs among future teachers fosters discussion, collaboration, and reflection. By engaging in shared reading experiences, individuals can exchange ideas, challenge each other's viewpoints, and broaden their perspectives.

### 2.3 Encourage Diverse Reading Materials:

It's crucial to provide future teachers with a range of reading materials, including fiction, non-fiction, poetry, and culturally diverse literature. This diversity enriches their reading experiences, exposing them to various cultures, histories, and social issues, all of which contribute to the development of creative thinking.

## **III. Benefits of a Reading Culture for Future Teachers:**

### 3.1 Enhanced Classroom Instruction:

Future teachers with a rich reading background can incorporate different literary techniques into their instruction. They can use storytelling, metaphors, and creative writing exercises to engage students and enhance their learning experiences.

### 3.2 Ability to Design Innovative Lesson Plans:

A reading culture equips teachers with the ability to design imaginative and innovative lesson plans. They can integrate literature-based activities, such as dramatic interpretations, book discussions, or creative writing workshops, to make learning more captivating and interactive for their students.

### 3.3 Adaptability to Changing Education Trends:

Being well-read allows future teachers to stay abreast of emerging educational trends and methodologies. They can leverage their diverse reading experiences to adapt their teaching approaches to meet the evolving needs of their students and educational environments.

## **CONCLUSION**

The development of creative thinking skills in future teachers is essential for fostering a dynamic and engaging learning environment. By embracing a culture of reading, prospective educators can enhance their imagination, critical thinking abilities, and problem-solving skills. It is crucial for teacher education programs to emphasize the significance of reading and provide various opportunities for future teachers to engage with diverse literary works. With a robust foundation in reading, future teachers can unlock their potential as c level.



### REFERENCES:

1. Adams, B. (2019). The Far Reaching Impact of Transformative Curriculum. Journal of Curriculum Studies Research, 1(1), 17-32. Retrieved from <https://curriculumstudies.org/index.php/CS/article/view/8>
2. Bashina, T.F. (2013). Creativity as a basis for innovative educational activities. Young Scientist, 4, 521-525.
3. Visit the [Creativity and Innovation Science and Technology Wiki](#) Mycoted website.
4. Boden, M. A. (2001). Creativity and knowledge. In A. Craft, B. Jeffrey & M. Leibling, Creativity in education (pp. 95-102). London: Biddles
5. Beghetto, R. A. (2010). Creativity in the classroom. In J. C. Kaufman & R. J. Sternberg (Eds.), The Cambridge handbook of creativity (pp. 447-463). New York: Cambridge University Press

## SINFDAN TASHQARI O‘QITISH ISHLARINI TASHKIL QILISHDA O‘QUVCHILARDAGI KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI

**Nurali Sheraliyevich Ibodulloyev**

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari mazmun mohiyatini asoslash, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan va sinfdan tashqari o‘qishning ilmiy va nazariy asosi – o‘qish malakalarini takomillashtirish, o‘quvchilarda mehnat faoliyatining nazariy prinsiplari mohiyatini ochib berish, sinfdan tashqari o‘qish darslarining o‘quvchilar hayotidagi muhim roli haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kreativ fikrlash, sinf, ilmiy va nazariy, sinfdan tashqari, ko‘nikmalar, dars, mohiyat, prinsiplar, malakalar, dars, muhim vazifalar.

Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim: pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o‘ziga xos an‘ana vositalariga tayanish; ulg‘ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e‘tiborda tutish zarur.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta‘limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda. Zamonaviy pedagogikada “kreativlik” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.

Xorijiy mamalakatlarining ta‘lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘plab metod va strategiyalar

qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular o'quvchi va o'quvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatleri nihoyatda past rivojlangan o'quvchi va o'quvchilar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'quvchi shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi tadqiqot mavzusi dolzarbligining yana bir ko'rinishi hisoblanadi. Sinf dan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin: a) fan to'garaklari; b) mohir qo'llar to'garaklari; v) duradgorlik to'garaklari; g) sport to'garagi; d) badiiy havaskorlik to'garagi. O'quvchilarning sinf dan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinf dan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinf dan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va shu kabilar bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Amaliyotning ko'rsatishicha, o'quvchilar qancha ko'p kreativlik sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko'p faollikka erishadilar. Kreativ xarakterga ega mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirib, ular yanada ko'proq harakat qilishga undaydi. Sinf da kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan. O'quvchilarning sinf dan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinf dan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-

xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi: Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari. Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi, adolatli bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak. O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-odat, an'alarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi. O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'kituvchilar, maktabning muhiti, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganish va qabul qilish. O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar. Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu erda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng kata imkoniyatga egadir. O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sinf rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat

barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatleri jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. Uqituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak. O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari o'qitish shaklida amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari o'qitish shakli maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari o'qitish shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadilar mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

-pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'analarga egaligi;

-ulg'ayotgan barkamol shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

O'qituvchilarning **sinfdan va maktabdan tashqari ishlariga raxbarlik qilishni tashkil etish** va rivojlantirishning rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik o'zaro munosabatlar pedagogik omillari sifatida namoyon bo'lishi kerak. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Rahmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent-2010.
- 2.R.Mavlonova, N.Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limning integrat-siyalashgan pedagogikasi” T.,2009.
3. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar. Xalq ta’limi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet.
4. Qorayev S.B., Janbayeva M.S. “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish”. Academic research in educational sciences, 2(4).
5. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention  
[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## О НЕКОТОРЫХ ПРОБЛЕМАХ В ОБЛАСТИ ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

**М.А. Хамраев**

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,  
Республика Узбекистан, г.Ташкент  
E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются предложения с двумя предикатами, как некоторые языковеды называют слитными предложениями.

**Ключевые слова:** предикат, субъект сложные предложения.

### ABSTRACT

This article examines sentences with two predicates, as some linguists call fused sentences.

**Keywords:** predicate, subject of complex sentences.

В нашем языке есть такие конструкции, что очень трудно определить, простые они или сложные предложения. На наш взгляд, в группу таких конструкции можно отнести:

1. Конструкции с причастным оборотом.
2. Конструкции с деепричастным оборотом.
3. Конструкции с условным оборотом.
4. Полипредикативные предложения с одним подлежащим.

Их также можно разделить на три группы:

- а) полипредикативные предложения с одним подлежащим.
- б) полипредикативные предложения с одним и тем же подлежащим.
- в) полипредикативные предложения, выраженные вторым подлежащим местоимением.

Хотя первые три перечисленные конструкции имеют характеристики простых предложений, их трудно рассматривать как традиционные простые предложения. Вероятно, поэтому академик Г. Абдурахманов называет предложения с такими конструкциями (а также с обращением, вводным словом,

вводными словосочетаниями) усложненными простыми предложениями<sup>1</sup>. Усложненные простые предложения изучались в узбекском языкознании и других тюркских языках. К этой группе (группе усложненных простых предложений) С. Аширбоев относит и полипредикативные предложения с одним подлежащим (такие предложения он называет «простыми предложениями в переходе сложного предложения»)<sup>2</sup>.

в) **следующие** два типа полипредикативных предложений с одним подлежащим (б,в) специально в узбекском языкознании он не изучался. В русском языкознании подобные высказывания изучались, хотя и частично.

**Полипредикативные предложения с единым подлежащим** по содержанию аналогичны сложным предложениям, однако их трудно включить в ряды традиционных сложных предложений. Мы рассмотрим каждый из этих трех типов отдельно.

**1. Полипредикативные предложения с одним подлежащим, иными словами, предложения с одним подлежащим и несколькими предикатами, по строению и формированию подобны простым предложениям с однородными членами.**

Если опираться на взгляды, которые формируются последнее время в нашем языкознании, нам приходится пересмотреть вопрос об однородных сказуемых. Согласно тезисам<sup>3</sup>, опубликованным авторским коллективом под руководством Х.Нематова, в моделях типа (W+W)Pm однородность сказуемых явно заметна, но если каждое сказуемое получает свой маркер, то «надо говорить больше, чем однородность». В этих тезисах конструкции типа WPm + WPm названы обобщенным названием, то есть «сложные образования». По мнению авторов тезисов, в этом месте присутствуют две родственные модели предложений.

Вот несколько слов о термине «однородные члены (uyushiq bo'laklar)». По нашему мнению, этот термин не в полной мере охватывает суть частей, которые соединяются с одинаковыми частями одного и того же предложения в одном

---

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. 2-қисм. Т., 1976. 202-206 б.

<sup>2</sup> Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари. ДДА, Т., 1990. Есенов Х. Синтаксис усложненного предложения в казахском языке. Алмаата, 1992

3. Юкоридаги асар, 37-бет.

<sup>3</sup> . Х.Нигматов, К.М.Абдуллаев, В.И.Банару, Н.М.Махмудов, Д.А.Мухамедова, А.Нурманов. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков (тезиси формально-функционального исследования) “Советская тюркология” 1984, № 5 с.7.

предложении, поскольку в этом термине присутствуют такие оттенки значения, как «совместиться», «совместно». Однако любую часть предложения, которая слипается, не следует считать связной частью (в скобках можно сказать, что наличие в узбекском языке однородных и неоднородных определений также подтверждает эту идею).

Мы предлагаем для таких членов предложений узбекский термин “турдош бўлак”, поскольку он имеет значение “однородный”, и эта особенность отражает истинную суть членов предложений, которые мы называем “уюшиқ бўлаклар”.

Если подойти с этой точки зрения, то можно исключить многие нестандартные случаи внутри ряда однородных членов предложений, то есть, «однородные» определения, обстоятельства, нарушающие «плавно движущийся» ряд внутри однородных членов исчезнут.

Например, почему определения «неоднородные»? Они также отвечают всем требованиям, предъявляемым к «однородным» определениям, то есть связаны с одним членом, они отвечают на один и тот же вопрос: Машина ехала по широкой ровной дороге.

Именно такие типы определений являются “однородными” определениями. Определения в предложении “Красные и белые цветы слепили глаза” уместно было бы назвать “турдош” то есть, члены одного вида..

2.. Предложения, второе подлежащее которых выражено местоимением (часто возвратным ўзи и личным местоимением у), по своей структуре очень близки к сложным предложениям, поэтому академик Г. Абдурахманов называет такие предложения сложными<sup>1</sup>. На самом деле формально в таких предложениях два притяжательных и два причастных отношения: Бутабой газетуне дал, он читал сам, стараясь не медлить (А. К.) Если подойти с точки зрения логики, то субъект один – Бутабой. Бутабой, который газету не давал и не читал. Итак, единство формы и содержания здесь нарушено. Из вышеизложенного можно сделать следующие выводы:

1. Традиционно существуют приемы, которые не учитываются при делении предложений на простые и сложные.

---

<sup>1</sup> 1. Ғ.Абдурахмонов. Қўшма гап синтаксиси асослари. Т., 1958. 15-бет.

2. В одной части таких конструкций доминируют черты простого предложения (или “простоты”), а во второй группе сильнее проявляются черты сложного предложения (или “сложности”).

3. Необходимо задуматься об уместности термина “уюшик бўлаклар”, который используется в нашем языкознании.

4. В этих конструкциях выражается и явление асимметрии языка, неоднократно отмечавшееся лингвистами.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)**

1. Ф.Абдурахмонов. Қўшма гап синтаксиси асослари. Т., 1958. 15-бет.
2. Ўзбек тили грамматикаси. 2-қисм. Т., 1976. 202-206 б.
3. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари. ДДА, Т., 1990. Есенов Х. Синтаксис осложненного предложения в казахском языке. Алмаата, 1992
4. Юқоридаги асар, 37-бет.
5. Х.Нигматов, К.М.Абдуллаев, В.И.Банару, Н.М.Махмудов, Д.А.Мухамедова, А.Нурманов. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков (тезиси формально-функционального исследования) “Советская тюркология” 1984, № 5 с.7.

## STEM TA'LIMINI ASOSIY MAQSADI VA UN DAN FOYDALANISH USULLARI

**Jumabayev Abdulxamid To'xtanazarovich**

Namangan viloyati pedagog kadrlarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Namangan shahar., O'zbekiston Respublikasi

E-mail: [abdulxamid64j@gmail.com](mailto:abdulxamid64j@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada STEM ta'limi va uning afzalliklari, STEM ta'limining maqsadi, STEM ta'limi - o'rganishga fanlararo yondashuv STEM ta'limining o'quvchilarda asosiy ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, STEAM yondashuvi, STEAM ta'limi, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika, asosiy ko'nikmalar.

## ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ STEM-ОБРАЗОВАНИЯ И КАК ЕГО ИСПОЛЬЗОВАТЬ

**Джумабаев Абдулхамид Тохтаназарович**

Старший преподаватель кафедры "Методологии точных и естественных наук"  
Наманганского областного национального центра подготовки педагогических  
кадров по новым методологиям. город Наманган, Республика Узбекистан

E-mail: [abdulxamid64j@gmail.com](mailto:abdulxamid64j@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются преимущества STEM-образования, цель STEM-образования, STEM-образование - междисциплинарный подход к обучению, а также важность STEM-образования в формировании базовых навыков у студентов.

**Ключевые слова:** STEAM, подход STEAM, образование STEAM, наука, технологии, инженерия, искусство и математика, базовые навыки.

## THE MAIN PURPOSE OF STEM EDUCATION AND HOW TO USE IT

**Jumabayev Abdulkhamid Tokhtanazarovich.**

Senior teacher of the “Methodology of Exact and Natural Sciences” department of the Namangan Region National Center for Training Pedagogical Personnel in New Methodologies. Namangan city, Republic of Uzbekistan

E-mail: [abdulxamid64j@gmail.com](mailto:abdulxamid64j@gmail.com)

### ABSTRACT

This article discusses the benefits of STEM education, the purpose of STEM education, STEM education - an interdisciplinary approach to learning, and the importance of STEM education in the formation of basic skills in students.

**Keywords:** STEAM, STEAM approach, STEAM education, science, technology, engineering, arts and mathematics, basic skills.

STEM ta'lim mazmuni Atrofimizdagi dunyo o'zgarimoqda. Raqamli texnologiyalar bizning kundalik hayotimizning asosiy qismiga aylandi. Texnologiyaning rivojlanishi hamma narsaga, ayniqsa ish dunyosiga ta'sir qiladi. Butun ish sohalari paydo bo'lmoqda yoki yo'q bo'lib ketmoqda va ishchi kuchlari o'zgarishlarni kuzatib borishga shoshilmoqda.

**STEM (Science, Technology, Engineering and Mathematics)** fan, texnologiya, muhandislik va matematikani birlashtirgan o'quv jarayonini tashkil etishga yondashuvdir. STEM ta'limi bilim olishning asosi ilmiy hodisalarni oddiy va qulay vizuallashtirishdir. Bu amaliyotni hisobga olgan holda bilimlarni oson o'zlashtirish, texnologiyalar bilan ishlash va tabiiy jarayonlarni chuqur anglash, ularni amaliyotda bilish imkonini beradi.

STEM yondashuvi qo'llaniladigan maktablarda o'quv jarayoni va amaliy vazifalarni hal qilish markazda bo'lib, o'qituvchi ma'ruzachi sifatida emas, balki ta'lim jarayonining moderatori sifatida ishlaydi. O'rta maktab uchun STEM ta'limida o'qituvchining maqsadi - jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni imkon qadar sodda tarzda namoyish qilish va tushuntirish, shuningdek, o'rganishda mustaqillikni rivojlantirishdir. STEM ta'limi (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) to'rtta fanni birlashtirgan ta'lim yondashuvidir. STEM ta'limining maqsadi talabalarga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish va ularni STEM bilan bog'liq sohalarda kelajakdagi martaba uchun tayyorlash uchun ushbu fanlarni integratsiya qilishdir.



**Fan** - tabiat, hodisalar va insonning tashqi dunyosi bilan bog'liq qonunlar haqidagi fanlar majmui; bu koinotda mavjud yoki mumkin bo'lgan hamma narsaning aniq bilimidir. Dunyoning turli davrlarida ma'lum fanlarga qiziqish bo'lgan. Xronologik tartibda: XVII-XVIII asrlarda. mexanika 19-asrda hukmronlik qildi. - kimyo, fizika, biologiya, 20-asrning birinchi yarmida. - fizika, 20-asrning ikkinchi yarmida. - kimyo, fizika, biologiya. Bugungi kunda fanlar va ularni sintez qilish bo'yicha guruh rahbariyati mavjud bo'lib, bu tabiiy fanlar va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirish bilan bog'liq.

**Texnologiya** - kutilayotgan inson ehtiyojlari va istaklarini qondirish uchun tabiiy muhitni yangilash, o'zgartirish yoki o'zgartirish. Zamonaviy texnologiyalarning aksariyati tabiiy fanlar va muhandislik mahsulidir.

**Muhandislik** - bu dunyoni tizim sifatida ko'rish, uning elementlarini loyihalash va ularni boshqarish qobiliyati; inson ehtiyojlarini qondirish uchun ob'ektlarni loyihalashda tizimli va tez-tez interaktiv yondashuv. Muhandislik, shuningdek, mahsulotlarni loyihalash va inson tomonidan yaratish, muammolarni hal qilish jarayoni haqidagi bilimlar to'plamidir.

**Matematika** - bu real dunyoning miqdoriy munosabatlari va fazoviy shakllari haqidagi fan. Matematika tabiiy fanlar, muhandislik, texnologiya va san'atda qo'llaniladi.

### **STEM ta'limning afzalliklari**

STEM maktablari bolada alohida fikrlash uslubini shakllantirishi kerak. Ta'limga bunday yondashuv unga o'z harakatlarida izchil bo'lishga yordam beradi va shu bilan birga muqobil variantlarga ochiq bo'lishdan qo'rqmaydi. Darslarda o'qituvchining roli minimal darajaga tushiriladi, talabalar muammoni hal qilish yo'llarini mustaqil ravishda izlaydilar. Bu bolaning mustaqilligini tarbiyalaydi, jamoaviy ishda - o'quvchilar vazifalarni o'zaro taqsimlashni, amaliy vazifani hal qilishning eng maqbul usulini tanlashni o'rganadilar. Sinov va xato usuli olingan ma'lumotni tahlil qilishni o'rganishga, shuningdek, o'z nuqtai nazarini muhokama qilishga yordam beradi. STEM bolalar ongida mantiqiy zanjirlarni yaratadi va bolalarga dunyoga global qarashga yordam beradi. STEM ta'limining asosiy vazifalaridan biri maktab o'quvchilarida tizimli fikrlashni rivojlantirishdir. Shuning uchun STEM mashqlari orasida multidisipliner mashqlarni ko'pincha topish mumkin. Turli fanlar va voqelikka qarashlarni birlashtirgan holda, STEM ta'limi bolalarni tez rivojlanayotgan dunyoda yashashga o'rgatadi; yangi texnologiyalar va tendentsiyalarga osongina va tez moslashish.

### **STEM ta'limining bir qancha asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:**

**1. Fanlararo aloqa:** Har bir fan alohida o'qitiladigan an'anaviy maktab tizimidan farqli o'laroq, STEM bu fanlarni birlashtirib, ularning o'zaro bog'liqligini va real hayotda bir-biri bilan o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

**2. Amaliy qo'llash:** STEM ta'limi bilimlarni amalda qo'llash muhimligini ta'kidlaydi. Bu fan tajribalarini o'tkazish, muhandislik modellashtirish, dasturlash va talabalarga bilimlarini amalda qo'llashga yordam beradigan boshqa ko'plab tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

**3. Kelajakdagi martaba uchun ko'nikmalarni rivojlantirish:** STEM ta'limi fan, texnologiya, muhandislik va matematika bo'yicha kelajakdagi ish o'rinlari uchun muhim bo'lgan asosiy ko'nikmalarni, masalan, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, tahliliy va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

**4. Innovatsiyalarni rag'batlantirish:** STEM ta'limi asosan talabalarni innovatsion fikrlashga va innovatsion loyihalar va g'oyalarni ishlab chiqishga undashga qaratilgan.

STEM ta'limini maktab o'quv dasturlariga integratsiyalash o'quvchilarga fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning asosiy tushunchalarini chuqurroq va amaliy tushunishga yordam beradi, ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli martaba uchun tayyorlaydi.

#### **STEM ta'limdan foydalanish usullari**

STEM ta'limi talabalarni faol ishtirok etishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va bilimlarni amaliyotda qo'llashga undaydigan turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

STEM ta'limi kontekstida keng qo'llaniladigan bir necha usullar:

**Loyihaga asoslangan ta'lim.** Talabalar real muammolarni hal qilish yoki real vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali loyiha ustida ishlash usuli. Masalan, robotlarni loyihalash va qurish, shahar infratuzilmasi modellarini ishlab chiqish yoki barqaror biologik ekotizimlarni yaratish. Bu usul mustaqillikka, jamoada ishlashga va bilimlarni amalda qo'llashga undaydi.

**Muammoga asoslangan ta'lim.** Talabalar turli STEM fanlaridan olingan bilimlardan foydalangan holda haqiqiy yoki xayoliy muammolarni hal qiladilar. Misollar iqlim o'zgarishining ekotizimga ta'sirini tahlil qilishdan tortib, maktab binosida energiya tejash yo'llarini loyihalashgacha bo'lishi mumkin.

**Dizayn fikrlash.** Bu usul prototiplarni yaratish, natijalarni baholash va dizaynni takrorlash orqali muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Talabalar inson ehtiyojlari va texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda tezkor yondashuvni o'rganadilar.

**Interfaol va hamkorlikda o'rganish.** Munozaralar, guruh topshiriqlari, izlanishlar va laboratoriya ishlarini o'z ichiga olgan usullardan foydalanish STEM fanlarini samarali o'rganishga yordam beradi. Ushbu yondashuv muloqot, ijtimoiy o'zaro ta'sir va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Dasturlash va robototexnika.** Dasturlash asoslarini o'rganish va robototexnika loyihalarini yaratish texnologiya, matematika, muhandislik va fanga qiziqishni uyg'otishi, shuningdek, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Masalan, aqlli qurilmalar yaratish yoki soxta muhandislik muammolarini hal qilish uchun Arduino platformasidan foydalanish.

**Vizualizatsiya va modellashtirish.** STEM ta'limida vizualizatsiya va modellashtirishdan foydalanish talabalarga murakkab tushunchalarni yaxshiroq tushunishga va tadqiqot natijalarini tasavvur qilishga yordam beradi. Bu kompyuter modellashtirish bilan ishlash, 3D modellarni yaratish yoki o'qitish uchun virtual haqiqatdan foydalanish bo'lishi mumkin. Bu usullar o'qituvchilarga o'qishni qiziqarli va amaliy qilish orqali o'quvchilarni jalb qilish imkonini beradi, shu bilan birga bugungi dunyoda zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Turli xil o'qitish usullarini birlashtirib, siz o'quvchilaringiz uchun qiziqarli va foydali o'quv muhitini yaratishingiz mumkin.

### **STEM loyihalari**

STEM ta'limida o'qituvchilarni jalb qilish va bilimlarni amaliy qo'llashni namoyish qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab qiziqarli va ilhomlantiruvchi loyihalar mavjud.

**Maktab sinflarida foydalanish mumkin bo'lgan STEM ta'lim loyihalariga ba'zi misollar:**

1. **Robotni loyihalash loyihasi:** Talabalar qurilish to'plamlari yoki mikrokontrollerlar yordamida robotlarni loyihalash va qurish uchun guruhlarda hamkorlik qilishlari mumkin. Ushbu loyiha nafaqat talabalarga muhandislik va dasturlash asoslarini tushunishga yordam beradi, balki jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

2. **Ekotizimni o'rganish:** Talabalar o'z mintaqasidagi biologik ekotizimni o'rganish, o'simliklar, hayvonlar va atrof-muhitning o'zaro ta'sirini o'rganishi mumkin. Bu ularga biologiya va ekologiya bo'yicha olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

3. **Aqlli shahar loyihasi:** Talabalar transportni boshqarish, ekologik barqarorlik va fuqarolarning turmush darajasini oshirish kabi turli jihatlarni o'z ichiga olgan aqlli shahar modelini yaratish ustida ishlashlari mumkin. Ushbu loyiha texnologiya, muhandislik va shaharsozlik sohalarida fikrlashni rag'batlantiradi.

4. **Astronomiya va fazoni o'rganish:** Talabalar yulduzlarni tomosha qilishlari, astronomiya asoslarini o'rganishlari va hatto quyosh tizimining o'z modellarini qurishlari yoki kosmik missiyalarni o'rganishlari mumkin.

5. **Yashil dizayn loyihasi:** Talabalar biologik parchalanadigan materiallardan qadoqlash yoki energiya tejovchi dizaynlarni loyihalash kabi muqobil materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda ekologik toza yoki barqaror dizayn loyihalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Ushbu loyihalar talabalarning yosh guruhiga qarab moslashtirilishi mumkin va STEM fanlariga qiziqishni rivojlantirish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun ajoyib vosita bo'lishi mumkin.

### **STEM loyihasi: Ekotizimni o'rganish**

Ekotizimlarni o'rganish - bu STEM ta'limi talabalari uchun qiziqarli va ta'lim loyihasi. Ushbu loyiha biologiya va botanikadan tortib ekologiya va geografiyagacha bo'lgan keng ko'lamli mavzularni qamrab olishi mumkin. Keling, ekotizimni o'rganish loyihasiga kiritilishi mumkin bo'lgan bir nechta g'oyalar va qadamlarni ko'rib chiqaylik.

#### **1-qadam: O'quv saytini tanlash**

Tadqiqot uchun joy tanlash muhim rol o'ynaydi. Bu o'rmon, daryo qirg'og'i, dala, ko'l yoki boshqa tabiiy muhit bo'lishi mumkin. Talabalar turli joylarning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilishlari va ongli qaror qabul qilishlari mumkin.

#### **2-qadam: Ekotizimni o'rganing**

Talabalar tanlangan ekotizimning flora va faunasini o'rganishlari, biologik xilma-xillikni, hayot aylanishlarini va turli xil o'simliklar va hayvonlarning o'zaro ta'sirini o'rganishlari mumkin.

#### **3-qadam: Namuna olish va tahlil qilish**

va Abdulatif Mirzo o‘rtasida bo‘lib o‘tgan o‘zaro suhbat jarayonida yaqqol ko‘rishimiz mumkin: “Baribir qo‘shin orasida sizning sarkardalik obro‘yingiz... hazrat otangiznikidan balandroq, Mirzo Abdulatif! Otam mening ko‘tarilib ketishimni istamaydilar mi? Hayronmen. ...Baribir ertami, kechmi Samarqand bizniki bo‘lgay, Mirzo Abusayid! Bilursizki, otning jilovini behuda tortaversalar, bir emas bir kun jilov uzilib ketgay!” (104-b.). Ushbu dialoglarda Abdulatif Mirzoning otasiga qarshi ochiqchasiga kurashga tayyorlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ota va farzand munosabatlari keskinlashuvining yana bir asosiy sabablaridan biri bu ham Xuroson yurishi voqealari rivojida kelib chiqqan. Ma’lumki, Alauddavla Ulug‘bek Mirzo va Abdulatif Mirzoning birlashgan kuchlari tomonidan yengilgach, poytaxt Hirot mudofaasini ham o‘ylamay, Mashhadga chekinadi. Hirot shahrida esa Ulug‘bek Mirzoning onasi Gavharshod begim Alauddavla tomonidan uy qamog‘ida saqlanayotgan edi, Ulug‘bek Mirzo g‘alaba qozonganidan keyin Hirotga elchi jo‘natib, u yerda kutib turishlarini so‘raydi. Lekin Abdulatif Mirzo tufayli uzoq muddat intizorlik bilan kutilgan visol onlari amalga oshmaydi. Chunki Gavharshod begim elchilar taklifidan xursand bo‘ladi: “Men jon deb Ulug‘bek huzuriga borardim, sog‘ingan farzandimni bag‘ringa bosardim. Lekin Abdulatifdan qo‘rqamen. Uning atrofida qilichidan qon tomgan beshafqat amirlar yig‘ilgan” (100-b.), –deb javob beradi va Astroboddagi nevarasi Abulqosim Bobur tomonga ketishga majbur bo‘ladi. Ushbu harbiy yurishning keyingi voqealar rivojida ikki temuriy: Abulqosim Mirzo va Ulug‘bek Mirzo o‘rtasida urushni to‘xtatish va sulh tuzish masalalari bo‘yicha ma’lum muddat elchilik munosabatlari yo‘lga qo‘yiladi, o‘z navbatida Mirzo Ulug‘bek ham Xurosonni tinchitib tezroq Samarqandga qaytishni reja qilgan edi. O‘g‘li Abdulatifga ham Xurosondagi Bistomdan nari o‘tmaslik va bir sulola vakillari o‘rtasida ortiqcha qon to‘kilmaslik kerakligi haqida ta’kidlab o‘tadi. Lekin johil va shuhratparast o‘g‘il otasining farmonini buzib Gavharshod begim istiqomat qilayotgan Astrobodga bostirib kiradi, buning natijasiki, Gavharshod begim bu voqeadan qattiq ranjiydi va Mirzo Ulug‘bekning yoshlikdagi qissaxoni Mavlono Hamzaga dil yoradi: “Bizning boshimizga tushgan ko‘rgiliklar hech kimning boshiga tushmasin, mavlono! – deb so‘z boshladi. Nevaralarning ko‘pi beoqibat chiqqani ustiga yolg‘iz o‘g‘lim Ulug‘bek ham bizni bunchalik ayovsiz ta’qib etganiga lolman!” (110-b.). Ushbu voqealarni Ulug‘bek Mirzo Mavlono Hamzadan eshitib o‘g‘lining bu ishidan g‘oyatda g‘azablanadi va urush harakatlarini to‘xtatadi, ammo Abdulatif Mirzo otasining bu ishidan norozi kayfiyatda qaytadi. O‘zaro suhbat jarayonida Ulug‘bek Mirzo o‘g‘lining o‘zboshimchaligini qoralagan holda o‘g‘liga tanbeh beradi: biz tufayli ulug‘ onamiz va qarindosh urug‘lar va yosh bolalar qachongacha quvg‘inda yurib azob tortadi yoki “Odamiylikdan butunlay voz kechaylikmi?” deb o‘g‘lini



insofga da'vat etadi. Abdulatif Mirzo esa otasining tanbehiga javoban "Men insoniylikni unutmaysan, faqat podshohlikni ustun bilamen" qabilida munosabat bildiradi. Ulug'bek ham o'g'lining fikrlaridan taajjublangan holda undan hafsalasi qaytadi va yaqin tarixni eslatadi: "Abulqosim ham tug'ishgan inimning o'g'li, menga siz kabi farzand. Agar men davlat-u mamlakat manfaatlariga sizni qurbon berib, bultur Ixtiyoriddin qal'asidagi hibsdan qutqarib olmaganimda... haligacha Alauddavla o'ldirib yuborishi mumkin edi-ku! Rost, hazratim, siz bultur meni naq o'limdan olib qolgansiz... Naq o'limdan qutqarilgan farzand uchun... Tarnobdagi fathnomaning inisi nomiga yozilgani-yu, Hirot xazinasidagi necha tuman haqini ololmayotgani hayot-mamotga nisbatan arzimas narsalar emasmi?!".

– Bu borada siz haqsiz, otajon!

Ulug'bekning so'nggi so'zlari Abdulatifga yashin zarbasiday ta'sir qildi. Kasalligi ustiga qo'shilgan bu zarbadan oyoqqa turolmay yiqilganday bo'lganda, mulozimlari uni ikki tomonidan suyab tutib qoldilar" (115-b.). Yuqoridagi fikrlarda Mirzo Ulug'bekni ikki o't orasida qolgan chorasiz inson sifatida ko'ramiz. Yurt, saltanat tashvishi tufayli jonajon onasi bilan diydor ko'risholmasligi, ikkinchidan, ne tahlika bilan qutqarilgan o'g'ilning o'zboshimchaliklari aynan Abdulatif tufayli onasini ko'rolmasligi, uni yechimsiz muammoga giriftor etadi. Chunki har qancha noqobil bo'lsa-da Abdulatif uning jigarbandi. Undan ham voz kecha olmaydi. Aksincha, u ota va o'g'il o'rtasidagi nizoni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Jumladan, uning Ixtiyoriddin qal'asidagi oltinlarini o'ziga qaytarib beradi ("Ona lochin vidosi" da shunday deyilgan, ta'kid bizniki – Sh. S.). Bundan tashqari, unga Xuroson taxti va Balx viloyatini boshqarishni joiz ko'radi. Lekin Abdulatif otasining bu ishidan unchalik xursand bo'lmaydi va o'zini imkon topilganda Turonga chaqirib olishini so'raydi. Ulug'bek Mirzo Samarqandga jo'nab ketadi. Lekin ko'p o'tmay Abulqosim Bobur Hirotga bostirib kiradi, Abdulatifni talonchiliklari uchun hirotliklar uncha xushlamasdi. Shuning uchun u qayta asir tushishni xohlamay alamzada ahvolda Balxga o'tib ketadi va otasiga qarshi harbiy yurishga tayyorlana boshlaydi. Oxir-oqibatda, o'sha mash'um Mirzo Ulug'bek fojiasi ro'y beradi.

Yuqoridagi tahlillardan fojiani keltirib chiqargan sabablar sifatida quyidagicha umumlashma xulosalar chiqariladi:

birinchidan, Mirzo Ulug'bek va Abdulatif o'rtasidagi tafakkur xilma-xilligi va dunyoqarashdagi ziddiyatlar hamda toj-u taxt mojarosi Ulug'bek Mirzo fojiasini keltirib chiqardi;

ikkinchidan, Abdulatif Mirzoning ham ruhan, ham aqlan tom ma'noda sog'lom emasligi uni Mirzo Ulug'bekka qarshi kuchlarning quroliga aylantirib qo'yadi;



uchinchidan, Ulug‘bek Mirzo ham Abdulatifga nisbatan adolatsizroq bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlikali vaziyatda uni bir emas, ikki marta poytaxtdan uzoqda qoldirib ketilishi hamda otalik mehri Abdulatifga nisbatan Abdulazizga kuchli bo‘lganligi buni quvvatlaydi;

to‘rtinchidan, Ulug‘bekning qirq yillik hukmronligi davrida uning ko‘proq dunyoviy ilmlarga e‘tibor qaratgani, Samarqanda butun boshli astronomik maktabni yaratgani, diniy ilmlardan ko‘ra dunyoviy ilmlarning gullab-yashnagani mutaassib dindorlarga unchalik ham yoqmagan, buning oqibatida madrasa mudarrislari va talabalari hamda diniy ulamolar o‘rtasida goh ochiqchasiga, goh zimdan adovat davom etib kelavergan. Yillar davomida davom etgan ziddiyatlar Mirzo Ulug‘bekka qarshi katta kuchlarning yig‘ilishiga sabab bo‘ladi. Ular o‘zlari uchun najotkor sifatida Abdulatifni ko‘radilar va o‘z navbatida bu holat ham Ulug‘bek fojiasini qaysidir ma’noda tezlashtiradi. Bundan tashqari, Shohrux Mirzoday qudratli hukmdorning vafot etishi voqealaridan keyin saltanatdagi tartibsizliklar temuriy shahzodalar o‘rtasidagi taxt uchun kurashning boshlanib ketishi harbiy amaldorlar va sarkardalarga qo‘l kelgan. Chunki ilm-fan va madaniyatga ko‘proq e‘tibor beradigan Ulug‘bekday hukmdordan ko‘ra Abdulatifday harbiy sohaga moyilligi kuchli hukmdorning taxtga kelishi ayni muddao edi. Millat va yurt himoyasidan ko‘ra boylik orttirish, ko‘p o‘ljani qo‘lga kiritishni maqsad qilgan sarkardalar uchun 40 yil davomida tinch-osuda yashab boyigan Turonni egallash va tajribasiz Abdulatifni taxtga o‘tqazish ayni imkoniyat edi. Mirzo Ulug‘bek fojiasi butun boshli Movarounnahrdagi ma’naviyat va madaniyatning fojiasi edi. Chunki johil va ilmsiz shaxslar ta’siriga tushgan Abdulatif butun boshli madaniy merosni yo‘q qiladi. Ali Qushchi tomonidan saqlab qolingani esa hali-hanuz topilgan emas. Abdulatifning esa padarkush bo‘lishida faqatgina Abdulatif aybdor deb hukm chiqarish ham tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Qodirov P. Ona lochin vidosi. –T.: “Adad Plyus”, 2010. 33-bet
2. M. Safarov. Ulug‘ ona qissasi / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. – Toshkent, 2004, 22-noyabr. № 46.
3. Doniyarova Sh. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon (monografiya). –T.: “Mumtoz so‘z”, 2011. 11-bet.
4. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. –T.: “Nodirabegim nashriyoti”, 67-bet.
5. O. Muxtor. Ishq ahli. –T.: “Sharq”, 2006. 64-bet.
6. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. 277–278-betlar.
7. A. Samarqandiy. Matlayi sadayn va majmayi bahrayn. –T.: “O‘zbekiston”, 2008. 305–306-betlar.

## “QUTADG‘U BILIG” ASARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI IJODIY TAFAKKUR QILISHGA YO‘NALTIRISH

**Mirzohidova Laylo Baxtiyorovna**

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti Uzluksiz kasbiy ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Qutadg‘u bilig” asarining o‘qitilishi haqida so‘z yuritiladi. Asar materiallari tahlil etilgan. O‘qitish usullari ko‘rsatilgan. Natijalar bayon qilingan. Tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Qutadg‘u bilig”, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiya, klaster, FSMU.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta‘lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik axborot texnologiyalarni joriy qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma‘lumki, uzluksizlik va uzviylik ta‘lim tizimida oritqcha takroriylikka chek qo‘yib, avvalo, jamiyatning ma‘naviy intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Shundan kelib chiqqan holda, biz adabiyot fanini o‘qitishda davr talablari nuqtayi nazaridan yondashmog‘imiz va har tomonlama shakllangan, ijodiy tafakkur qila oladigan, kompetentli barkamol avlodni tarbiyalashga e‘tiborni qaratishimiz lozimdir.


Biz quyida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining mazmun-mohiyatini o‘quvchilarga uqtirishda innovatsion tahlil usullaridan foydalanamiz.

**1-topshiriq.** O‘quvchilar dostonidan berilgan to‘rtliklarni o‘qib quyidagicha tahlil qiladilar.

*Kimni bek qilib yaratishni istasa Xudo, Oldin unga aql-u uquvdan qanot beradi). Beklar yumushi bu – mamlakat ishi, beklik nimaligini bilar bek kishi).*

Ushbu misralarda berilgan fikrlarni “Klaster” usulida tahlil qiling.

Elig aydi uqtun bu so‘z barcha chin,  
Ko‘ni so‘zlading so‘z yipar burdi kin.  
Bu ish qilquchi yer qilur o‘z ishi,  
Mun yerdan biligli ko‘rugli kishi.  
Men ish qilquchimen sen ish ko‘rguchi,  
Ishig ko‘rguchidin bilur qilquchi.  
Bayat berdi emdi sena o‘g ko‘ngul,  
Uqush qam bilig birla bo‘lding amul.  
Qamuq ishni uqtung ma bilding o‘zun,  
Menga ma baqirsaq-sa qilqin so‘zun.



Ushbu misralarda ifodalangan fikrlarni bugungi kun bilan bog‘lab “FSMU” usulida tahlil qiling.

Apa o‘qlani barcha asli dedug  
Bilig birla bo‘ldi ko‘r udrun kad oq.  
Uruq edgu bo‘lsa er edgu bo‘lur  
Er edgu bo‘lib o‘tru to‘rka yubarur.  
Iduq ul beglik ariqliq tilar  
Ariqliq bila elda saqliq tilar.  
Neki ter eshitgil O‘tukan begi  
Sinab sozlanish so‘zni yetru o‘gi.

**F** – fikringizni bayon eting. Menimcha xalqni boshqarish uchun aql-idrokli, ishbilarmon, halol, pok, adolatli inson bo'lish lozim. Bu fikrlar Muhtaram Birinchi Prezidentimizning asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

**S** – sabab ko'rsating. Chunki aql-idrokli insongina xalqiga ga'mxo'rlik qila oladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining aql-idroki, yuksak intellektual salohiyati, mehnatkashligi tufayli mustaqil O'zbekistonimizni shu darajaga yetkizdi.

**M** – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring. Misol uchun, Kuntug'di xalqini halol, pok, adolatli boshqarish uchun oldiga Oyto'ldi, O'gdulmishdek bilimlilarni oldiga yig'ishi. Birinchi Prezidentimiz davlatni adolatli va muntazam rivojlanishini tashkil etish uchun Konstitutsiyani qabul qildi, taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni ishlab chiqdi.

**U** – fikringizni umumlashtiring. Demak, aql-idrokli inson bir o'zigina xalqni boshqara olmaydi. Inson hamisha aql-idrokli, halol-pok insonlar ko'magida xalqni to'g'ri va adolatli boshqara oladi. Birinchi Prezidentimiz o'z ishini puxta biladigan, faol tashkilotchi kadrlani davlat boshqaruviga jalb qildi.


***Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qiling.***

Budunqa begi artuq o'drum kerak  
Ko'ngil til ko'ni qilqiy ko'drun kerak  
(Xalqning begi yetuk, sara bo'lishi kerak,  
***Ko'ngli va tili ezgu***, xushfe'l bo'lishi kerak).


***Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qiling.***

Biliglik uqushliq budunqa talu  
Aqi qam ko'zi to'q ne ko'ngli to'lu.  
(Bilimli, uquvli, xalqining baxti,  
***Saxiy ham ko'zi va ko'ngli to'q bo'lishi kerak***).

“Venn diagrammasi” usulida tahlil.



Beklik mustahkam bo`lishi uchun to`rt narsaga ega bo`lishi kerak:






Bobning tub mohiyatida yotgan masala – bugun uchun ham dolzarb. Hozirgi zamonda boshqaruv ilmi, rahbarga qo`yiladigan talablar mukammal bir ilm darajasiga ko`tarilgan. Shu masalalar o`zbek adabiyotida bundan o`n asrlar ilgari shu darajada tahlil etilganining o`zi jahon tamadduniga xalqimiz nechog`li buyuk hissa qo`shganini yana bir karra isbotlab turibdi.

Shuning uchun ham G`arb Sharqni donishmand deb biladi. Shuning uchun ham, «Qutadg`u bilig»ni G`arb olimlari atroflicha o`rgangan, o`z tillariga tarjima qilgan. Bunday ilmiy-adabiy qiziqish hamon davom etmoqda.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan yana quyidagi topshiriqlar ustida ishlash mumkin:

O`quvchilar quyidagi topshiriqlar beriladi:



Nima uchun Kuntug'di adolatning ramzi sifatifa kelganligini "FSMU" usulida izohlang.

**F** – fikringizni bayon eting. Menimcha .....

**S** – sabab ko'rsating. Chunki .....

**M** – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring. Misol uchun , .....

**U** – fikringizni umumlashtiring.

**4.** "Bilim", "Adolat", "Davlat", "Qanoat" so'zlariga "Sinkveyn" tuzing.

1. Bitta so'z (ot) Bilim
2. Ikkita so'z (sifat) nazariy, amaliy;
3. Uchta so'z (fe'l)
4. To'rtta so'z (gap)
5. Bitta so'z (birinchi so'zning ma'nodoshi)

Xulosa qilib aytganda, bugungi jamiyatda har tomonlama yetuk, barkamol shaxslar kerak ekan, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bunday shaxslarni tarbiyalashda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Jumladan, maqolada ko'rsatilgan usullar ham ana shunday erkin, mustaqil fikrlovch, ma'lum vaziyatlarda kompetentli faoliyat yuritaoladigan barkamol avlodni tarbiyalashga yordam beradi. "Demokratik



jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir", - deyiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida. Darhaqiqat, hozirgi ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunumini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda adabiyot fanining tutgan o'rni hamda imkoniyatlari benihoya katta.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
2. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari malakasini oshirish fakulteti tinglovchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2004.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2006.
4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – Toshkent, 2008.

## MILLIY BOSH KIIYIMLARNING TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI

**Nurullayeva Zulayho Ravshan qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti tayanch doktoranti

E-mail: [zulayho9294@mail.ru](mailto:zulayho9294@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy bosh kiyimi-do‘ppilarning tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi, do‘ppilarning choklari, tasvirlari va yozuvlari bo‘yicha olib borilgan izlanishlar va ularning qisqacha izohlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Do‘ppi, bodomnuxsa, qalampirnuxsa, tuppe, Kerrey, shakl, semantika.

Libos, ayniqsa, bosh kiyim hamma davrlarda, hamma xalqlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bosh kiyimga qarab odamning ijtimoiy mavqei, millati, qaysi elat yoki urug‘ga mansubligi, qaysi tabaqadan ekani, yoshi, jinsi, oilaviy maqomigacha bilish mumkin bo‘lgan. Bejiz hukmdorlar toj, qalandar-darveshlar qalpoq, ma’lum yoshga qarab xorazmliklar cho‘girmani turli rangdaxisini, toshkentlik yigitlar uylangan yoki bo‘ydoqligiga, unashtirilganini bildiruvchi kashtali do‘ppilar kiyimagan. Shuning uchun bosh kiyim avvalo egasining maqomini ko‘rsatib turuvchi “ma’lumotnoma” bo‘lgan. Bosh kiyim ustki libos bilan mutanosib bo‘lishi ham kerak. Nafaqat kiyinish uslubi, balki liboslar ranglari ham bir-biriga mos bo‘lsa, nur ustiga nur (bu mutanosiblikni, ayniqsa, ayol-qizlar qoyillatadi). Sababi libos insonning butun boshli “ID kartasi” vazifasini bajaradi.

Do‘ppilar paydo bo‘lishining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Etnograf olim Л.Будагов Ценкерга (Сенги-Лахи лугати) ga tayangan holda bu so‘z turkcha “tube”, “tupe”-(cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan, deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma’nosida ikki variantni “tubetay” va “tuppi”ni keltiradi.

Do‘ppi O‘rta Osiyoda qadim zamonlardan beri milliy libosning bir qismini to‘ldirib kelgan. Qadimdan kashta tikilgan do‘ppilarni erkaklar ham ayyolarimiz ham kiyishgan. Shu bilan bir qatorda O‘rta Osiyoda yashaydigan ko‘plab xalqlarning ham bosh kiyimi hisoblanadi. Do‘ppi butun musulmon xalqning bosh kiyimidir, u shakli, rangi, naqshi, yo‘nalishi va jug‘rofiy kelib chiqishiga qarab farqlanadi.

Shakl va bezak sematikasi masalalari san'atshunoslikning qiziqarli muammolaridan biri hisoblanadi. Sharq an'anaviy san'atida har qanday tasvir ma'lum ma'noga ega. Bu borada ko'plab tadqiqotchilar va san'atshunoslar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Do'ppilarning tarixi, kelib chiqishi, turlari, ular anglatadigan ma'nolar hamisha san'atshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Juda ko'p izlanuvchilar do'ppilardagi bezak va naqshlarni sharxlab berganlar. Ular tabiat hodisalari haqidagi kishilarning ramzlarida ifodalagan murakkab dunyoqarashini aks ettirgan. Bezak, ashyolar, kashtalar tabiat hodisalari tog'risidagi ramzlarning yoddan ko'tarilgan yoki vaqtlar o'tishi bilan unutilgan jihatlarini o'zida saqlab qoladi. Har qanday belgi va ularning majmuasi qisqa shaklga ega bo'lsada, ularni tasvirlash va tavsiflash mumkin. Chunki ular ma'lum bir axborotni o'zida jamlaydi.

Do'ppidagi choklarning ham o'ziga xos ramziy ma'nolari bo'lib, ular D.Murodovning tadqiqotlarida o'rganilgan. D. Murodovning 2004-yildagi "O'zbekiston do'ppilari" hamda "Do'ppido'zlik san'ati" nomli risolalarida zardo'zlik va do'ppilarda qo'llaniladigan chok turlarini, ularning qanday usulda tikilishini izohlab bergan.

San'atshunos va rassom M. Foziliy o'zining "Do'ppi kosmogoniyasi yoki bu bodom tasviri emas" nomli 2005-yildagi ilmiy risolasida ham aynan shu mavzuga murojaat qiladi va do'ppilarda yashiringan semantik ma'nolarni izohlab beradi. U o'z ilmiy izlanishlarida do'ppilardagi olam tasvirlarini o'rgandi. San'atshunos do'ppidagi tasvir avlodlar davomiyligini ta'minlovchi homila bilan bog'liq deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa do'ppidagi qalampirmunchoq tasviri do'ppi egasini turli balo-qazolardan va ins-jinslardan asrovchi ilohiy himoya vositasi bo'lgan, deb ta'kidlaydi.

Falakiyotshunos olim S. Azizovning yozishicha, do'ppining oq-qora rangi tun-kun bilan, to'rt tomoni olamning t,o'rt tomoni bilan, to'rt tomonida uchtdan aylana dumaloq ko'rinishdagi jami o'n ikkita shaklni o'n ikkita burj bilan qiyoslash mumkin. Dumaloq do'ppi - samo gumbazi ifodasidir.

Tarix fanlari nomzodi Zahriddinbobir Haydarovning ilmiy qarashlari bo'yicha do'ppidagi tasvirlar qadim ajodlarimizning samoviy tasavvurlari asosida shakllangan bo'lishi bilan birga ilohiy himoya vositasi ham bo'lgan bo'lsa kerak. Aynan shu sababga ko'ra, Farg'ona vodiysida erkaklarning do'ppisiz, yalangbosh yurishlari noaxloqiy alomat tarzida tushunilgan.

San'atshunos Elmira Gyulning 2013-yilda yozgan "Samoviy bog'lar va zamin bog'lari" nomli monografiyasida yozishicha, bodom naqshlari Misrda paydo bo'lgan,

u yerda bug‘doy boshog‘ini o‘lmaslik belgisi sifatida ramziy qilgan. Pokistonda u “Kerrey” deb ataladi, bu urdu tilida “mango urug‘i” degan ma‘noni anglatadi,

“XIX-XX asrlardagi O‘zbekiston do‘ppilari” albomi do‘ppi kabi milliy dekorativ-amaliy san‘at turining tarixi va rivojlanishini, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining keng to‘plamidagi va shaxsiy to‘plamlarda mavjud namunalardan kelib chiqqan holda, turli xillari va mahalliy xususiyatlari haqida gapirib, o‘quvchiga o‘zbek milliy kostyumining ushbu tarkibiy qismi, uning mazmuni va uslubi, evolyutsiyasining murakkab jarayonini kuzatishda yordam beradi. Albomning foto qismida ilgari mavjud bo‘lgan va hozirgi kunda O‘zbekistonning turli mintaqalarida joylashgan turli xil do‘ppilar mavjud.

Do‘ppilardagi yozuvlar bo‘yicha san‘atshunos va kolleksioner Irina Bogoslavskaya izlanishlar olib borgan. Bogoslavskayaning shaxsiy do‘ppilar kolleksiyasida ham yozuvli do‘ppilarni uchratamiz. Kolleksiya-dagi XIX asga oid bunday do‘ppilar haqida u o‘zining “XIX-XX asr boshlaridagi O‘zbekistonning do‘ppilari” kitobida yozadi. Usta Pirnazar tomonidan yaratilgan do‘ppilarni tahlil qiladi. Ulardan birida “Pirnazar usta Muhammad Aminxon uchun tikdi. Uni tabriklayman”, ko‘rinishida tikilgan.

O‘rta Osiyolik taniqli kolleksioner Boris Anatolevich Golenderning ham bu haqda ma‘lumot bergan. "XIX asrda “xon” lavozimi, shuningdek, O‘rta Osiyo mamlakatlarining hukumat vakillari, amaldorlar hamda e‘tiborli avlodlar sardorlari duxobadan yozuvli do‘ppilar kiyishgan. Ulardan eng taniqlisi Xiva xonligining Qo‘ng‘irot inoqlari sulolasi beshinchi avlodi vakili Muhammad Aminxon hisoblanadi. U o‘n yil (1845-1855) davomida Xorazm xonligini boshqarib, Eron bilan turkman qabilasi chegarasiga egalik qilish uchun kurashgan va u 1855 yilning 20 mayida Seraxs shahrining qamali chog‘ida vafot etgan.

XIX asrning 40-yillarida yashagan, aslida Buxoroda tug‘ilgan usta Pirnazarning Xorazm xoniga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? Do‘ppida bitilgan tabrik Muhammad Aminxonning davlat tepasiga kelishi yoki uning g‘alabasiga bag‘ishlangan, degan taxminlar yuradi. Nega usta zargarning Muhammad Aminxonga bunchalik e‘tibor qaratishining asl mohiyatini hali hech kim aniqlamagan. Ammo Pirnazar zargarning ushbu yozuviga xaridorlar albatta e‘tibor bergani kishini taajublantiradi. Ushbu yozuv do‘ppining uzunasiga 19 santimetr hajmda bitilishida ham bir ma‘no bor. Markazda to‘q qizil va och jigarrang duxoba fonida to‘rt tilla gulbargi bo‘lgan katta gul shakli kiritilgan. Har bir gulbarg markazdan dunyoning to‘rt tomonini ko‘rsatgan, bu go‘yoki kompas vazifasini o‘taydi.

Shu o‘rinda aytish joizki, milliy bosh kiyimlari- do‘ppilar haqida qiziqarli va kerakli izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlar zamirida, bosh kiyimlarning ilmiy,

tarixiy, diniy xususiyatlarini o'rganish va tavsiflash, hamda, ularni saqlash va muzey ekspozitsiyasida namoyish etish masalalari yotadi.

Yuqoridagi izlanishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, do'ppilar haqida turli qarashlar va faktlar mavjud. Ularni umumlashtirgan holda do'ppidagi ramzlarni yilning to'rt fasliga, dunyoning to'rt tomoniga va olamning yaralishiga qiyoslash mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Ashurova. S. O. O'zbek milliy do'ppilari tarixi va ularning turlari // EUROAIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. 2022. No 2. 227-232 b
2. Bozorboyeva U. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent 2022. 107 b
3. Ikromova F. Boshimda tursa O'zbekim do'ppisi // INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022. No 4. 53-56 b
4. Haydarov Z.U. Nomoddiy madaniy meros. Namangan. 2014. 151-152 b
5. Nurullayeva Z. Bitiruv malakaviy ishi . Toshkent: 2020. 59 b
6. Sodiqova N, G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent. 2014.
7. G'aybullayeva Y. Do'ppilar tarixidan. T.: Moziydan sado. 2010.

## TECHNOLOGY'S IMPACT ON THE EDUCATION PROCESS

**Rustamova Shahnoza Aripovna**

SamSIFL, EFL teacher

**Juraeva Shakhlo Dilshod qizi**

a student of second course 2204 group

### ABSTRACT

This literature review aims to explore and analyze the importance of technology in the learning process. The progress of technology in education has transformed the way students learn and mentors teach. Through an extensive review of research articles, this paper highlights the positive impact of technology on student engagement, motivation, information retrieval, and collaboration. Additionally, it addresses the challenges and potential drawbacks associated with technology integration, offering recommendations for effective implementation. Ultimately, this review emphasizes the essential role that technology plays in enhancing the educational experience and preparing students for the digital age.

**Keywords:** Educational technology, digital learning, student engagement, personalized learning, collaborative learning, access to information, teacher training, adaptive learning, online resources.

The impact of technology on education is profound, revolutionizing the way knowledge is accessed, shared, and applied. It has democratized learning by offering diverse resources, enabling personalized learning experiences, and fostering global connectivity among students and educators. While it has vastly improved access and engagement, challenges like equitable access to technology and ensuring its integration enhances rather than replaces traditional teaching methods are crucial considerations for maximizing its positive influence on the education process.

Traditional face-to-face classes have served as an advantageous method of getting to know and instructing for the longest time. It has produced visible and best consequences and hasn't been puzzled until the world confronted a common enemy, the CoVid-19 pandemic that stopped everybody from attending the normal in-person classes.



That state of affairs proved that technology could be enough and supply the same, if no longer better, effects in the gaining knowledge of process. Technology honestly impacts schooling in a range of ways.

We all use technology in some structure or some other in our daily activities. As time passes, it has come to be extra vital in our lives, changing the way we consume and process information. The impact of technological know-how can be seen in every location of our lives; however, the have an impact on of science on schooling has been the most noticeable in latest years. Schools are incorporating more and extra technological know-how into the lecture room to keep up with technological advances in hopes of getting ready college students for the unexpectedly altering world of technology.

Collaboration can be aided through academic technology. Teachers can talk with students during lessons, but students can additionally engage with one another. Students collaborate to clear up troubles via on line lessons and academic games. Students can share their thoughts and thoughts and motivate one some other in collaborative activities. Simultaneously, science lets in for one-on-one interaction with teachers. Students can ask questions about the lecture room and receive additional assistance with the difficult-to-understand problem matter. Students can add homework from home, and teachers can get entry to and view submitted assignments on their devices. Numerous researchers have found that imposing academic technological know-how improves average scholar motivation and engagement in learning. More specifically, technology engages college students behaviorally, emotionally, and cognitively. Whether technological know-how is used in classification or after school, college students have extra possibilities to talk with instructors, collaborate with peers, and participate in the getting to know process. Web-conferencing software, blogs, wikis, social networking sites, and digital video games are particular examples of technological know-how that have been proven to enhance pupil engagement and communication. It has end up tough and imperative to enlarge your skillset with disturbing schedules and traumatic lifestyles. This is the place technological know-how comes in. Education is extra handy than ever, with virtual lessons gradually changing traditional lectures. Students can plan their time and research at a handy time for them. They can additionally pursue subjects and courses outside of their course curriculum to expand their knowledge. Technology allows non-stop get right of entry to records and knowledge. Classes can be achieved entirely on line using a laptop or mobile device. Learning that is hybrid combines the use of science from almost somewhere with ordinary in-person study room sessions. It is possible to use technology to tailor mastering plans for every scholar in each scenario.

Lessons can be designed primarily based on student pursuits and strengths. Another benefit is that learners can get autonomy and develop self-study skills. Students can rematch movies in the lesson graph when they need to review type material to higher recognize key concepts. In addition, teachers can use the statistics generated by using these on line activities to see which students struggled with sure subjects and provide greater help and assist.

The use of science has helped students and instructors create practical and easily-accessible teaching and gaining knowledge of environment. A very essential technological have an impact on training is multiplied interactivity and category engagement. Choosing the proper science to comprise into the study room can be challenging. However, defining you're getting to know targets can aid you in finding out which tools will be most beneficial. It is proper that no longer all faculties can manage to pay for a one-to-one device ratio in the classroom. In situations the place there are many greater students than teachers, digital equipment can help in offering personalized instruction to each student. While instructors meet in personal with other students, personalized digital functions can assurance that the relaxation of the college students are the usage of their units to work on their precise areas of enchantment.

Through the use of technology, each and every student basically has the world in their hands. With simply a few clicks, students can without problems get entry to all the statistics and materials they want in order to be aware of one-of-a-kind subjects better and succeed in the process. In positive situations, each student can face problems dealing with precise topics, and thanks to technology, this is no longer a trouble due to the fact that they can shortly appear it up in distinct search engines or even ask for extra rationalization from their instructors. Thanks to the use of technology, instructors are constantly an email away, making it less complicated for students to join with them and get all the quintessential help.

It is obvious that both teachers and students use the most of what modern technology has to deliver. One of the most substantial advantages of using science in the school room is that it saves a lot of time. A number of apps are reachable to assist teachers in taking attendance so that the venture does no longer devour too plenty of their time. Even if the instructor is busy getting prepared for class, students can sign their names on a pill as they stroll in. In addition, the use of technological know-how can completely take away several distinct problems; for instance, when students can get admission to their assignments online, photocopying and stapling are no longer required.

## CONCLUSION

To summarize, the integration of technology has become an indispensable asset in shaping the modern learning process. Its impact on student engagement, personalized learning, collaborative experiences, and access to information has transformed traditional educational paradigms. As educators continue to leverage digital tools and innovative platforms, it is imperative to emphasize the need for comprehensive teacher training, address challenges such as equitable access, and embrace emerging trends to maximize the potential of technology in education. The thoughtful integration of technology not only enhances learning outcomes but also cultivates the essential 21st-century skills required for success in an increasingly digital world. As technology evolves, its role in education will continue to be a catalyst for innovation, fostering a dynamic and inclusive learning environment that prepares students for the challenges of the future.

## REFERENCES:

1. Prensky, M. (2001). Digital natives, digital immigrants. *On the Horizon*, 9(5),
2. Spires, H. A., & Bartlett, M. E. (2012). Incorporating technology into an undergraduate teacher education program: A two-year study. *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 12(3), 233-245.
3. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. Routledge.
4. 2776-0979, Volume 3, Issue 3, Mar., 2022 Web of Scientist: International Scientific Research Journal Rustamova Shahnoza Aripovna  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=\\_pyDgWoA AAAJ&citation\\_for\\_view=\\_pyDgWoAAAAJ:YOWf2qJgpHMC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_pyDgWoA AAAJ&citation_for_view=_pyDgWoAAAAJ:YOWf2qJgpHMC)
5. Formation of Self-assessment Competence of Primary School Students in Foreign Language Teaching Shahnoza Aripovna Rustamova International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.62 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=\\_pyDgWoA AAAJ&citation\\_for\\_view=\\_pyDgWoAAAAJ:kc\\_bZDykSQC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_pyDgWoA AAAJ&citation_for_view=_pyDgWoAAAAJ:kc_bZDykSQC)

6. Chet tili o'qitish bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zo'zini baholanish kompetensiyasini shakllantirish; ША Рустамова, ЧС Асадова, МР Бобоёрова  
Международный журнал искусство слова, 2022  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=\\_pyDgWoA AAAJ&citation\\_for\\_view=\\_pyDgWoAAAAJ:ULOm3\\_A8WrAC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_pyDgWoA AAAJ&citation_for_view=_pyDgWoAAAAJ:ULOm3_A8WrAC)
7. Amriddinova Nazira Shamsidinovna- Peculiarities of supply and difficulties in the research of variation of phraseological meaning in vocabulary articles  
<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.5854377>
8. Nazira Amriddinova. Nazira Amriddinova. (2022). The role of context in realization of semantic structure of the text. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 13, 60–63. Retrieved from  
<https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/2544>

## AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKASI FANI O‘QITISHNI HOZIRGI KUNDAGI MAVJUD HOLATI

**Axmedov Yodgorbek Olimjonovich**  
Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishning hozirgi kundagi holati tahlil qilingan. Shuningdek, axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** fizika, o‘qitish, tahlil, internet texnologiyalari, bulutli hisoblash, internet xizmati, virtual laboratoriya, vebinar, veb-kvest, onlayn platforma.

Hozirgi kunda jamiyatimizda axborotlashtirish mamlakat iqtisodining rivojlanishining asosiy omiliga aylangani bilan birga, chuqur raqobatni yuzaga keltiruvchi sabablardan biridir. O‘z navbatida, axborotlashtirishga doir me‘yoriy hujjatlar ta‘limning ustuvorligini ko‘rsatadi va dasturiy ta‘minotga bo‘lgan ehtiyojni ta‘kidlaydi.

Innovatsionlik xususiyati hozirgi zamon ta‘limining asosiy xususiyatlaridan biridir. O‘zlashtirish va amaliyotga biror yangilik (yangi metod, vosita, texnologiya)ni joriy qilishni pedagogik ta‘limdagi innovatsiya deyish mumkin.

Mamlakatimizning 2030 yilga qadar innovatsion rivojlanish strategiyasi[5]da qayd etilganiga ko‘ra, barcha innovatsion o‘zgarishlar negizida sohalarni yo‘nalishlarida dasturiy ta‘minot bilan ta‘minlash vazifasi yotadi. Dasturiy ta‘minot masalasi bu fuqarolarda innovatsion shaxs kompetensiyalarini shakllantirish uchun uchun sharoit yaratish hisoblanadi, qaysikim, faqat innovatsion shaxsgina jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarga tayyor va unga moslasha oladi.

Zamonaviy ta‘limning rivojlanish bosqichlari dasturiy ta‘minot bilan to‘laligicha qamrab olingan yangi nazariya va amaliyotlar bilan tavsiflanadi.

Bu jarayon xalq xo‘jaligining barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitida ta‘lim tizimidagi an‘anaviy usullarga tayangan innovatsion yangiliklarni ishlab chiqish va joriy qilish bilan bog‘liqdir.

Akademik litseylarda o‘quvchilar egallayotgan bilimlarning samaradorligini oshirish davlat rivojlanishini rag‘batlantiruvchi belgilardan hisoblanadi. Ta‘limning mazmunini o‘rganishga qaratilgan intilishlar ijodiy yondashuvlar hamda mustaqil

bilim olishga olib keladi. Jamiyatda zamon talablariga javob beradigan ilg'or fikrlovchi pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj har doim yuqori bo'lgan. O'qituvchi faoliyatining mazmuni ijodiy rivojlanishga joriy qilinishi bilan ilm-fan yutuqlari hamda ilg'or pedagogik tajribalar orqali modernizatsiyalashadi.

Ta'lim mamlakatni rivojlanishida asosiy bo'g'inlaridan va maqsadi jihatdan o'quv jarayonini jadallashtirish, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish, tasniflash, ta'lim oluvchilarning yangi ta'lim texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash, ta'lim va taraqqiyotdan iborat.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari hamda dasturiy ta'minot pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbaidir. Ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri ta'limda dasturiy ta'minotni ta'minlash, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish va ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirishdan iborat.

XX asrda fizikaning rivojlanishi shu bilan tavsiflanadiki, tadqiqotchilar makrodunyo hodisalari va jaryonlarini tadqiq qilishdan molekulalar, atomlar, elementar zarralar ya'ni mikroob'ekt elementlariga o'tishdi. Bu esa yangi kvant nazariya (kvant mexanika, kvant elektrodinamika, elementar zarralar nazariyasi, kvant statistika) larning paydo bo'lishiga olib keldi.

Dasturiy ta'minot masalasi negizi bilan yangi tushuncha bo'lmasdan, balki an'anaviy metodlari bilan uyg'unlikda hamda mavjud axborot-kommunikatsion o'qitish vositalarini ta'limda qo'llash jarayonida professor-o'qituvchilarining yangi sharoitga moslashishi masalasi bilan hamohangdir.

Ta'lim faoliyatida to'laqonli dasturiy taxminotga o'tish juda osonlik bilan kechadigan jarayon bo'lmasdan, "an'anaviy" o'qitish tarafdorlarining sa'y-harakatlari hisobidan ko'plab qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bunda mashg'ulotlarga tayyorgarlik hamda ularni o'tkazish ishlari hajmining sezilarli ortishi, intellektual mulkdan foydalanish va uni himoya qilish hamda intellektual mehnatga qo'shimcha haq to'lash normativ-huquqiy bazasining mavjud emasligi yoki ishlamasligi kabi boshqa sabablarga ko'ra innovatsion ta'lim shakllariga o'tishga "qarshilik" ko'rsatishi tabiiydir.

O'quvchilar va o'qituvchilarning ta'lim muhitidagi faoliyati va dasturiy ta'lim vositalari bilan ishlashning pedagogik muammolari bugungi kunda o'rganilmagan soha bo'lib hisoblanib kelmoqda. Biroq, har qanday vaziyatda ham o'qituvchining bosh vazifasi-o'quv, tarbiya va rivojlantirish jarayonini boshqarishdan iborat bo'lib qoladi, ham jismoniy ham psixologik faolligi yanada ortadi.



Dasturiy ta'minot jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan ta'limga ta'siri yuqori, buning natijasida ular pedagogik texnologiya va o'quv jarayonining shakllariga texnik yordam ko'rsatish uchun qo'llaniladigan vositadan, ta'limga va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi vositaga tobora aylanib bormoqda.

Zamonaviy o'zgaruvchan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari dasturiy ta'minot aks etadi va belgilanadi.

S.J.Bazarova, Z.J.Xusanov, F.R.Tadjitdinova, F.X.Baychayevlarning "Umumiy fizika kursidan savol va masalalar to'plami" nomli o'quv qo'llanmasida mexanikaning fizik asoslari, kinematika, moddiy nuqta va jismning ilgari tanilgan harakat dinamikasi, mexanik ish va energiya, saqlanish qonunlari, molekular fizika va termodinamika asoslari, ideal gazning molekular-kinetik nazariyasi, real gazlar va suyuqliklar, mexanik tebranishlar, mexanik to'lqinlar va akustika, elektrostatika, o'zgarmas elektr toki, magnetizm, geometrik optika, yorug'lik interferensiyasi, yorug'lik dispersiyasi, yorug'lik bosimi, fotonlar, atom yadrosi va elementar zarralar fizikasiga doir ma'lumotlar, mazkur bo'limlarda masalalar yechishda qo'llaniladigan yordamchi formulalar, ilovalar yoritilgan.

S.J.Bazarova, N.Kamolov, F.X.Baychayevlarning "Fizika kursi (elektr va magnetizm)" nomli o'quv qo'llanmasida elektr zaryadi, jismlarning elektrlanishi, elektrostatikaning asosiy qonuni – Kulon qonuni, elektrostatik maydon kuchlanganligi, elektrostatik maydonda zaryadning ko'chirishda bajariladigan ish, elektr maydon potentsiali, elektr toki, tok kuchi, tok zichligi, elektr yurituvchi kuch, zanjirning bir qismi uchun Ohm qonuni, berk zanjir uchun Ohm qonuni, Joule-Lenz qonuni, tarmoqlangan zanjirlar uchun Kirxgof qoidasi, magnit maydonni xarakterlovchi kattaliklar, Bio-Savar-Laplas qonuni, magnit maydonda harakatlanuvchi zaryadli zarrachalarda ta'sir etuvchi kuchlar, Lorens kuchi, Amper kuchi, Xoll effekti, magnit oqimi, Gauss teoremasi, elektromagnit induksiya hodisasi, elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar, so'nuvchi elektr tebranishlar, majburiy elektr tebranishlar, elektromagnit to'lqinlar, Gers tajribasi, elektromagnit maydon energiya oqimining zichligi, dipolning nurlanishi kabi o'quv materiallari, bilimlarni mustaqil nazorat qilish uchun testlar to'plami, masalalar yechish namunalari, mustaqil yechish uchun ixtisoslikga oid masalalar, fizik boshqotirmalar berilgan.

P.Q.Habibullayev, A.Boydedayev, A.D.Bahromov, S.O.Burxonovlarning «Fizika 7-sinf» darsligida jismlarning harakati, fazo va vaqt, kinematikaning asosiy tushunchalari, skalyar va vektor kattaliklar, to'g'ri chiziqli tekis harakat haqida tushuncha, to'g'ri chiziqli tekis harakat tezligi, to'g'ri chiziqli tekis harakatning grafik tasviri, notekis harakatda tezlik, tekis o'zgaruvchan harakatda tezlanish, tekis o'zgaruvchan harakat tezligi, tekis o'zgaruvchan harakatda bosib o'tilgan yo'l,

jismlarning erkin tushishi, yuqoriga tik otilgan jismning harakati, jismning tekis aylanma harakati, aylanma harakatni tavsiflaydigan kattaliklar orasidagi munosabatlar, markazga intilma tezlanish, jismlarning o'zaro ta'siri, kuch, Nyutonning birinchi qonuni – inersiya qonuni, jism massasi, Nyutonning ikkinchi qonuni, Nyutonning uchinchi qonuni, harakat qonunlarining aylanma harakatga tadbiqu, elastiklik kuchi, Butun olam tortishish qonuni, og'irlik kuchi, jismning og'irligi, yuklama va vaznsizlik, Yerning tortishish kuchi ta'sirida jismlarning harakati, Yerning sun'iy yo'ldoshlari, ishqalanish kuchi, tinchlikdagi ishqalanish, sirpanish ishqalanish, dumalanish ishqalanish, tabiatda va texnikada ishqalanish, impuls, impulsning saqlanish qonuni, reaktiv harakat, mexanik ish, potensial energiya, kinetik energiya, mexanik energiyaning saqlanish qonuni, quvvat, tabiatda energiyaning saqlanishi, foydali ish koeffitsienti, bo'limlarga doir laboratoriya ishlari masala va mashqlar to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan.

M.Djorayevning "Fizika o'qitish metodikasi (umumiy masalalar)" o'quv qo'llanmasida uzluksiz ta'lim tizimi uchun fizika o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga mo'ljallangan bo'lib, u mazkur yo'nalishda tayyorlangan bugungi kundagi zamonaviy adabiyotlardan hisoblanadi. O'quv qo'llanma "Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi Davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan bo'lib, unda akademik litseylarda fizika o'qitish metodikasining umumiy masalalari, uning predmeti va metodlari, mazmuni va vazifalari keng yoritilgan. Shuningdek, umumiy fizika kursi bo'yicha o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil qilish, nazariy va metodik tayyorgarligini kuchaytirish masalalari bayon qilingan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdiev U.B. Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid materiallar asosida uzluksiz fizika ta'lim mazmunini takomillashtirish. Avtoref. ped. fan. dokt... diss. – Toshkent, 2020. – 72 b.
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. –Toshkent, 2001.
3. Jo'raev H.O., Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Alimov A.A., Jalolova D.F., Alimov A.T. Kasb ta'limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. -328 b.
4. Qahharov S.Q., Jo'raev H.O. Muqobil energiya manbalari. – Toshkent: Niso Poligraf, 2016. -214 b.
5. Qahhorov S. Fizika ta'lim davriyligini loyihalash texnologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2007. -192 b.

## QORAQALPOQ TILIDAGI AYRIM FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI

**Toliyeva Shoirra Ilhomovna**

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu bu maqolada qoraqalpoq tilidagi ayrim frazeologizmlar semantik jihatdan. Qoraqalpoq adabiyotidagi ayrim xalq og'zaki ijodiga mansub maqol va dostonlardagi iboralar tahlilga tortilgan. Shuningdek, maqolada qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar mavzuviy guruhlari haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Frazeologiya, frazema, frazeologizm, qoraqalpoq tili, frazeologik birlik, maqol, somatizm, tasviriy ifoda, hikmatli so'z, doston.

Qoraqalpoq tilshunosligida Jiyenbay Eshbayev "Qaraqalpaq tilini qisqasha frazeologik so'zligi" (1985), G.Aynazarova "Qaraqalpaq tilidagi eki komponentli frazeologizmler" nomzodlik dissertatsiyasi (2000), Sh. Abduazimov hamda E. Berdimuratov kabi tilshunos olimlar frazeologiya sohasi bo'yicha bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar o'rta va yuqori o'quv o'rinlari uchun mo'ljallangan darsliklarga kiritilishi bilan birga alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida ham tadqiq qilindi. Ushbu tadqiqotlarda qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar semantik tarafdin to'rt guruhga bo'lib o'rganilgan: frazeologiyaliq otlesiwler, frazeologiyaliq birlikler, frazeologiyaliq dizbekler, frazeologiyaliq so'zler.

- Frazeologiyaliq otlesiwler. Frazeologiyaliq otlesiwler – ular tarkibidagi so'zlar o'zlarining leksik ma'nosini yo'qotib, barchasi bir ma'noni anglatadi. Masalan: Pishiq murni batpastay, to'gayga barip kiredi. Bu misoldagi "pishiq murni batpaytu'gin"

turg'un birikmasi "qalin to'gay" (qalin to'qay) ma'nosini anglatib, undagi so'zlar o'zlarining yakka ma'nosini yo'qotib, barchasi umumiy bir ma'noni anglatib kelayapti.

Frazeologiyaliq otlesiwlar dostonlarda ham uchraydi:

Sol waqıtta xalıqtın, arasına ot salǵan;

Eki qolındı tıǵıp qaldıń murnıńa;

Eli menen qosılıp, shaǵal máslik qıladı;

Jer tanabin quwırdı;

Jer menen jeksen bolarsañ.

("Qirq qiz" dostoni)

Ushbu misollardagi frazeologiyaliq otlesiwlar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

"arasına ot salıw" — «awızbirshiligin buzıw, bereketin qashırıw» ma'nosida,

"eki qolın murnına tıǵıp qalıw" — «heshnársege iye bolmay qalıw barınan ayırılıw» ma'nosida,

"shaǵal máslik qılıw" — "qatti quwanıw, ayshi-áshiret qurıw" ma'nosida,

"jer tanabin quwırıw" — "tez, shaqqan júriw" ma'nosida,

"jer menen jeksen bolarsañ" — "qazalanıw, qaytıw bolıw" kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

Yuqoridagilardan boshqa "Qirq qiz" dostonida quyidagicha frazeologiyaliq otlesiwler uchraydi: betine kúye jaǵıw, Atına teris mingiziw, táwbe etiw, ǵayip bolıw, bir pul etiw, jigerin qum etiw, kózine qan tolıw va boshqalar.

- Frazeologiyaliq birlikler. Turg'un so'z birikmalari qurilishidagi so'zlarning bittasi yakka holdagi ma'nosini saqlab qoladi. Frazeologizmlarning bu turi frazeologiyaliq birlikler hisoblanadi.

Masalan:

Qulaq saldı qaytadan;

Qulaǵına ilmedi;

Bende qıldıń sen arıwdı qulaq as;

Gúrmelip tili barmadı;

Bu misoldagi “qulaq saldı” frazeologik birligi “tınladı” degan ma’noni anglatadi, “qulağına ilmedi” frazeologik birligi “tınlamadı” degan ma’noni, “qulaq as” frazeologik birligi “tıñla” degan ma’noni, “gúrmelip tili barmaw” — “batılı barıp ayta almaw” degan ma’noni, “mañlay shıtpaw” — “ashıwlanbaw” degan ma’noni, “kewlin alıw” — “kewlin shad qılıw” degan ma’noni, “kewli toq bolıw” — “qapa qılmaw” degan ma’noni anglatish uchun qo’llanilgan. Bulardan boshqa dostonda quyidagi frazeologik birliklar qo’llanilgan: tabağa qalmaw, miyri qanıw, ada bolmaw, shıbın jan, kóz shaladi, kózine is kóriniw, arqasi qozıw, ayı alınıw, qazan urıw, tañ qalıw, esi awıw, esten tanıw, qani qashıw, qulağın tigiw, kewlin kóteriw, bas iyiw, áwere sarsañ bolıw va boshqalar.

- Frazeologiyalıq dizbekler. Frazeologiyalıq dizbeklarning tarkibidagi so‘zlarning ma’nosi alohida holdagi ma’nosiga juda yaqin bo‘lib keladi. Masalan:

Qabağın úyip Jurin taz;

Gúlayımjan, aqılımdi almasañ;

Bu misollardagi “qabağın úyiw – “ashıwlanıw, qapa bolıw” degan ma’noni, “aqıl alıw” – “keñesti tıñlaw” degan ma’noni, “moynın burmaw” – “tıñlamaw, qayırlıw” degan ma’noni, “ishi biliw” – “tek ózine belgili” degan ma’noni, “qas qaqpaw” - “uyıqlamaw” degan ma’noni, “quwanışı qoynına sıymaw” – “shennen tıs quwanıw” degan ma’nolarni anglatadi.

Ushbu dostonda yana kózi tınıw, tisin qayraw, kózine kórsetiw va boshqa ko‘plab frazeologiyalıq dizbekler uchraydi.

- Frazeologiyalıq sózler. Professor E.Berdimuratov qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlardi semantik tarafdin tahlil qilishda qoraqalpoq tilidagi maqollar, idiomalarni frazeologizmlarning alohida bir turi sifatida qarab, “frazeologiyalıq sózler” degan termin bilan ataydi.

“Qirq qiz” dostonida oz miqdorda bo‘lsa ham mana shunday frazeologizmlar uchraydi. Masalan:

Batır ańqaw er gódek;

Jamanlıq qılsañ birewge;  
Sol aldına keledi;  
Óltiremen dep birewdi;  
Orlar qazsa tórt qırlap;  
Sol adam burın óledi;  
("Qırq qız" dostoni)

"Qırq qız" dostonidagi maqollar tarkibidagi soʻzlarning oʻrin tartibi almashtirib qoʻllanilgan. Masalan, qoraqalpaq tilida "Birewge jamanlıq qılsañ, aldına sol keledi" degan maqol bor. Bu maqol dostonida "Jamanlıq qılsañ birewge, sol aldına keledi" kabi soʻzlarning tartibi oʻzgartirilib qoʻllanilgan, lekin oʻrinlari oʻzgargani bilan uning taʼsirchanligi oshgan. Shuningdek, "Qatinniń shashi uzun, aqılı kelte" degan maqol "Jasağanda qatinniń aqılı kelte, shashi uzun" kabi qoʻllanilgan. Dostonni aytuvchi baxshilar taʼsirchanlikni kuchaytirish maqsadida yuqoridagi kabi maqollar tarkibiga oʻzgarish kiritib, soʻzlarning oʻrin tartibini oʻzgartirib qoʻllagan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

1. Xojiyev A, Begmatov E., "Hozirgi oʻzbek adabiy tili va uni oʻrganishning aktual masalalari" Oʻzbek tili va adabiyoti 1992.
2. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent 1985-yil.
3. Iskandarova Sh.M. Oʻzbek tili leksikasining mazmuniy maydon sifatida oʻrganish. Filologiya fanlari doktori diss.Avtoref. Toshkent, 1999.
4. Jiyyenbay Eshbayev, "Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi", Nukus shahri, "Qaraqalpaqstan", 1985-yil.



## SANOATDA OQAVA SUVLARINI TOZALASH USULLARI BILAN TANISHISH

**Vafoqulova Mohinur Alisher qizi**

Talaba

Jizzax politexnika instituti

**Abdumutalova Sevinch Dilmurod qizi**

talaba

Jizzax politexnika instituti

**Karimova Feruza Sattarovna**

katta o'qituvchi

Jizzax politexnika instituti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sanoatda oqava suvlarini tozalashda biologik tozalash usullaridan foydalanishning samarali yo'llari haqida fikr yuritilgan. keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Suv, bakteriya, rekuperatsion usul, oksidlash yoki qaytarish usul.

Suv tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarda hamda sanoatda xomashyo, energiya manbai, sovutuvchi va isituvchi va boshqa ko'p joylarda ishlatiladi. Suv inson hayotida nafaqat tirik organizm uchun muhim ahamiyatga ega. Suv- bu hech qanday ta'sirlarsiz ishtiroksiz tabiiy jarayonlar natijasida sifatli va tiniq bo'lib shakllangandir. Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi yashash joylarining ko'payib borishi, texnikaning rivojlanishi, katta-kichik sanoat korxonalarining ochilishi, suvga chiqindilarning tashlanishi, ular o'zining turli bakteriyalar chiqarishi suv havzalarini buzulishiga olib kelayapti. Suv turli xil moddalar bilan ifloslanganda uni texnologik usullar bilan tozalashimiz kerak. Tabiiy tozalashda suvni tagidagi yashil o'tlar, zamburug'larni misol qilib olsak bo'ladi. Suv havzalarini muhofaza qilish uchun suvlarni havzalarga tashlashdan oldin uni chuqur tozalash kerak. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda va sanoatda oqova suvlari juda zaharli, kimyoviy reagent elementlarga boy bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarishda oqova suvini ishlatishda yopiq tizimdan foydalansa maqsadga muvofiqdir. Oqova suvlarida ifloslantiruvchi moddalar ko'plab uchraydi. Bulardan bittasi bakteriyalardir. Suvni tozalashni o'ziga xos usullari bor. Birinchisi rekuperatsion usul, ikkinchisi rekuperatsion usuldir. Rekuperatsion usulimiz oqova

suvini tarkibidagi qimmatbaho moddalarni ajratib olib keyin qayta ishlashga yuboradi. Destruktiv usul suvni ifloslantiruvchi moddalardan oksidlash yoki qaytarish usullari yordamida parchalaydi. Yangi inshootlar qurulishida kanalizatsiyalash obyektlarida, birinchi o'rinda oqova suvlarini miqdorini to'g'ri hisobga olish kerak. Tozalash inshootida oqova suvlar qaytadan tozalanadi, zararsizlantiradi undan hosil bo'lgan cho'kmalar qayta ishlanadi. Tozalangan oqova suvlar havzalarga tashlanib, sug'orish uchun ishlatiladi. Katta kimyoviy zavodlar yiliga bir necha million kub metr toza suvdan foydalanadi.

Suvning tarkibidagi sulfatlar, xloridlar va suvning qattiqligi ma'lum miqdorda kamayganligi kuzatildi. Parradachilik korxonalarida oqava suvlari pistiya o'simligi ta'sirida organo- mineral moddalardan 90-95% gacha tozalanishi mumkin ekanligi aniqlandi. Tozalangan suvni qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda va korxonaning o'ziga ikkilamchi suv sifatida ishlatish mumkinligi aniqlandi. Oqava suvda faollik bilan rivojlanib, hosil bo'lgan pistiya o'simligining biomassasi baliqchilikda va parrandachilikda oziqa sifatida xamda biomassa qayta ishlanib, undan tuproq unumdorligini oshirishda bioo'g'it sifatida va biomassa tarkibidagi fiziologik faol moddalar-oksillar, uglevodlar, vitaminlar va boshqalar ajratib olinib, turli sohalarda qo'llanishi mumkinligi isbotlandi. Misol qilib, Zomin tumanidan chiqadigan korxonalaridan va kommunal xo'jaliklardan chiqadigan oqava suvlar industrial qurilmalarga (aeratenklarga) va biologik hovuzlarga qo'yilib organo-mineral va bakteriologik iflosliklardan tozalanish tadqiqotini yo'lga qo'yilganligini aytishimiz mumkin. Ushbu oqava suvlarni yuksak suv o'simliklari kichik ryaska ta'sirida tozalash darajasini o'rganish uchun bir qator tajribalar o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda shuni xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kichik ryaska o'simligining oqava suvlarida laboratoriya sharoitida o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi va suvlarni ifloslanish darajasidan tozalash mumkinligi aniqlangandan keyin, ryaska o'simligi oqava suvlarni tozalovchi biologik hovuzlarga ekila boshlandi. Bu usul hozirgi kunda kimyoviy riagentlar bilan tozalash usuli kabi samarali bo'lmasa ham sezilarli ko'lamda qo'llanilishi yo'lga qo'yildi. Umuman olganda oqava suvlarni turli yo'llar bilan qayta ishlash jarayonini rivojlantirish tabiatdagi toza suvdan oqilona foydalanish imkoniyatini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Semenov I.N, Maksimov A.A Kimyo va ilmiy-texnik taraqqiyot.
2. Legasov V.A Kimyoni rivojlantirish muammolari: kelajakka yutuq.
3. Solovyov Yu.I, Kurashov V.I Kimyo fanlar chorrahasida-O'zaro ta'sirning rivojlanishining tarixiy jarayoni.

4. Gulbayev, Y. I., Abdullayev, A. A., Qurbonova, D. S., & Raxmatillayev, X. O. O. G. L. Mikroorganizmlarning suvlarda tarqalishi va suvlarni turli yo‘llar bilan toalash. *Science and Education*, 3(4), 330-337.
5. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С., Холмунинова Д. А. Нарушение естественных процессов активного водообмена голодно-степского региона и его воздействие на изменение рационального использования ресурсов подземных вод // *Universum: химия и биология*. – 2022. – №. 2-1 (92). – С. 5-9.
6. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С. Структурно-гидрогеологический анализ формирования подземных вод северо-нуратинского и санзарского месторождений // *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 515-517.
7. Каримова Ф. С., Позиллов М. Н. Структурно-гидрогеологический анализ формирования подземных вод зааминского и раватского месторождения, . – 2022.
8. Позиллов М. Н., Каримова Ф. С., Жўраева У. Б. Қ. Жиззах вилоятида оқар сувлардан фойдаланишнинг истиқболли йўллари // *Academic research in educational sciences*. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 482-488.

## СУЛАЙМОН БОҚИРҒОНИЙ МЕЪРОЖНОМАСИ ВА УНИНГ МАТНИЙ ТАҲЛИЛИ

**Jahongir Turdiyev**  
Oriental universiteti  
Sharq tillari kafedrası  
dotsenti v.b., filol.f.b.f.d (PhD).  
E-mail: [jahongirshoh15@mail.ru](mailto:jahongirshoh15@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола Сулаймон Боқирғонийнинг меърож мавзуида ёзган “Меърожнома” асари қўлёзмалари, уларнинг тузилиши ва манбашунослик тадқиқи ҳақида бўлиб, уларнинг ўзаро қиёси натижасида аниқланган матний фарқлари хусусида илмий баҳс юритилади.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о рукописях сочинения Сулеймана Бакиргани “Миражنامه” на тему мираж, их структуре и источниковедении, а также о текстовых различиях, выявленных в результате их взаимного сопоставления.

### ABSTRACT

This article is about the manuscripts of Sulayman Bakirgani's "Mirajname" on the subject of miraj, their structure and source studies, and the textual differences identified as a result of their mutual comparison are also included.

Аждодларимиз томонидан бизга мерос бўлиб қолган қўлёзма ёдгорликларини матнини тадқиқ этар эканмиз, уларнинг дунёкараши, тафаккури нечоғлиқ кенг ва бой эканлигига гувоҳ бўламиз. Қўлёзма асарларнинг тилини, тузулишини, услубини тадқиқ этиш жараёнида бизга маълум бўлмаган қирралари намоён бўлиб бораверади. Айниқса, асарларда бадиий услуб воситаларининг кенг қўлланилганлиги, асар жозибаси ва қимматини янада оширади. Маълумки, мумтоз адабиётимиз намуналарини ёзишда муаллифлар Ислом руҳини акс эттириб, Қуръондан олинган оятлар ва ҳадиси шарифлар билан бойитганлар. Мумтоз адабиётимиз намуналарини хоҳ у насрдан, хоҳ назмдан иборат бўлсин, Қуръони Карим оятлари ва ҳадисларсиз тасаввур қилиш қийин, албатта. Бу эса аксарият ҳолларда, баён қилинаётган фикрнинг, диний

ғоянинг тўғри эканлигини тасдиқлаш учун хизмат қилади. Назмда битилган меърожномалар мисолида ҳам буни кўришимиз мумкин. Бу турдаги асарлар асосини ҳадислар ташкил этади.

Меърож ҳодисаси туркий адабиётда энг кўп ёритилган мумтоз мавзулардан дейиш мумкин. Туркий тилда меърож мавзуси ёритилган мустақил асарнинг илк намунаси сифатида XII асрда битилган “Me’rājnāma-i ān hazrat” асари бўлиб, муаллифи Ҳаким ота номи билан машҳур Сулаймон Боқирғонийдир. Мазкур асар 122 байтдан иборат. Демак, XII асрдан бошлаб туркий адабиётда назмий меърожномалар ёзила бошланган ва туркий халқлар маънавий дунёқарашни шаклланишида алоҳида аҳамият касб этган.

Бадиий услуб ёзма услубнинг бошқа турларидан айри ўлароқ, бадиий тасвир воситаларининг кенг ишлатилиши, баён тарзи, стилистик ўлчовларининг эркинлиги, турли-туманлиги билан ажралиб туради. Шунингдек, бадиий матн мақол ва иборалар, бадиий тасвир воситаларининг кенг қўлланилиши билан таъсирлидир. Матн услуби муаллифнинг ёки асар қаҳрамонларининг руҳий ҳолатини акс эттиришга, асарнинг бадиий ғоявий таъсирини оширишга хизмат қилади.<sup>1</sup>

Бундан ташқари бутун мумтоз шеърятда бу ҳодиса ифодасига ишора этиш, меърож мотиви орқали жозибали бадиий-эстетик манзаралар яратиш анъанаси мавзунинг ниҳоятда кенг қамровли эканлигидан далолат беради<sup>2</sup>.

Сулаймон Боқирғоний қаламига мансуб меърож мавзуси ёритилган “Me’rājnāma” асари қўлёзмалари матнидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатларни тадқиқ этиш ўзбек матншунослари олдида турган долзарб масалалардандир. ЎЗР ФА Шарқшунослик қўлёзмалар институтида сақланаётган 8405 рақамли ҳамда 574/IV рақами остида сақланаётган Сулаймон Боқирғоний қаламига мансуб “Me’rājnāma” асари қўлёзмаларини қиёсий-матний тадқиқини амалга ошириш жараёнида, улар ўртасидаги тафовут ва мувофиқликлар кузатилди.

**ЎЗР ФА ШИ фондида сақланаётган 8405 рақами остида сақланаётган қўлёзма.** Мажмуада Қул Сулаймонга оид асарлар 82б-130а саҳифалардан ўрин олган бўлиб, шундан 100а-102б саҳифаларида Сулаймон Боқирғонийнинг “Me’rājnāma” асари ўрин олган.

Мош рангли муқоваси картондан ишланган. Муқовасознинг номи зикр этилмаган. Варақлар ўлчами 28х17,5 см, матн ўлчами 25х15,5см. Қаторлар сони 21 та. Матн араб ёзувининг настаълиқ хат турида, қора сиёҳда битилган.

<sup>1</sup> Содиқов Қ., Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. Т., 2010. –Б. 14-15.

<sup>2</sup> Қобилов У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 2021. Б 29.

Пойгирлари бор. Қўлёмани ким ва қачон кўчиргани ҳақида маълумот йўқ. Матн шарқ қоғозига кўчирилганидан тахминан XIX аср ўрталарида кўчирилган дейиш мумкин. Мазкур қўлёмна Сулаймон Боқирғоний асарлари энг кўп ўрин олган нусхаларидан бири бўлиб, саводли ёзилгани билан ажралиб туради. Асарнинг бошланиши:

اول بيرو بار ايركليك كوركلوك نظر قىلدى يا

مصطفى اوزروبان بيزنى امة قىلدى يا

Ul Bir-u Bar Erklig, Körklük nazar qıldiyā,

Mustfānī üzrübān, bizni ummat qıldiyā (100a).

“Me’rājnāma”нинг сўнги байти:

قىرق ارشينغه بيتار ايردى اوشبو غسة

بيلان بولوب موسى امان قالدی ديرلار

Qırq arşīnğa yetār erdi uşbü yussa,

Yılan bolup Musā amān qaldī derlār. (102b).

**ЎЗР ФА ШИ фондида 574/IV рақами остида сақланаётган Бақирғоний китоби номли қўлёмна.** Муаллифнинг “Me’rājnāma” асари 63а-66а саҳифаларидан ўрин олган.

Бу қўлёмна муқоваси ҳам картондан ишланган мош рангда. Муқовада муқовасознинг номи зикр этилмаган. Ўлчами 20x12,5см, матн ўлчами 18x11 см. Матн шарқ қоғозига 17 қатор қилиб кўчирилган. Матн араб ёзувининг настаълиқ хат турида қора сиёҳда битилган. Матн у қадар хусниҳатда эмас. Пойгирлари бор. Қўлёмна 1252 ҳижрий, 1838 мелодий йилда кўчиргани.

Сулаймон Боқирғоний “Me’rājnāma”сининг бу нусхаси бошланиши ва охири юқоридаги нусхадан фарқ қилади:

حوش مرحمة خداييم كورونك نظر قىلدى يا

مصطفى اوزروبان بيزنى امة قىلدى يا

Xuṣ marḥamat Xudāyīm körüñ nazar qıldiyā,

Mustafānī üzrübān, bizni ummat qıldiyā (63a).

асарнинг сўнги байти:

قول سليمان خوش ايدى رسول معراجين يايدي

رسول معراجين ايتيب دوستيغه يادكار قويديا

Qul Sulaymān xuṣ aydī, Rasul me’rājīn yaydī,

Rasul me’rājīn aytip, dostiğa yādgār qoydī (66a).

Муаллиф “Me’rājnāma” асарини ёзар экан, меърож воқеасини ўз даври ва ўзи мансуб бўлган тоифанинг қарашларидан келиб чиқиб талқин қилишини ҳисобга олсак, Яссавий мактаби намояндаларининг саҳиҳ ҳадисларни билиши



ва бу илмни чуқур эгаллагани маълум бўлади. Шу билан бир қаторда, бу илмлар билан бошқаларни ҳам баҳраманд этиш мақсадида адабиётга оид билимларни ҳам яхши ўзлашириб назмий асарлари орқали маърифат улашган мутасаввуфлар қаторига киритиш мумкин. Чунки, “Муаллиф қараши матнда акс этмасдан қолмайди. Матнда акс этган талқин йўналишига қараб, давр сиёсати, ижтимоий-иқтисодий шароит, мафкуравий йўналишлар, муаллифнинг шахси, ижтимоий мавқеи, унинг дунёқараши очиб берилади”<sup>1</sup>.

Сулаймон Бақирғоний Яссавий мактаби шоирларининг забардаст вакили ҳисобланади. Шу сабабли унинг шеърларида Яссавий ижодига хос жиҳатлар кўп кузатилади. Устозига ҳурмат, унинг шеърларидан таъсирланиш натижасида Қул Сулаймон ҳам ўзига хос мактаб яратди дейиш мумкин. Унинг таъсирчан содда ва халқчил шеърлари, ҳикматга тўла назмга солинган сўзлари муаллиф ижодининг туркий халқлар орасида кенг тарқалиши ва кунимизга қадар етиб келишини таъминлади десак хато бўлмайди.

Алишер Навоий “*Nasāimu-l-muḥabbat*”да Қул Сулаймон ҳақида шундай маълумот беради: “...*Va Ḥakim ātaya ḥikmat tili goyā boluptur. Andāq-ki aniñ favāidī atrāk arasında mašhurdur. Ūl jumladīn biri būdūr-kim:*

*Tiki turyan butādūr,  
Baryanlarni yutadur.  
Baryanlar kelmäs boldi,  
Magar manzil andadur<sup>2</sup>”.*

1911 йилда ёзилган Жўйборзода қаламига мансуб “*Manāqib*”да ёзилишича “Ҳикоятда андоғ келиб турурким, Ҳаким ота алайҳир роҳма кичикликда мактабга борсалар, Қуръони Шарифни бошлариға кўтариб борур эрдилар. Барча ўғлонлар бўюнлариға кўтариб осиб борур эрдилар. Ва Ҳаким ота қайтарда юзларини устозлари сари қилиб, орқаларини уйлари сари қилиб келур эрдилар. Муборак отлари Сулаймон эрди. Кунлардан бир кун Хожа Аҳмад Яссавий раҳматуллоҳи алайҳир роҳма эшикларинда ўлтуруб эрдилар кўрсалар, бир бўлак ўғлон келурлар ва мактабга борур эрдилар. Буларнинг орасинда бир ўғлон Каломуллоҳни бошиға кўтариб борур эрди”. Буни кўриб қолган Хожа Аҳмад Яссавий раҳматуллоҳи алайҳи, Ҳаким Сулаймонни шогирдликка қабул қилиш мақсадида унга қараб айдилар: “Устозинг ижозат берса, албатта, келгил. Мен санга Қуръон ўргатайин”. Бу сўзни эшитиб, Сулаймон устозига адаб бирла салом қилди ва ижозат тилади. Устозлари ижозат берди. Ондин сўнг ота-онасидин

<sup>1</sup> Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. - Тошкент. 2019. Б 21.

<sup>2</sup> NKT 157a.

ижозат тилади. Ота-оналари ҳам ижозат бердилар. Ўзлари келиб, Хожа Аҳмад Яссавийдин Қуръон ўгранур эрдилар. Саҳл вақтда барча илмларни забт қилдилар. Ўн беш ёшига этгандин сўнгра масум эгач, тавба қилиб Хожа Аҳмад Яссавийга мурид бўлди. Барча тариқи адабларни забт қилиб, ўгранди. Кечаю кундуз шари адаб бирла хизмат қилур эрди”. Ҳаким ота у зотнинг қўлида таълим олиб, ўн беш ёшида муридликни қабул қилади<sup>1</sup>.

Ушбу “Me’rājnāma”нинг ўзига хослигини, муаллиф асар матнида араб ва форс тилидаги сўзларга нисбатан соф туркий сўзларни кўпроқ қўллагани билан изоҳлаш мумкин. Бу эса “Me’rājnāma” асарини тадқиқ этиш орқали тилимизнинг янги қирраларини кашф этиб, ҳозирги кунда уни амалиётда қўллаш имконини беради. Асар бошланишида муаллиф Аллоҳ таълонинг сифатларини санар экан, ўзбек тили имкониятларидан кенг фойдаланган:

اول بىر و بار ايركلىك كوركلوك نظر قىلدى

مصطفنى اوزروبان بيزنى امّة قىلدى<sup>2</sup>

Ul Bir-u bar Erklig, Körklüg nazar qıldiyā,

Mustafānī üzrübān, bizni ummat qıldiyā.

“Me’rājnāma”нинг биринчи мисрасида Аллоҳ таълонинг сифатларини ўзбекча сўзлар орқали Bir-u bar (Якка-ю ягона), Erklig, (Қодир), Körklüg (Гўзал) ифодаланган.

Шунингдек, Сулаймон Боқирғаний асарнинг бир ўрнида иқтибос санъатини ҳам қўллайди:

اوز نوريدىن يراتدى حبيب تيوب اط قويدى

حجابلاردىن اوتوبان قاب قوسين باردىا

Öz nuridîn yaratti, ḥabib teyüp at qoydî,

Hijablardîn otuban qāba qāwsayn bardī yā.

Муаллиф “Me’rājnāma” асари дастлабки мисраларида Нажм сурасининг “**Бас, икки камон миқдоридай жойда бўлди. Балки ундан ҳам яқинроқ келди**” маъно таржимасидаги فَكْنَا قَابَ قَوْسَيْنِ أَوْ أَدْنَى<sup>3</sup> оятида келган قَابَ قَوْسَيْنِ (qāba qāwsayn) иборасини қўллаган бўлиб, мазкур мисрадан Ҳаким отанинг Қуръон ва ҳадис илмини пухта ўзлаштирганини билишимиз мумкин. Ушбу “qāba qāwsayn” ибораси назмий асар учун иқтибос тариқасида олингани учун оят тўлиқ олинмаган. Муаллиф иқтибос санъатини қачон ва қандай қўллаш лозимлигини жуда яхши ўзлаштириш билан бирга, унинг тартибига қатъий амал қилган. Бу

<sup>1</sup> С. Мустафо. Сулаймон Боқирғаний “Ҳидоят” журнали. 2019 йил, № 11. Б 15.

<sup>2</sup> МОН, 100а.

<sup>3</sup> Нажм сураси 9-оят.

эса Қул Сулаймоннинг ўта хассос ижод аҳлидан эканини яна бир бор тасдиқлайди.

Устози Хожа Аҳмад Яссавий ўзининг истедодли шогирди Ҳаким отани ўзга юртларга шайх қилиб юборишидаги асосий олий мақсади ҳам “Яссавия” талимотини, яъни тариқатини давом эттириб, шимолдаги чексиз ҳудудларни эгаллаб ётган саҳройи туркий қабилалари орасида исломни янада кенг ёйиш ва мустаҳкамлаш эди. Ҳаким ота эса, ушбу вазифани адо этиб, устозининг топшириқларини аъло даражада бажариб, бу ишларнинг уддасидан чиқади ва олтмиш ёшида 1186-йили бу фоний дунёдан кўз юмади. Унинг ёзган асарлари, устози Хожа Аҳмад Яссавийнинг асарлари каби ўлмас асарлар сирасига кириб, кўп асарлар давомида халқ орасида жуда машҳур бўлиб келган, ҳамда биз ва биздан кейинги келажак авлод учун ҳам бебаҳо мерос бўлиб қолди.

Сулаймон Боқирғоний “Меърожнома”си лексик қатламида қадимги туркий сўзларнинг қўлланилиши асарнинг ҳозирги кун тилшунослигимиз ва луғатшунослигимизни бойиши учун қимматли манба бўлиб хизмат қилади

Туркий меърожномаларда бадиийлик ва инсон зехнида мустаҳкам ўрнашининг таъминлаш мақсадида муаллифлар ташбеҳ, ташхис, иқтибос, истиора каби бадиий санъатларни ўз ўрнида қўллаган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент, 2019.
2. Қобилов У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. Самарқанд, 2021.
3. Содиқов Қ., Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. Тошкент, 2010.
4. С. Мустафо. Сулаймон Боқирғоний “Ҳидоят” журнали. Тошкент, 2019.
5. Ан-На’им. Арабча-ўзбекча луғат. Тошкент, 2003.
6. Древнетюркский словарь. Ленинград, 1969.
7. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. Москва, 1970.

## СОВРЕМЕННАЯ ЭТИКА МЕДИЦИНСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

**Умирзакова Наргиза Акмаловна**

Научный руководитель

**Нусратуллаева Навруза Комилжоновна**

**Жабборов Азизбек Улугбекович**

Кафедра общественных наук, доцент

### АННОТАЦИЯ

В статье даются базовые основы деятельности медика относительно моральных стандартов медицинской и исследовательской деятельности, которые в разных периодах претерпели изменения, продиктованные реалиями эпохи и общества.

**Ключевые слова:** этика, биоэтика, мораль, медицина, коллегиальность, взаимоотношения.

### ВВЕДЕНИЕ

Формирование и развитие биоэтики в Республике Узбекистан связано с процессом трансформации традиционной этики вообще, медицинской и биологической этики в частности. Оно обусловлено, прежде всего, резко усиливающимся вниманием нашей страны к правам человека, как следствие, по указу Президента №27 2023-год был назван годом заботы о человеке и качественного образования. В связи с этим создаются новые медицинские технологии, порождающих множество проблем, требующих решения, как с точки зрения права, так и морали [2, 7]. Кроме того, формирование биоэтики обусловлено грандиозными изменениями в технологическом оснащении современной медицины, внедрением комплекса профилактических и санитарно гигиенических мероприятий за последние 5 лет, огромными сдвигами в медико-практической и клинико- диагностической отрасли, которые стали возможными благодаря успехам генной инженерии и трансплантологии, появлением оборудования для искусственного поддержания жизни пациента и накопления соответствующих практических и теоретических знаний путем привлечения к управленческому и учебному процессам высококвалифицированных иностранных специалистов, зарубежных ученых и преподавателей, созданием нового инвазивного и малоинвазивного диагностического оборудования и методик.

## МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

В прошлом, американские, британские и даже советские медики (а за ними и последователи этих школ) руководствовались, в основном, исторически общепринятыми понятиями этики Гиппократата, которая с развитием научно-технического прогресса потребовала более глубокого и одновременно обширного гуманизма [3, 11]. Социалистическая этика подчеркивала значимость уважения к пациенту, ответственности врача за здоровье населения, справедливости здравоохранения, конфиденциальности, отношений между коллегами, автономии [1, 20].

Биоэтика в нашем государстве формировалась как интеллектуальная деятельность, связанная со спорами над трактовкой некоторых социальных практик в области биомедицины и исследований. Если по-началу обсуждались вопросы морального оправдания определенных практик (практики абортов, новых репродуктивных технологий, практики эвтаназии, вивисекции или живосечения и т.д.), то позже выявлялись конкретные практические случаи в медицине, фармакологии и биологии, возникающие с появлением новых технологий. В постановлении Президента Республики Узбекистан от 2 августа 2018 года № ПП-3894 «О мерах по внедрению инновационной модели управления здравоохранением в Республике Узбекистан» также были указаны следующие пункты:

- разработать современные клинические руководства и протоколы, стандарты качества диагностики и лечения на основе международных стандартов;

- принятие мер по повышению авторитета медицинских работников, престижа профессии и доверия к отечественной системе здравоохранения, привитию медицинским работникам правил этического поведения, искоренению и профилактике коррупционных проявлений, а также обеспечению общественного контроля за их профессиональной деятельностью и так далее. Биоэтика описывала поведение субъектов, оказавшихся в ситуациях выбора варианта поведения, постепенно взяв на себя роль анализа реальных отношений в конкретной области деятельности и одновременно формируя основы для регламентации деятельности людей. Результаты этих работ позже стали представляться биомедициной для других областей человеческой жизни[5, 22].

## РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

В настоящее время способ внедрения в практическую медико-диагностическую деятельность понятия «биоэтика» зависит от имеющейся моральной концепции и от последовательно принятой нормативно-правовой

теории [2, 5]. В обычном обсуждении вопросов биоэтики и медицинской морали всегда акцентируется внимание на точке зрения, относительно которой можно узаконить или отклонить определенные правила лечения или исследования. Часто в дискуссиях принимаются определенные предположения и дисквалифицируются те, кто их не принимает, таким образом, вместо откровенного диалога получаем самосегрегацию, где каждый остается при своем мнении. Биоэтика становится своего рода формальным собранием «моральных друзей», где все довольны объяснением того, что было согласовано заранее.

Беда в такой диалектике «абсолютной морали» в том, что таким образом остаются в стороне субъекты исследовательской деятельности, уязвимые группы, испытуемые и пациенты, которые становятся пассивной ставкой экспертов. Последние обычно заняты абстрактными и идеологическими интересами, игнорируют факты и свою реальную роль.

Биоэтика предполагает приверженность к той или иной области, которую стремится регулировать. Если нас интересует исследовательская медицинская деятельность, нельзя игнорировать индивидуальный опыт и знания в сложном мире медицинской деятельности и медицинских исследований, не ознакомиться с поведением различных участников, с законодательством, с текущей и инновационной практикой. Не нужно быть экспертом в целом, чтобы увидеть, как работает обычная мораль и принципы в области, где присутствуют моральные дилеммы, требующие обоснованных и комплексных ответов [1, 16].

Считается, что не нужно адаптировать этическую теорию к предопределенной заранее биоэтике, призванной заменить главную и незаменимую задачу нравственного размышления. Также неприемлемо, что предопределенная заранее мораль превращала бы биоэтику в простой поставщик материала для регулирования сверху, не давая при этом возможности размышлениям в команде, вместе со всеми заинтересованными субъектами. Биоэтика является подлинным творцом нравственного и морального, она тесно связана с непосредственными моральными принципами. Биоэтика не заменяет мораль, но как бы парадоксально ни звучало, это фигура, которая берет на себя мораль в наше время. [3, 18].

Возможно, в этом отношении было бы более продуктивно говорить об отличиях в представлении концепций, пытаясь найти сходные понятия, устанавливая так называемую «минимальную мораль», что отражает своеобразие нравственного явления.

Принципы биоэтики, правила международного права, права человека являются примерами «минимальной морали», с которыми в принципе любой



человек может согласиться, т.к. они касаются его собственного мнения как субъекта [5, 6]. Нужно подчеркнуть, что претензия на установление универсального требования – всегда является больше формальным желанием, содержание которого не анализируется, а интерпретируется в контексте его применения. Именно это и происходит с принципами биоэтики, которые должны толковаться с учетом нашей культуры и ценностей конкретной морали [4].

Существуют параметры измерения, которые требуются от каждого человека, как личности независимой в своих убеждениях и культуре. Это параметры осознания того, что является обязательным, того, что не может быть оправдано и соответствует области правосудия и деонтологии. Но есть и другое измерение – понятие того, что соответствует добру, того, кем человек хочет стать для того, чтобы его существование имело смысл. Это измерение, которое является ключом к социальной морали и нравственного воспитания, не имеет обязательного справедливого характера. Тут мы говорим об идеалах доброй жизни, того, что находится за пределами обязательного, но в другом смысле охватывает все сферы жизни. Именно поэтому это измерение часто называют «максимальной моралью». Нет ни одного аспекта жизни, который избежал бы морального видения добра. Наоборот, понятие об обязательном обычно имеет негативный смысл, суть которого в отклонении недостойного перед нашим собственным сознанием. Но за этими пределами имеется почти неограниченное поле, где мы можем осуществлять наше моральное творчество и выбрать наши стили доброй жизни.

Сегодня развитие биомедицинских технологий требует создания этической и законодательной концепции клинической практики и научных исследований в соответствии с нынешним развитием медико-биологической и химико-фармацевтической науки, а также требований психо-социального фактора.

Нет ни одной страны, в которой бы не признавалась важность защиты прав человека во всех сферах общественной жизни. и, в первую очередь, при проведении биомедицинских исследований, когда человек становится особенно уязвимым. Сегодня в нашем государстве существуют разработанные и проверенные практикой нормы проведения таких исследований, а также структуры и механизмы, которые позволяют контролировать соблюдение этих норм. Основным принципом при проведении клинических исследований является защита прав и здоровья исследуемых. Своеобразным механизмом для реализации этого принципа служит этический контроль любых клинических исследований, под которыми подразумеваются не только испытания новых лекарственных средств, но также и испытания новой медицинской техники,

приборов и материалов медицинского назначения, хирургические вмешательства, эпидемиологические исследования, исследования в области генетики, психологии и другие. Биомедицинские исследования на животных также соответственно регламентируются и контролируются.

Проведение биомедицинских исследований считается неправомерным, недобросовестным, аморальным и даже преступным, уголовно наказуемым действием, если не будут соблюдены регламентации и нормы закона, указанные законодательством Республики Узбекистан [1, 8].

Этическая направленность медицинской деятельности и проведение исследований полностью зависит от профессиональной компетентности и нравственности медицинского сотрудника (медика-практика, исследователя и т.д.).

Сегодня медицинское сообщество пришло к единодушному мнению, что врач-ученый не может быть выше общечеловеческих ценностей. При принятии решения, наряду с научными интересами, что, безусловно, приведет к развитию теоретической и практической медицины, врач должен учитывать моральные ценности.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Государственные стандарты, указанные на постановлениях президента согласно последним изменениям предполагают, что участвующие в исследовательской компании имеют определенные общие моральные требования и соответствующие мотивации, чтобы воздействовать на них. Как было подчеркнуто в постановлении Президента Республики Узбекистан от 2 августа 2018 года № ПП-3894 «О мерах по внедрению инновационной модели управления здравоохранением в Республике Узбекистан» нужно добиться доверия к системе здравоохранения путем повышения этического поведения среди медицинских работников. Недостаточно знаний международных правил по этике научных исследований: если стране нет способа контроля тех мест, где ведутся исследования, то очень важна образовательная работа научных комитетов по этике в сотрудничестве с учеными, чтобы расширить эту работу в учреждениях и в обществе. Но не менее важной является мотивационная структура, что позволяла бы действовать по моральным соображениям. Нельзя трактовать так, что международные руководящие принципы применимы только в развитых странах, где есть традиция соответствующего их исполнения и где уже имеется этическая культура исследования. Комитеты по этике исследования бессильны, если у них нет ресурсов и твердой организационной поддержки [3, 13].

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Банных С. В., Евтушенко А. Я. Биоэтические аспекты становления личности врача – исследователя в системе высшего медицинского образования // *Фундаментальные исследования*. 2016. №6. С. 64.
2. Васкес Абанто Х. Э., Васкес Абанто А. Э. *Здравоохранение XXI века: закон и этика в медицине*. Монография. LAP Lambert Academic Publishing, 2014. 144 с.
3. Лолас Ф. Биоэтика и исследования на животных: личный взгляд и заметка о вкладе Фрица Яра // *Биологический журнал*, 2018. № 41(1). С. 119–123.
4. Наварро В., Колас М. Некоторые размышления о биоэтике в медицинских науках // *Rev. Cubana de Educación Médica Superior*. 2019. № 13(1). С. 15–18.
5. Перес С. А. М., Линарес М. Воспитание ценностей в профессиональном медицинском обслуживании // *Кубинский журнал Salud Pública*. 2013. № 29(1). С. 65–72.
6. Салас П. Р. Принципы и подходы биоэтики в медицинском образовании // *Кубинский журнал высшего медицинского образования*. 2017. № 10(1).

## LYAPUNOV FUNKSIYASINI ELEKTR ENERGIYA TIZIMIDA MATEMATIK MODELLAR EKVIVALENT MEZONI SIFATIDA QO‘LLANISHI

**Safarov Xoliyor Sayyid Safar o‘g‘li**

QarMII Energetika fakulteti katta o‘qituvchisi

**Xabibullayev Abduraxim Xamidulla o‘g‘li**

QarMII Energetika fakulteti 4- kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada energetika tizimida sodir bo‘ladigan o‘tkinchi jarayonlarni Lyapunov funksiyasi orqali hisoblash ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** koordinata, tizim, barqaror, energetika, differentsial, o‘tkinchi jarayonlar.

### АННОТАЦИЯ

В статье описан расчет переходных процессов, происходящих в энергосистеме, с помощью функции Ляпунова.

**Ключевые слова:** координата, система, устойчивость, energetika, дифференциаль, переходные, процессы

### ABSTRACT

The article describes the calculation of transient processes occurring in the power system using the Lyapunov function.

**Keywords:** coordinate, system, stability, energy, differential, transients.

Murakkab elektr energetika tizimlarining dinamik barqarorligini o‘rganish turli xil boshlang‘ich sharoitlarda va avariya turlarida ommaviy hisob-kitoblarni o‘tkazish bilan bog‘liq. Ushbu holat tahlil usulini tanlashda, shunikdek algoritmlar va operatsion dasturlarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak. Ushbu muammoni hal qilishning mumkin bo‘lgan yondashuvlaridan biri to‘g‘ridan-to‘g‘ri Lyapunov usulidan foydalanishga asoslangan. Elektr tizimlarini o‘rganishda Lyapunov funksiyasini qurish uchun energiya yondashuvi keng qo‘llaniladi, bunda funktsiya tizimning kinetik va potensial energiyalarining yig‘indisi sifatida aniqlanadi. Ushbu yondashuv yordamida energetika tizimlarining turli xil avariya ta‘sirida barqarorligini

baholashga imkon beradigan Lyapunov funktsiyasi usuli energetika tizimining ishlash rejimlarini o'rganish va ularni boshqarish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Keling differentsial tenglamalar tizimiga ega bo'lgan energiya tizimini ko'rib chiqaylik;

$$(1) \frac{d\Delta\delta_i}{dt} = S_i;$$

$$J_i \frac{dS_i}{dt} = (\delta);$$

bu yerda;  $S$ -sinxron generator rotorining sirpanishi;  $J_i$ -sinxron generatorining inertsia konstantasi;  $\delta$  – faza koordinatalarining vektorlari  $\delta_1, \delta_2, \dots, \delta_n$ ;  $F(\delta)$ -vektor funktsiyasi. Bunday tizimlar uchun Lyapunov funktsiyasi ma'lum, u cheksiz quvvatli shinalar mavjud bo'lmagan holatlar uchun yoziladi; Quyidagi shaklda;

$$(2) V = \frac{1}{2} \sum_{i=1}^n J_i S_i^2 - \frac{(\sum_{i=1}^n J_i S_i^2)^2}{2 \sum_{i=1}^n J_i} + \sum_{i < j} E_i E_j \gamma_{ij} \cos \alpha_{ij} [\cos \delta_{*ij} (1 - \cos \Delta \delta_{ij}) - \sin \delta_{*ij} (\Delta \delta_{ij} - \sin \Delta \delta_{ij})].$$

Energiya tizimining dinamik o'tishdagi barqarorlik fakti Lyapunov mezoni yordamida aniqlanadi.

$$(3) V_0 \leq V_{kr},$$

bu yerda ;  $V_0$ - avariya dan keying rejimning dastlabki holati;  $V_{kr}$ - avariya dan keyingi rejimdagi Lyapunov funktsiyasining kritek qiymati.

Avariya dan keying rejimning dastlabki o'zgarishi generator rotorlari harakatining differentsial tenglamlarini raqamli integratsiyalash va olingan mustaqil o'zgaruvchilardan Lyapunov funktsiyasining qiymatini topish orqali aniqlanadi. Raqamli integratsiyaning har bir boshqichida algebraik tenglamalar tizimini yechish orqali statsionar rejim hisoblanadi, buning uchun quyidagi shart bajarilishi kerak;

$$(4) S(X) = 0$$

Bu yerda;  $X$ - energiya tizimining vektor parametrlari  $X_1, X_2, \dots, X_m$ .

Har bir tugunda oqadigan tizimdagi tarmoq quvvati ushbu tugunlarning kuchlanishlariga va ular orasidagi elektr burchaklariga bog'liq bo'lganligi sababli, tugunlar uchun holat tenglamalari aktiv va reaktiv quvvatlarning balans tenglamalari bilan birgalikda rejim parametrlarini aniqlaydi.

$$(5) \sum_{i \neq j}^n P_i(|U_i|, |U_j|, \delta_{ij}) = 0;$$

$$\sum_{i \neq j}^n Q_i(|U_i|, |U_j|, \delta_{ij}) = 0;$$

bu yerda;  $|U_i|$ ;  $|U_j|$ - belgilangan va qo'shni tugunlarning kuchlanish modullari;  $\delta_{ij}$  – ular orasidagi elektr burchak .

Birinchi ko'rinisdagi differentsial tenglamalar tizimi taklif qilingan, har bir alohida ekvivalent stansiya va u bilan bog'langan tarmoq bo'limi uchun tizimga qo'shni nuqtaga qadar oddiy shaklda olib keladi natijada biz notug'ri harakatning differentsial tenglamalarining yangi tizimini olamiz;

$$(6) \quad \frac{d\Delta\theta_i}{dt} = S_i$$

$$J_i \frac{dS_i}{dt} = F_i(E_i, U_i, \theta_i, t);$$

bu yerda  $U_i$  - ekvivalent generatorining ulanish nuqtasidagi kuchlanish,  $\theta_i = \delta_i - \delta_{ui}$ - elektr yurutuvchi kuch va kuchlanish vektorlari orasidagi elektr burchak.

Har bir kichik hisoblangan vaqt oralig'idagi stansiyaning va tarmoqning qolgan qismiga o'tish nuqatsida kuchlanish vektori o'zgarishsiz qolishi va elektr stantsiyasining rejimdagi o'zgarishlarga bog'liq emas deb taxmin qilinadi. I-chi tugun uchun kuchlanish vektorining boshlang'ich k-chi intervalining qiymatini aniqlaymiz;

$$(7) \quad \hat{U}_i^{(k)} = \frac{E_i \hat{Y}_{ii} + \sum_{j=1, i \neq j}^n E_j \hat{Y}_{ij}}{\hat{Y}_{ii} + \sum_{j=1, i \neq j}^n \hat{Y}_{ij}},$$

bu yerda  $U_i$ - generator tarmog'ining ichki o'tqazuvchanligi;  $\hat{Y}_{ij}$ -burchak orasidagi o'zaro o'tkazuvchanlik.

Hisoblangan elektr yurutuvchi kuchning o'zgarmasligi tufayli energiya tizimining qabul qilingan matematik modelida kuchlanish vektorining qiymati vaqtning istalgan moment uchun  $\delta$  faza koordinatalarining funktsiyasi sifatida yozilishi mumkin;

$$(8) \quad \hat{U}_i = F_1 \cdot (\delta_1, \delta_2, \dots, \delta_i, \dots, \delta_n).$$

Shunday qilib, (6) tizimning o'ng tomonida (1) o'ng tomonidagi vektor funktsiyalariga mos keladigan vektor funktsiyalari yoziladi;

$$(9) \quad F(\delta) \equiv F_1(\delta).$$

O'tkazilgan mulohazalarga asoslanib, vaqtinchalik jarayonning har bir hisoblangan vaqt oralig'ida, murakkab energiya tizimining ekvivalent sxemasi shartli ravishda "n" eng oddiy davrlarga oldingi parametrlarning oxiri parametrlari bilan "generator shinalaridagi doimiy kuchlanish" qisqartirilishi mumkin . Tanlangan sxemalarning har biri uchun (5)chi sxemaga muvofiq Lyapunov funktsiyasini qurish mumkin.;

$$(10) \quad V^{(k)}_i = \frac{1}{2} J_i S^2_1 - \frac{E_i U_i}{x_i} [\sin \theta_{*i0} (\Delta\theta_i - \sin \Delta\theta_i) + \cos \theta_{i0} (1 - \cos \Delta\theta_i)],$$




Butun tizim uchun Lyapunov funktsiyasini alohida generatorlarning funktsiyalari yig'indisi sifatida yozish mumkin;

$$(11) V^{(k)}_{\Sigma} = \sum_{i=1}^n V^{(k)}_i.$$


Energiya tizimida quvvatli shinalar bo'lmagan taqdirda (11) ifodadan o'rtacha og'irlikdagi harakatning kinetik energiyasini hisobga oladigan atamani olib tashlash kerak;

$$(12) V^{(k)} = V^{(k)}_{\Sigma} - K^{(k)}_{o'rt}.$$

Dastlabki avariylarni hisoblash uchun tavsiya etilgan algoritm ЭБМ М-220 СЭИ СО АН kompyuterida dinamik barqarorlikni hisoblash dasturi bilan birlashtirilgan avtonom blok shaklida amalga oshiriladi. 5ta sinxron generatorini o'z ichiga olgan elektr tizimi uchun sinov misolini hisoblash natijalari rasmda ko'rsatilgan;



1. Har xil turdagi ta'sirlarda Lyapunov funktsiyasining o'zgarishlar egri chiziqlari.



2. vatq o'tishi bilan generator rotorlarining nisbiy burchaklarining o'zgarishi

## XULOSA

Muallifni barcha elementlardagi o‘tkinchi jarayonlarning xarakteri qiziqirmaydi, balki ma’lum bir ta’sirda energiya tizimining barqarorligi yoki barqaror emasligi qiziqtiradi. Shu munosabat bilan muarakkab energiya tizimining matematik modellarini soddalashtirishga qaratilgan urinishlar tabiydir. (6,7) da energiya tizimini modellashtirishda Lyapunov funktsiyasidan foydalanishning ba’zi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Lyapunov funktsiyasini ifodalovchi gipersirtning shakli mos keladigan tizimning xususiyatlarini aniqlab berishi ko‘rsatilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A. T. Putilova, M. A. Tagirov. Fan va texnika natijalari. Elektr stantsiyalari, tarmoqlari va tizimlari. Elektr energetika tizimlarining barqarorligi mezonlari.
2. A. T. Putilova. Lyapunov mezonlari yordamida murakkab elektr energiya tizimlarining barqarorligini tahlil qilish. Lyapunov funktsiya usulini energetika sohasida qo‘llash bo‘yicha ikkinchi seminar-simpozium materiallari. Novosibirsk, "Fan", 1970 yil.
3. Oddiy ish rejimlarini nazorat qilish va oraliq energiya tizimlari bilan uzoq masofali o‘zgaruvchan tok elektr uzatish qurilmalarining asosiy parametrlarini tanlash. Tadqiqot hisoboti, Tomsk, 1971 yil.
4. L. V. Tsoukernik. Barqarorlik va elektromexanik hisoblashda murakkab quvvat tizimlarining o‘zgaruvchan harakati tenglamalarini normal shaklga qisqartirish.

## FIZIKA FANINI O‘QITISHDA MOBIL DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

**Shahlo Qobilovna Jamolova**

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika fanini o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish, o‘qitish mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlashda innovasion texnologiyalardan foydalanish. O‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ta‘lim saytlari, ularda berilgan o‘quv materiallari mazmuni yoritilgan. Fizika fanini o‘qitish jarayonida mobil dasturiy ilova “Physics school”dan foydalanish orqali ta‘lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilar bilimni baholashda foydalanish imkoniyatlari bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Fizika fani, metodik tizim, ta‘lim saytlari, mobil dasturiy ilova, ta‘lim sifati, bilim, baholash.

## ADVANTAGES OF USING MOBILE SOFTWARE IN PHYSICS TEACHING

**Jamolova Shakhlo Kabilovna**

Bukhara State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Exact Sciences

### ABSTRACT

This article discusses the improvement of the methodological system of teaching physics in general secondary schools, the use of innovative technologies in ensuring the interaction between the content, goals, objectives and all components of teaching. Educational sites for students, the content of educational materials provided in them. The possibilities of improving the quality of education through the use of mobile software applications in the teaching of physics, the use of which in the assessment of students’ knowledge are described.

**Keywords:** Physics, methodical system, educational sites, mobile software application, quality of education, knowledge, assessment

## ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

**Джамолова Шахло Кабиловна**

Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры  
ТОЧНЫХ НАУК

## АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается совершенствование методической системы обучения физике в общеобразовательной школе, использование инновационных технологий в обеспечении взаимодействия содержания, целей, задач и всех компонентов обучения. Образовательные сайты для студентов, содержание учебных материалов, представленных в них. Описаны возможности повышения качества образования за счет использования мобильных программных приложений в обучении физике, применение которых при оценке знаний учащихся.

**Ключевые слова:** Физика, методическая система, образовательные сайты, мобильное программное приложение, качество образования, знания, оценка.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya mazmunini ta'lim oluvchilarning ilmiy savodxonligini shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdan iborat. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda fizika fanini o'qitishning shunday bir metodik tizimini yaratish lozimki, unda ta'limning mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash zarur masaladan biridir.

Fizikadan bilimlarni tizimli shakllantirishni o'ziga maqsad qilgan ta'lim oluvchilar tomonidan fanlararo integrasion aloqalar, ularning xususiyatlari tushunilishini inobatga olish lozim. Turli xil nazariyalar, termodinamik, statistik, relyativistik bilimlar elementlari o'rtasidagi integrasion aloqalarni rad etish, natijada fizika ta'limida o'qitish metodikasi sifati va samaradorligining pasayishiga va amaliyot ko'rsatayotganidek, ta'lim oluvchilar bilimining past bo'lishiga hamda kompetensiyalarining rivojlanmasligiga olib keladi. Fizikaviy nazariyalar umumiy tizimli ta'lim sifatida tuzilmaviy elementlarning alohida har birida mavjud bo'lmagan gnoseologik funksiyalarga va gnoseologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Tushuntiruvchi illyustrativ, bashorat qiluvchi va metodologik kabi fizik nazariyalarning umumiy konseptual tuzilmasi sifatidagi muhim gnoseologik funksiyalari bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda fanlarni, xususan fizika o'quv predmetini o'qitish jarayonida mobil ilovalardan foydalanishni takomillashtirish ta'lim sifatini yaxshilanishiga va hozirgi rivojlangan zamonda foydalanuvchi(o'quvchi)ning mobil vositalardan foydalanish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar dunyosi juda jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda har kim odatdagidan tashqari shaxsiy kompyuter, smartfon, planshet,

mp3 pleer va boshqa turli gadjetlari to'plamiga ega. Uydagi kompyuter yoki noutbuk juda qulay vositalar emas, chunki ularni ko'chirish juda ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Kishilarning hayotini osonlashtirish uchun "aqli" deb nomlangan telefonlar, smartfonlar va boshqa ko'plab mobil qurilmalar yaratildi.

Mobil ilovalar (mobil ilovalar sifatida ham tanilgan)-smartfon va planshetlar kabi mobil qurilmalar uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot hisoblanadi. Ular yordamida mobil qurilmalarni funksiyali va qiziqarli miniatura vositalariga aylanadi. Ba'zi qurilmalar ishlab chiqaruvchilarning ayrim uyali ilovalari yoki ular bilan bog'langan uyali aloqa provayderlari (masalan Verizon, AT & T, T-Mobile va boshqalar) bilan oldindan o'rnatilgan bo'ladi, lekin ko'plab ilovalar qurilmaga xos ilova orqali foydalaniladi.

Mobil dasturlarning asosan uchta turi mavjud:

1. mobil sayt
2. gibrit dastur
3. mahalliy dastur

Saytning mobil versiyasi-bu asosiy sahifalarning nusxalari bo'lgan, lekin mobil qurilmalarning kichik, nisbatan ish stoli ekranlarida namoyish qilish uchun moslashtirilgan alohida sahifalar yoki qayta ishlangan asosiy sayt, ularning joylashuvi tezkor tartib bilan avtomatik ravishda ekran o'lchamiga qarab namoyish uslubini o'zgartiradi. Biroq, web-saytni mobil telefonlarga yaxshi moslashtirish, uning tarkibidagi barcha materiallarni kichik ekranga joylashtirishni nazarda tutmaslik lozim.

Gibrit dastur - bu mobil sayt va mahalliy dastur orasidagi dastur hisoblandi. Bunday dasturlar mobil qurilmalarining texnik vositalariga kirish imkoniyati cheklangan.

Mahalliy dastur-eng ko'p vaqt talab qiladi, ammo har bir narsa har bir mobil operatsion tizim uchun uchun ko'proq mos keladi. Ishlab chiqish har bir platforma (Windows Phone, IOS, Android) uchun alohida amalga oshiriladi. Bu juda qiyin va boshqa dastur turlariga qaraganda mablag' sarfi katta. Afzalliklari ham mavjud internet aloqa sifatida qat'iy nazar har qanday joyda ishlaydi, tezkor va to'g'ri, mobil qurilmaning quvvatini va xotirasini tejash hisoblanadi.

Respublika ta'lim markazining <http://restm.zn.uz/> sayti umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun foydalanish ga mo'ljallangan. Saytda bayramlar, darsliklar, e'lonlar, maqolalar, metodika, ta'lim, tadbirlar, tavsiyalar, texnologiya, yangiliklar kabi ruknlar mavjud (1-rasm). Mazkur saytda berib borilayotgan materiallardan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan murabbiylar, o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun mo'ljallangan (1-rasm).

Shuningdek, yoshlarda insoniy munosabatlar masalasida munozaraga kirisha olish malakasini shakllantirish. Uzluksiz ta'lim tizimida bu fazilatlarni shakllantirish uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida amalga oshirilishi amaliy natija beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Арестова О.Н. Коммуникация в компьютерных сетях: психологические детерминанты и последствия / О.Н. Арестова, Л.Н. Бабанин, А.Е. Войскунский // Вестник МГУ. – 2016. – 42 с.
2. Войскунский А.Е. Актуальные проблемы зависимости от интернета // Психологический журнал. – 2014. – Т. 25. – №1. – С. 90–100.
3. Егоров А.Ю. Особенности личности подростков с интернетзависимостью / А.Ю. Егоров, Н. Кузнецова, Е. Петрова // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2015. – Т. 5. – №2. – С. 20–27.
4. Жичкина А.Е. Взаимосвязь идентичности и поведения в интернете пользователей юношеского возраста: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – М., 2015.
5. Янг К.С. Диагноз – Интернет-зависимость // Мир Интернет. – 2015. – №2. – С. 24–29.

6. Raximova I.I. Kompyuter o'yinlariga tobelikning psixologik xususiyatlari. TDPU. Avtoreferat. T., 2018. – 41 b.
7. Нигматуллина Л. А. Влияние компьютерной зависимости на характерологические черты личности. ТГПУ. Автореферат. Т., 2019. – 47 с.
8. Dolimova N.M. Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari. O'zMU. Avtoreferat. T., 2010. – 24 b.



## BRIDGING THE LACUNA: ADDRESSING LINGUISTIC GAPS AND EXPLORING SOLUTIONS

**Abdullayeva Nozima Komiljon qizi**

2-kurs magistratura talabasi, NamDU

**Mohinur Sohibjon qizi Ahunjanova**

2-kurs magistratura talabasi, NamDU

**Zebo Botirova**

NamDU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası, dotsent, F.f.d (Phd).

### ABSTRACT

Language, as a complex and dynamic system, serves as a cornerstone of human communication. However, within the intricate tapestry of linguistic diversity, there exist gaps and lacunae that pose challenges to effective communication and understanding. This article explores the lacuna problems in linguistics, delves into their causes, and proposes potential solutions to bridge these gaps.

**Keywords:** Lacuna problems, lexical gaps, semantic gaps, syntactic gaps, cultural gaps, linguistic diversity, language education, artificial intelligence, natural language processing, cross-cultural communication, language translation.

### АННОТАЦИЯ

Язык, как сложная и динамичная система, служит краеугольным камнем человеческого общения. Однако в сложном переплетении языкового разнообразия существуют пробелы и лакуны, которые создают проблемы для эффективного общения и понимания. В этой статье исследуются проблемы пробелов в лингвистике, углубляются в их причины и предлагаются потенциальные решения для устранения этих пробелов.

### ANNOTATSIYA

Til murakkab va dinamik tizim sifatida insoniy muloqotning tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, til xilma-xilligining murakkab gobelenida samarali muloqot va tushunish uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan bo'shliqlar va kamchiliklar mavjud. Ushbu maqola tilshunoslikdagi kamchiliklarni o'rganadi, ularning sabablarini o'rganadi va bu bo'shliqlarni bartaraf etish uchun potentsial echimlarni taklif qiladi.

First of all, we should understand what the lacuna problems are and what are their causes. Accordingly, we will try to find some possible solutions for them.

One of the most common lacuna problems are lexical gaps. Lexical gaps refer to the absence of specific words or expressions in a language to describe certain concepts or experiences. As cultures evolve, new concepts and ideas emerge that may lack direct counterparts in existing languages. Lexical gaps often occur when a society experiences changes that require new terms.

With the rapid pace of technological advancements, there is a constant influx of new inventions, devices, and processes. Lexical gaps arise when languages struggle to keep pace with these innovations.

Changes in societal norms, behaviors, or attitudes can lead to the need for new words to describe emerging phenomena, lifestyles, or social dynamics.

When languages come into contact, there may be instances where one language borrows a term from another or adapts an existing word to fill a lexical gap.

As an example we can show “Selfie” and “FOMO”. Selfie refers to the act of taking a photograph of oneself, often with a smartphone, which became prevalent with the rise of front-facing cameras while FOMO (Fear of Missing Out) represents A feeling of anxiety or insecurity caused by the belief that others are having more enjoyable experiences.

As a possible solutions we can introduce new words or expressions to capture emerging concepts or experiences. Neologisms may be coined based on existing linguistic patterns. Besides, Adopting words from other languages to fill gaps can be used. Loanwords are often modified to fit the phonetic and grammatical structures of the borrowing language. Adapting existing words to take on new meanings or expanding the semantic range of words to cover additional concepts is also one of the most common one. Lexicographers, linguists, and language enthusiasts play crucial roles in identifying, documenting, and integrating new words into the linguistic landscape. Continuous updates to dictionaries and language resources are crucial.

#### 1. The second lacuna problems in linguistic is Syntactic Gaps

Syntactic gaps involve differences in sentence structure and grammar, leading to challenges in translation and interpretation. A syntactic gap, also known as a structural gap or constructional gap, refers to a situation in a language where a particular syntactic structure or construction is grammatically possible, yet there are no instances of it being used in practice. This phenomenon is often associated with the absence of certain combinations of words or sentence structures that would, from a purely grammatical standpoint, be expected to exist based on the rules of the language. Here’s a more detailed exploration of syntactic gaps:

Each language has its own set of rules governing syntax. Syntactic gaps can occur when certain combinations do not conform to the language's grammatical norms.

The syntactic structure of a language may be influenced by cultural factors, and certain constructions may be avoided due to cultural norms or preferences.

As languages evolve, certain syntactic structures may become obsolete or fall out of use, creating gaps in the language's syntactic landscape.

Some potential syntactic constructions may not be used frequently in practice, leading to a lack of examples and contributing to syntactic gaps.

We can see it with the example of "Potential Gap" and "Uncommon Word Orders". Potential Gap is in a language, there might be a syntactic gap where a specific verb is expected to combine with a certain type of noun, but no instances of this combination are found in actual usage.

Uncommon Word Orders can occur in languages where certain word orders are grammatically possible but rarely used due to stylistic preferences or cultural norms.

By encouraging diverse writing and communication, speakers can contribute to the emergence of new syntactic structures in natural language use or creative writers, poets, and artists may experiment with language, introducing new syntactic structures and contributing to the expansion of linguistic possibilities. Besides, Over time, languages naturally evolve, and new syntactic constructions may emerge or existing ones may fall out of use, leading to a dynamic linguistic landscape.

## 2. Cultural Gaps:

Cultural gaps in communication can arise from differences in cultural norms, values, and practices, influencing how individuals interpret and express meaning through language. Understanding cultural gaps is crucial for effective communication, especially in today's globalized world where people from diverse backgrounds interact regularly. Let's delve deeper into the causes, manifestations, and implications of cultural gaps:

### **Causes of Cultural Gaps:**

Different cultures have distinct norms, values, and belief systems that shape communication styles. Gaps may emerge when individuals from diverse cultures interpret messages based on their own cultural frameworks.

Historical events and societal structures can influence language use. Expressions and phrases may carry historical connotations that individuals from different cultural backgrounds might not fully comprehend.

Variations in communication styles, such as directness or indirectness, can lead to misunderstandings. In some cultures, direct communication is valued, while others may prefer more indirect or nuanced expression.

Non-verbal cues vary across cultures. Misinterpretations may arise when individuals from different cultures assign different meanings to gestures, facial expressions, or bodylanguage.

Idiomatic expressions and colloquialisms can be culturally specific, leading to confusion when literal translations are attempted.

Different cultures have distinct expectations regarding politeness and formality. What may be considered respectful in one culture could be perceived as overly formal or too casual in another.

Cultural differences in perceptions of time can lead to variations in punctuality and scheduling, impacting communication in professional and personal settings.

Some possible suggestions to solve the problems above can be providing cultural competence training can enhance individuals' understanding of different cultural norms and communication styles. Active listening and a willingness to understand others' perspectives help bridge cultural gaps and foster effective communication. Developing cross-cultural communication skills is essential for navigating cultural differences and fostering positive interactions. In situations involving language barriers, professional interpreters and translators play a crucial role in bridging cultural gaps. Cultural exchange programs provide opportunities for individuals from different cultures to interact, fostering mutual understanding and minimizing cultural gaps.

Understanding and addressing cultural gaps require a combination of awareness, education, and active efforts to appreciate and respect cultural diversity. By recognizing and actively working to bridge these gaps, individuals and organizations contribute to more effective and harmonious communication in diverse settings.

Addressing lacuna problems in linguistics requires a multifaceted approach, combining technological innovations, collaborative research efforts, and a commitment to cross-cultural understanding. By acknowledging and actively working to bridge these linguistic gaps, we can foster more inclusive and effective communication in our interconnected global society.

### **REFERENCES:**

1. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*.
2. Chomsky, N. (1986). *Knowledge of Language: Its Nature, Origin, and Use*.
3. Sapir, E. (1921). *Language: An Introduction to the Study of Speech*.

## OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA TALABALARNING

**Yesemuratov Baxi't Aytjanovich**

Yakka tartibdagi o'quv ishini tashkil etish

Ajiniyaz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

### ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasida o'quvchilarning individual ta'lim faoliyatini tashkil etish, ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, sifatli va individual kadrlar tayyorlashni ta'minlash, shuningdek, jamiyat va jamiyatning zamonaviy talablari va ehtiyojlariga tayyorlash asoslari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul tizimi, o'quv jarayonini tashkil etish, reyting baholash tizimi, axborot bloki, samarali o'qitish texnologiyasi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishni belgilab beradi. Kadrlar tayyorlashning ahamiyati ortib, oliy ma'lumotli mutaxassislarini xalqaro andozalar darajasida qayta tayyorlash uchun sharoit yaratilmoqda.

Ijtimoiy hayot va iqtisodiyotning tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, xalqaro tajribani o'rganish asosida ta'limga zamonaviy shakl va texnologiyalarni joriy etish oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari to'g'risida Prezident Sh.Mirziyoyevning qarori qabul qilindi.

Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PD-5847-son. Dastlab, Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, 2023-yilda oliy ta'lim muassasalarining 16 foizida, 2025-yilda 57 foizida va 2030-yilda 85 foizida kredit-modul tizimi joriy etilishi kerak.

Kredit-modul tizimining maqsadlari oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, talabalar va professor-o'qituvchilarning harakatchanligini oshirish, shuningdek, o'quv rejalari va dasturlarini mehnat bozorida talab qilinadigan malakalarni olishga yo'naltirishdir. Bu tizim jozibador, chunki u turli universitetlardagi ta'lim dasturlarini taqqoslashni ta'minlaydi va ta'lim tizimini Yevropa davlatlari bilan

uyg'unlashtirishga hissa qo'shadi. Kredit-modul tizimi talabalar va o'qituvchilarning harakatchanligini ta'minlaydi va bir universitetdan boshqasiga o'tishni soddalashtiradi, butun o'quv yuki bo'yicha bajarilgan ish hajmini belgilaydi.

O'zbekistonda keyingi yillarda ta'lim tizimi kredit-modulli ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tmoqda va hozirdanoq ijobiy natijalar mavjud. Bunga mamlakatimizdagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari va xalqaro standartlarni joriy etgan holda o'quv jarayonini amalga oshiruvchi mahalliy oliy o'quv yurtlari misol bo'la oladi. Bu tajriba bir qancha milliy oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.02.2018 yildagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PD-5349-son qaroriga muvofiq Muhammad al-Xarazmiy (TATU). 2018-2019 o'quv yilidan boshlab kredit tizimiga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yuqorida tilga olingan universitetdan tashqari, Milliy universitet, Yuridik universitet, Sharqshunoslik universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari kredit-modulli ta'lim tizimida ishlay boshladi. Ushbu universitetlarda kredit asosida ta'lim tizimini joriy etishning afzalliklaridan biri shundaki, u milliy malaka standartlarini to'ldiradi va qo'llab-quvvatlaydi.

Ta'lim jarayonining kredit-modul tizimi modulli ta'lim texnologiyalari va kreditlari yoki o'qitish kreditlari kombinatsiyasiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish modelidir.

O'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab harakatlar va o'zaro ta'sirlar tizimidir. Kredit-modul tizimida e'tibor uning ikkita xususiyatiga qaratiladi:

- talabalarning mustaqil ishi haqida;
- o'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimini va talabalarning o'quv yutuqlarini baholashning reyting tizimini joriy etish to'g'risida.

Modulli o'qitish - ta'lim axboroti modullarga (to'liq va mustaqil birliklar, axborot qismlari) bo'lingan ta'lim jarayonini tashkil etish. Modul - bu o'quv materialining mantiqiy to'ldirilgan birligini, maqsadli tadbirlar dasturini va maqsadlarga erishishni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bloki bo'lib, ularning mazmuni va hajmi didaktik vazifalarga, o'quvchilarning profili va darajasiga qarab farq qilishi mumkin va talabalarning ta'lim muassasalarini tanlash bo'yicha istaklari. ta'lim kursida harakatning individual traektoriyasi. Modul kontseptsiyasi har qanday aniq ishni bajarish uchun ma'lum nazariy va amaliy ko'nikmalarni dastlabki egallashni ta'minlaydigan o'quv materialining hajmini o'z ichiga oladi.



Modulli o'qitish - malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini kafolatlaydigan eng uyg'un, tushunarli va samarali o'qitish texnologiyasi. Modulli texnologiyadan foydalangan holda yaratilgan dasturlar bo'yicha o'qitilgan mutaxassislar nafaqat bilimga, balki tanlagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ko'nikmalarga ega: qarorlar qabul qilish, xizmatlar va ishlab chiqarish ishlarini bajarish. Modullarning kombinatsiyasi talabalarning ma'lum bir toifasini o'qitish (va mustaqil o'rganish) va maxsus didaktik va kasbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq o'quv materialini tanlash va sozlashda zarur moslashuvchanlik va erkinlik darajasini ta'minlashi kerak. Ko'pchilik O'zbekistonda ta'lim tizimi axborot tanqisligi va axborotdan foydalanish imkoniyati cheklangan sharoitda shakllangan deb hisoblaydi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida o'qituvchining faoliyati, birinchi navbatda, axborot funksiyalariga qisqartirildi. O'qituvchi eng muhim ma'lumot manbai rolini o'ynadi. Talaba o'quv jarayonining ob'ekti va ayni paytda ma'lumotni idrok etish va o'zlashtirish ob'ekti bo'lganligi sababli, ta'lim jarayonini rejalashtirish shunday amalga oshirildiki, ishning asosiy qismi sinfda o'qitishga to'g'ri keldi.

Axborot ta'minotini rivojlantirishning hozirgi holati axborot manbalaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi va shuning uchun o'quv jarayonini rejalashtirishdagi e'tiborni qisman mustaqil ishlashga o'tkazadi. Kredit-modul tizimi Boloniya deklaratsiyasining ajralmas atributi sifatida ikkita asosiy funktsiyani bajaradi:

1. Talabalar va professor-o'qituvchilarning harakatchanligini ta'minlash va bir universitetdan boshqasiga o'tishga ko'maklashish.

2. O'quv va ilmiy faoliyatning barcha turlarini hisobga olgan holda talaba tomonidan bajariladigan ish hajmini aniq belgilash. Kreditlar soni ma'lum bir dastur bo'yicha talabaning nimaga qodirligini belgilaydi.

Kredit-modul tizimining joriy etilgani o'qituvchi va talabalarning samarali mehnatini rag'batlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Modullar kasbiy faoliyatning ma'lum bir ob'ektiga muvofiqlik belgisi bilan birlashtirilgan ta'lim elementlari tizimi sifatida qurilgan. Ikkinchisi mustaqil mantiqiy tuzilishga va mazmunga ega bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quv ma'lumotlari sifatida qaraladi, bu esa o'quvchining aqliy faoliyati jarayonida ushbu ma'lumotlar bilan ishlashga imkon beradi. O'quv fanining mazmunini modulli tashkil etish kam darajada dastur bo'limlarini o'quv modullariga mexanik ravishda o'tkazishdir, chunki u fanning semantik mazmuni bo'yicha chuqur tahliliy va mantiqiy ishlarni, uni tizim sifatida emas, balki tizim sifatida shakllantirishni talab qiladi. ilmiy ma'lumotlarning o'zboshimchalik bilan konglomerati. O'quv jarayonining kredit-modul tizimida fan mazmuni mazmun modullariga (bir semestrda 2-4 modul) bo'linadi, ya'ni o'quv fani mazmunli modullar tizimi sifatida shakllanadi.

Fanning mazmunini tashkil etishning modulli printsiplarini amalga oshirishning ikkinchi sharti - bu har bir modulni ochish va o'zlashtirishga qaratilgan kasbiy faoliyatning umumiy kesishgan g'oyalarini ajratib ko'rsatish qobiliyati. Talaba - bo'lajak mutaxassis uchun nafaqat ma'lumotni tushunish va o'zlashtirish, balki uni amaliy qo'llash va qaror qabul qilish usullarini ham o'zlashtirish muhimdir. Bunday sharoitda to'g'ridan-to'g'ri, uchinchi tomon ma'lumotlarining ulushi va o'qituvchi (repetitor) rahbarligida talabalar ishining interfaol shakllari va usullaridan foydalanish va laboratoriyalarda, o'quv zallarida va kelajakdagi ob'ektlarda to'liq mustaqil ishlash. Kasbiy faoliyat kamayadi, bu masofaviy ta'lim tizimi uchun ayniqsa muhimdir.

Kredit tizimini yaratish o'tilgan kurslarni solishtirishni osonlashtirishi va talabalarning harakatchanligini maksimal darajada oshirishi kerak. Kredit - bu jamlama o'quv rejasini yoki o'quv jarayonida talaba tomonidan bajariladigan alohida fanni (kursni) o'rganishda talabaning o'quv yuklamasini o'lchashning shartli birligi. Kredit to'g'ri hujjatlashtirilgan minimal o'lchov birligi bo'lib, ko'pincha bir haftalik o'rganish qiymatini bildiradi (talabaning dars va mustaqil ishi yig'indisi).

Kredit tizimi o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq barcha tarkibiy qismlarning yig'indisini ifodalovchi o'quv ishining mehnat zichligi ko'rsatkichi sifatida kredit birligidan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonining barcha asosiy jihatlarining tizimli ta'rifi sifatida tushuniladi. ta'lim jarayoni. Kredit kreditlari birinchi marta 18—19-asrlar bo'sag'asida Qo'shma Shtatlardagi universitetlarda shu davrda boshlangan universitet ta'limini liberallashtirish doirasida joriy etilgan. Ta'lim mazmuni va ta'lim dasturlarini o'zlashtirish darajasining miqdoriy ekvivalentining kredit birliklarining belgilanishi talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, o'quv jarayoni sifatini nazorat qilish va baholashda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini berdi, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Evropadagi bir qator kredit tizimlari orasida eng mashhuri ECTS (Evropa kredit o'tkazmalari tizimi) - muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan va hozirda butun Evropada qo'llaniladigan kredit tizimi. ECTS dastlab talabalar bir muassasadan boshqasiga o'tganda kredit o'tkazish uchun mo'ljallangan edi. Tizim chet elda o'qish davrlarini tan olishni osonlashtirdi va shu bilan Evropada talabalar harakatchanligi sifati va ko'lamini oshirishga yordam berdi. Yaqinda ECTS mintaqaviy, milliy va Yevropa darajasida amalga oshiriladigan keng qamrovli tizimga aylandi. Bu 1999 yil iyun oyida imzolangan Boloniya deklaratsiyasining eng muhim maqsadlaridan biridir [3]. Boloniya deklaratsiyasida ECTS faqat misol sifatida qayd etilgan, ammo boshqa hech qanday Yevropa tizimi paydo bo'lmagan. Aksincha, ECTS tezda butun Evropaga tarqaldi va ko'plab mamlakatlarda oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimiga kiritildi: bakalavriat - oliy ta'lim darajasi; magistratura, doktorantura – oliy

o'quv yurtidan keyingi ta'lim darajasi [4]. Boloniya jarayoni parametrlarini amalga oshirish turli tarkibiy qismlarni modernizatsiya qilishga kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi, ulardan asosiysi ta'lim natijalariga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini sifatli qayta ko'rib chiqishdir. Ta'lim dasturining asosi o'quv jarayonida shaxsiy va kasbiy sotsializatsiyani ta'minlaydigan kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lishi kerak.

O'zbekistonning yetakchi oliy o'quv yurtlari tomonidan o'tkazilgan pedagogik eksperiment davomida AKTS kreditlari hajmi 36 akademik soat, talabaning yillik o'quv yuki esa 60 AKTS krediti etib belgilandi. Bu o'quv yilining o'rtacha 40 hafta davom etishiga asoslanadi. O'quv fanlari bo'yicha ECTS kreditlari soni fanni o'rganish uchun rejalashtirilgan umumiy soatlar miqdorini kredit qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi (0,5 kredit aniqligigacha yaxlitlanadi). Masalan, agar fanni o'rganish uchun 108 soat ajratilgan bo'lsa, bu uchta kredit birligiga to'g'ri keladi. Bunda fan uchta moduldan shakllantiriladi. Har bir fanning jami yuklamadagi ulushini auditoriya soatlari soni bo'yicha aniqlash va semestrda olingan 30 ta kreditni ma'lum semestrda o'rganilgan fanlar o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlash eng qulaydir. Semestrda umumiy (sinf va mustaqil) o'quv yuklamasini 36 koeffitsientga (umumiy o'quv yuklamasining 36 soati) matematik tarzda bo'lish orqali o'quv yukini kredit birliklariga qayta hisoblash tavsiya etiladi. Bakalavr darajasi o'qish davomida kamida 180 kredit (60-kredit standarti bo'yicha uch yil) yoki kamida 240 kredit (to'rt yil) bo'lishi kerak; magistratura darajasi jami kamida 300 ta kreditdan iborat bo'lishi kerak. Demak, magistratura va bakalavr darajasining davomiyligi o'rtasidagi bog'liqlik. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchilar mehnati xarakterini va o'quv jarayonining intensivligini sezilarli darajada o'zgartirib, O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro hamkorlikka yanada ochiq qiladi. Kreditlarga o'tish uzoq muddatli mehnatni talab qiladi, chunki jamlangan kredit tizimi o'quv ishlarining barcha turlarini, jumladan, nafaqat auditoriyadagi o'quv yukini, balki amaliy mashg'ulotlarni, laboratoriya va tadqiqot ishlarini, turli sertifikatlash tadbirlarini qamrab olishi kerak.

Yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olsak, kredit ballari akademik natijalarning etarli ko'rsatkichidir degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ta'lim natijalari nafaqat ilmiy daraja kabi rasmiy malaka darajasida, balki modullar yoki kurslar darajasida ham ifodalanishi kerak. Ta'lim natijalarini o'quv rejasi va uning tarkibiy qismlariga kiritish izchillik va mantiqiylikka yordam beradi. Ular talaba nimani o'rganishi kerakligini aniq belgilaydi. Aniq o'quv natijalari kreditlarni o'tkazish va to'plashni osonlashtiradi va kreditlar berilgan yoki berilgan yutuqlarni aniq aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim natijalarini aniqlashga bunday yondashuv ichki, milliy va xalqaro baholash va sifatni ta'minlash uchun asos bo'lishi kerak bo'lgan universal standartlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. Davydova O. V., Zvonnikov V. I., Chelyshkova M. B. Universitetda kredit birliklari (kreditlar) tizimini joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. M., 2010. 50 b.

## KONSEPT TUSHUNCHASI. “DO‘ST” SO‘ZINING PRAGMATIK ASPEKTDAGI KONTEKSTUAL MA‘NOLARI

**Mirvaliyeva Dildora Anvarovna**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Kompyuter lingvistikasi va

amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “konsept” atamasining nazariy asoslari, konsept haqida olimlarning turli xil mulohazalari va “Do‘st” konsepti haqida ma‘lumot, uning lug‘atlardagi ma‘nodoshlari, qolaversa ingliz va o‘zbek maqollarida kelishi, ushbu konseptning badiiy asarlardagi parchalar asosida tahlili haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** konsept, kognitiv tilshunoslik, do‘st konsepti, badiiy asar, hikmatlar, maqollar, lug‘atlar.

### ABSTRACT

In this article, the theoretical foundations of the term “concept”, various opinions of scientists about the concept, and information about the concept “Friend”, its synonyms in dictionaries, as well as in English and Uzbek proverbs, the occurrence of this concept in works of art Based on the fragments, the analysis is discussed.

**Keywords:** concept, cognitive linguistics, friend concept, artwork, proverbs, proverbs, dictionaries.

### KIRISH

Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo‘la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so‘z bo‘lib, (conssept), rus tilida ponyatie (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralastirib yuborila boshlangach, uning tom ma‘nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. S.Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo‘lgan

bunday tizim dunyo milliy manzarasining o'ziga xosligini belgilaydi<sup>1</sup>. XX asrning birinchi choragida konsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj qayta paydo bo'ladi. Yu. S. Stepanov o'zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, konsept so'zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Konsept lotin tilidagi conceptus – "tushuncha" so'zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi<sup>2</sup>.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Binobarin, N.Yu. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan<sup>3</sup>.

Prof. N. Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi<sup>4</sup>. Masalan, "do'st" konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

---

<sup>1</sup> Асколдов С.А. Концепты и слово. - М: Академия, 1997.

<sup>2</sup> Степанов, Ю.С. Константы: Словар русской культуры/Ю.С. Степанов.-М.: Академический проект, 2004.

<sup>3</sup> Шведова Н.Ю. Избранные работы.-М, 2005.

<sup>4</sup> Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti.- T, 2012.



- a) ikki inson o'rtasidagi yaqinlik, ahillik, inoqlik;
- b) do'st, jo'ra, o'rtoq, og'ayni, oshna, tarafdor;
- v) chin do'st, haqiqiy do'st, qiyomatli do'st, soxta do'st;

Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqealari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fandır. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini 90- yillardan beri lingvistikada qo'llanilib kelinmoqda. Konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o'rganilishi bo'yicha eng atoqli tilshunoslaridan biri S.A. Askoldov hisoblanadi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir” deb izoh bergan. Turli tilshunoslarning ilmiy ishlarini solishtirish natijasida ko'plab xususiy xulosalar qabul qilindi. Konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy o'ziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning kulturologiya, falsafa va kognitologiya aspektlari uchun yangi bosqich bo'lib xizmat qildi. Konsept markazida qadrlilik turadi, u til madaniyat tadqiqiga xizmat qiladi, madaniyat asosida aynan qadrlilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'naviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi. Til leksikasi insoniyat madaniyatini ifodalovchi vosita sifatida dunyoning bir biridan farq qilmaydigan xalqlarida aks etgan muayyan madaniy konseptual tushunchalarni aniqlashga va mazmun mohiyatini ochib berishga yordam beradi<sup>1</sup>.

Lug'atda konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: “konsept bu – “so'z ma'nosi” kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'no-til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi”<sup>2</sup>.

## **NATIJARLAR**

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan. Psixolingvistika nuqtai

---

<sup>1</sup> Yo'ldosheva Yu “Milliy madaniy konsept til semantikasi” maqolasi. T, 2021.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilingning etimologik lug'ati. T.: 2010

nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi. Konsept - bir millatga tegishli bo'lgan hayotiy tajriba natijalarini o'zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig'indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo'lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo'lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o'zi chiga oladi<sup>1</sup>.

Konsept insonni o'rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig'indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Bu qarashlar Yu.S.Stepanov xulosalarida ham keltirilgan. Uning fikricha, konsept inson ongidagi madaniyat bo'lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo'lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi va madaniyatga kirib, ba'zi vaqtda madaniyatga ta'sir ko'rsatadi.

### MUHOKAMA

Konsept haqida birmuncha ma'lumotlarga ega bo'ldik, ana endi ishimizning asosiy maqsadiga o'tsak, ya'ni "Do'st" so'zi haqida ma'lumot bersak.

"Do'st" so'ziga "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar izohli lug'ati" da quyidagicha ta'riflar beriladi:

**1. "Totuvlik munosabati bilan bog'langan"** ma'nosini beradi, ma'nodoshlari: **jo'ra, oshna, o'rtoq**; Mana shu vaqtgacha jo'ralarning soni hamon o'sha - to'qqizdan ortmaydi. (A.Qahhor, "Sarob" romanidan). O'rmonjonning otasi Omon aka Sidiqjonning otasi Sohibjon aka bilan juda qalin o'rtoq edi; ikki oshna o'lib ketgandan keyin, O'rmonjon bilan Sidiqjon chinakam aka-ukaday bo'lib qolishgan edi. (A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari")

**2. Tarafdor, homiy**; Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo'lsa, tinchlikcha qo'shından chiqib kestin! (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" romanidan). Bobur bu gal yana aldanmaslik uchun shahar ichidagi tarafdorlarining hech biriga xabar bermasdan

<sup>1</sup> Safarov.Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006

tavakkal qilib keldi.(P.Qodirov,"Yulduzli tunlar"). Mirzo Ulug'bek birgina ilmning emas, balki san'atning ham homiysi edi.(K.Yashin,"Hamza").

**3.Diniy tasavvufda xudo;** Allohim(xudoyim) sen meni eng yaqin do'stimsan, doim meni eshitasan, Allohim-o'zing sabr ber, to'g'ri yo'l ko'rsat.(Bolaning ollohga murojati, [https://t.me Mahzun qalblardan](https://t.me/Mahzun_qalblardan)).

O'zbek tilining ma'nodoshlik lug'atida "**Do'st**" so'zining quyidagi ma'nodoshlari berilgan: Do'st, oshna, og'ayni, jo'ra, o'rtoq, do'st-yor, ahbob, habib.

**Do'st-yorlar** yig'ilib, chag'ir ichib, musiqa va raqslar bilan tong orttiradilar. (Oybek, "Navoiy" romani).

Yaxshilar doim nasihat aylar o'z **ahbobiga:** ichmagil, hushyor bo'l, tushma balo girdobiga.(Voqif).

**Habibim** band etar ko'nglimni,  
Tabibim pand etar doim.  
Bilolmasman, bu savdoda,  
Na sudu na zarar bo'lg'ay.(E.Vohidov)

-Ha, ishing qalay, Omon **og'ayni?**

-E,so'rama, **o'rtoq**, -dedi, -bo'kib qoldim.

-Iye, nimaga bo'kasan?

-Sen ketganingdan keyin xo'jayinning bir-ikki qur **oshnalari** mehmon bo'lib kelishdi.(G'.G'ulom,"Shum bola")

O'zbek tili so'zga boy til hisoblanadi. Har bir so'zning birdan ortiq ma'nodoshi,shakldoshi bor. Birgina "Do'st" so'zining ma'nodoshlari har bir asarlarda mohirona, hayotiy misollar orqali o'rinli keltirilgan. Baribir ularning mazmun-mohiyati bir, sinonimik munosabatdadir.

Shu bilan birga, "**O'zbek va ingliz tilidagi maqollarda "do'stlik" konsepti ifodalanishi**" masalasiga to'xtalib o'tamiz. Insonlar o'zlarining hayotida bo'lgan voqealarni o'z avlodlariga turli yo'llar bilan yetkazib berishga harakat qilishgan. Shunday narsalarni yerkazib berishda xalq og'zaki ijodi, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va shu kabilarning roli beqiyos sanaladi. Mana shu manbalardan biri bo'lgan maqollar ham biz uchun to'g'ri qaror qabul qilishda, har xil vaziyatlardan chiqishda yordamchi vazifasini o'taydi. Aslida maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib" hikmatli so'z", "otalar so'zi" kabi tarjima qilinib yuritiladi. Maqollarda barcha fikr bir umumiy ma'noga qaratiladi va har bir maqolda yashirin ma'no bo'ladi. Maqollar ham mavzu jihatdan turli xil bo'lishi mumkin. Bunday mavzular ichiga vatan, do'stlik, muhabbat, vafo, hurmat va boshqalarni keltirish mumkin. Bu kabi mavzular ingliz tilida ham,

o'zbek tilida ham uchrab turadi. Xususan do'stlik mavzusida o'zbek tilida ko'plab namunalarni uchratish mumkin. Do'stlik so'zi tor ma'noda ikki inson o'rtasidagi munosabat bo'lsa, keng ma'noda oilalar, qishloqlar, qarindoshlar va yurtlar o'rtasidagi iliq munosabatni ham bildiradi. Do'stlikdagi eng muhim fazilarlardan biri samimiylilik, rostgo'ylik, vafo va, albatta, sadoqat hisoblaniladi. Bu to'g'risida bizning tilimizda salmoqli ijod namunalari uchratish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy do'stlikni ulug'lab, Do'stsiz insonni qurigan daraxtga, joni yo'q tuproqqa tenglagan. Do'stlik shunday ne'matki, u insonni ruhan va jismonan kamolotga boshlaydi. Do'stlik ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi; biri chin do'stlik bo'lsa, ikkinchisi yolg'on do'stlik ya'ni qandaydir manfaat yuzasidangina qurilgan rishta sanaladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda bir- biriga yaqin bo'lgan do'stlik to'grisidagi maqollarni topish mumkin. Bu ikki til maydon jihatdan, kelib chiqish jihatidan umuman aloqador emas, xatto, tilshunoslik tomondan ham ingliz tili analitik til guruhiga o'zbek tili aglutinativ til guruhiga kiradi. Ammo maqollar va iboralarda ma'nosi bir xil bo'lgan jihatlar, umumiyliklarni ko'rish mumkin.

**A good friend is my nearest relation**- Yaxshi do'st uzoq qarindoshdan yaxshi. Ushbu maqolda ham aynan bir xil bo'lmasa ham ma'no yaxlitligi bor. Bu maqol orqali mehirsiz qarindoshlardan bittagina sodiq do'st yaxshi degan ma'no namoyon bo'ladi.

**The best mirror is my old friend** - Do'st do'stning oynasi. Darhaqiqat, do'stlar bir- birini ko'zgidir. Kamchiliklarni yashirish, ularni to'g'rilash, yaxshi kunda xursand bo'lish- bu albatta chin do'stlik nishonasidir.

**A man is known by the company he keeps.** - Do'sting kimligini ayt, sening kimligingni aytaman. Ushbu maqollarda insonning fazilatlarini uning qanday do'stlari borligi bilan belgilanadi, deyilgan. Semantik nuqtai nazardan, bu ikkita maqol bir- biriga o'xshab ko'rinadi, ammo ularning pragmatik xususiyatlari har xil: inglizcha maqol odatda ko'proq rasmiy va adabiy uslublarda ishlatiladi, o'z navbatida o'zbekcha maqol asosan og'zaki nutqda qo'llaniladi.

**There is no better looking-glass than an old friend.** / The eye of a friend is a good mirror. - Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib (Do'st achchiq (haqiqat), dushman shirin (yolg'on) aytadi). Ushbu maqollarda aytadiki, haqiqiy do'st haqiqatni senga ham yoqmaydi, hatto u senga yoqmaydi va ular senga xatolaringni yoki yomon xulqingni aytib berishlari kerak, dushmanlar esa yoqish yoki zaif tomoningni topish uchun sizni shirin so'zlar bilan aldashadi. Ushbu ikkala ingliz maqolida oyna (= looking-glass) leksemasi ishlatilgan.

**A friend in court is better than a penny in purse.** - Boylik boylik emas, birlik boylik (Boylik boylik emas, birdamlik boylik). Ushbu maqollarning asosiy ma'nosi do'stlik puldan ko'ra qimmatroq yoki zarurroq, bu haqiqiy boylik ekanligini anglatadi.

"Penny" madaniyatining mavjudligi uning ingliz millatiga mansubligini isbotlaydi. Ingliz madaniyati do'stlikni valyuta bilan taqqoslaydi va do'stlar tinlardan yaxshiroq deb aytadi; do'st bo'lish o'zbek boyligidagi haqiqiy boylikka tenglashtiriladi.

**It is good to have some friends both in heaven and hell.** - Do'sting yoningda bo'lsa, ishing oson bitadi (Do'stingiz yoningizda bo'lsa, muammoingizni tezda hal qilasiz). Inglizcha maqol "Jannat" va "do'zax" madaniyati tufayli kuchli ekspresivlik va ta'sirchanlikka ega, shu bilan birga ular diniy so'zlar va semantik qarama-qarshiliklar (antonimlar). Ushbu so'zlarning mavjudligi ushbu maqolning lingvokultural va pragmatik xususiyatlarini anglatadi. O'zbek tilidagi maqol ingliz tiliga nisbatan majoziy ma'noga nisbatan sodda tuzilishga va so'zma-so'z ma'noga ega. Xulosa qilish kerakki, maqollar ingliz va o'zbek tillarining juda ko'p qismlarini tashkil etadi. Ular bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik va hatto pragmatik jihatdan farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko'plab kamchiliklarini qamrab oladi. Maqollar mavjud bo'lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. Tilning paremiologik fondida milliy tushunchalar, narsalar, hissiyotlar, urf-odatlar, taniqli ajdodlar, hatto joy nomlari - madaniy nuqtalarni ko'rish mumkin. "Do'stlik" tushunchasi bilan bog'langan ingliz va o'zbek maqollari millatning mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiradi va ushbu millat tilida muhim o'rin tutadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillari ham juda maqollarga boy hisoblanadi. Har bir til alohida bo'lgani bilan uning tarbiyaviy ahamiyati bir xil bo'ladi.

"Do'st" konseptining o'zbek xalq maqollarida ham keng qo'llanilib kelinmoqda:

### **Maqollar**

Do'st-do'stning oynasi.

\*\*\*

Do'st ziyonkor bo'lmas,

Ziyonkor do'st bo'lmas.

\*\*\*

Do'st yig'latar, dushman kuldirar.

\*\*\*

Do'st so'zini tashlama,

Tashlab boshing qashlama.

\*\*\*

Do'st uzoqda bo'lsa ham, ko'ngli yaqin.

\*\*\*

Do‘stga aytdim so‘zimni,  
Dushman bildi sirimni.

\*\*\*

Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamandur,  
Do‘sting bo‘lmagani feling yomondir.

\*\*\*

Do‘stni og‘ritsang, dushman shod bo‘lar.

\*\*\*

Do‘stning ko‘ngli qolguncha,  
Dushmanning bo‘yni uzilsin.

\*\*\*

Do‘stsiz boshim-tuzsiz oshim.

\*\*\*

Ish bilganni oqil deydilar,  
Do‘stlikni uzganni qotil deydilar

\*\*\*

Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.

Arpa-bug‘doy bir kunninga yaraydi,  
Sodiq do‘sting o‘lguningchcha yaraydi.

\*\*\*

Baliq suvsiz yashamas,  
Inson do‘stsiz.

\*\*\*

Ginali do‘st-adovatli dushman.

\*\*\*

Daraxt ildizi bilan,  
Odam-do‘stlari bilan.

\*\*\*

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib shun aytish mumkinki, “Konsept”- bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o‘y-fikrlar, qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda



konsept xotiraning operativ birligi bo‘lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o‘z ichiga oladi<sup>1</sup>.

Konsept insonni o‘rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig‘indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Xususan, “Do‘st” konsepti orqali o‘zbek tilining naqadar so‘zga boyligini ko‘rishimiz mumkin. Bir so‘zning bir nechta sinonimi borligi, ularni har birining qo‘llanilish o‘rni va boshqa tillarda berilsa ham ma‘noviy umumiylik borligini yaqqol sezishimiz mumkin. Ayniqsa xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lmish maqollarda ham do‘st so‘ziga ibrotomus izohlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalar orqali ko‘rsatib berilgan. Demak, ma‘lum bir konsept orqali biz aniq tushunchaga ega bo‘lamiz, shu so‘z sinonimlarining har birini qaysi o‘rinda, qaysi vaziyatda qo‘llashni va albatta shu tushunchaning maqollarda, hikmatli so‘zlarda berilishi natijasida axloqiy tarbiya olishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar “Sharq”. Toshkent-2000.
2. Асколдов С.А, Концепти и слово. - М: Академия, 1997.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab..// O‘zbek tili va adabiyoti.- T,2012.
4. Oybek. Navoiy. Sharq”. Toshkent-2004.
5. Pirmuqol Qodirov. Yulduzli tunlar.”Sharq”. Toshkent-2018.
6. Safarov. Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006.
7. Степанов, Ю.С. Константи: Словар русской культуры/Ю.С. Степанов.- М.: Академический проект, 2004.
8. Yorqinoy Hamroyeva “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati” Toshkent, “Yangi asr avlodi” 2007.
9. Yo‘ldosheva Yu. “Milliy madaniy konsept til semantikasi” maqolasi. T, 2021.
10. O‘zbek xalq maqollari. “Sharq”, Toshkent, 2005.
11. Shukrullayeva G. O‘zbek va ingliz xalq maqollarida do‘stlik tushunchasi masalalari. Maqola. Qarshi d.u, 2021.
12. Шведова Н. Ю. Избранный работы .- М, 2005.

---

<sup>1</sup> Safarov. Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006

## SANOATDA OQAVA SUVLARINI TOZALASHNING ISTIQBOLLARI

**Jumaniyozova O'g'iloy O'ktamovna**  
talaba

**O'ktamova Sevinch Azamat qizi**  
talaba

**Murtozoqulova Shaxnoza Nemat qizi**  
talaba

**Karimova Feruza Sattarovna**  
katta o'qituvchi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sanoatda oqava suvlarini tozalash usullari bilan tanishib chiqishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Suv, oqava suvlari, sanoat korxonalari, moddalar, rekuperatsion usul, destruktiv usul.

Suv tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarda hamda sanoatda, homashyo olishda, energiya manbai sifatida, sovutuvchi hamda isituvchi va boshqa ko'plab ishlab chiqarishlarda ishlatiladi. Shuningdek suv inson hayotida, nafaqat tirik organizm uchun muhim ahamiyatga egadir. Suv tashqi muhit ta'sirlarisiz tabiiy jarayonlar natijasida hosil bo'lgan sifatli va tiniq bo'lib shakllanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi yashash joylarining ko'payib borishi, texnikaning jadal suratlarda rivojlanishiga olib kelmoqda. Katta va kichik sanoat korxonalarining ochilishi, ularning suvga bo'lgan ehtiyojini oshirmoqda. Insonlar tomonidan suvga chiqindilarning tashlanishi, o'z ehtiyojlaridanda ko'proq suvni isrof qilishi suvni kamayishiga olib kelmoqda. Suvni isrof qilinishiga olib keluvchi omillar: insonlar tomonidan suvga chiqindilarni tashlanishi, ishlab chiqaruvchi korxonalarining uzidan chiqarayotgan zararli moddalar ekologiyaga ta'sir ko'rsatmoqda. Daryodan qazib olinayotgan neftni ozgina zarrachasi ham suvni ifloslantirmoqda. Ular o'zidan turli bakteriyalar chiqarishi suv havzalarini buzulishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda suvni ifloslanishlardan tozalash uchun zamonaviy texnikalardan foydalanib kelmoqdamiz. Suv turli xil moddalar bilan ifloslanganda uni texnologik usullar bilan tozalashimiz kerak. Tabiiy tozalashda suvni

Kardio-respirator tizim ma'lumotlari bo'yicha olingan natijalarga ko'ra, yuklashdan oldin va undan keyin tekshirilgan parametrlarning barqarorligi qayd etilgan. Barcha parametrlar - bajarilgan yukning quvvati jismoniy ish qobiliyati yuqori boshlang'ich imkoniyatlardan dalolat beradi, vazn toifalarini hisobga olgan holda jismoniy ish qobiliyati darajasi yuqori va barqaror sifatida tavsiflanadi, buni bizning dzyudochilarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etish natijalari tasdiqlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Бойченко С., Войтнар Ю., Смотрицкий А., Особенности проявления комплексных (гибридных) координационных способностей у представителей спортивных игр //Physical education and Sport. 2002. Т. XL VI. -Vol. 46.-P. 313-314.
2. Бойченко С.Д., Карсенко Е.Н., Леонов В.В, Смотрицкий А.Л. О некоторых аспектах концепции координации и координационных способностей в физическом воспитании и спортивной тренировке. // ТиПФК 2003. - №8. - с. 15-18.
3. Никитюк Б.А. Конституциональные аспекты интегральной антропологии, II Интегративная биосоциальная антропология, Москва, 1996, стр. 220
4. Лях В.И. Выносливость: Основы измерения и методика развития. // Физ.культура в школе 1998. -№1. - с.7-15
5. Сафарова Д.Д .Спортивная морфология /учебник Ташкент, Ilmiy texnika axboroti press nashriyoti 2021- 248 с.

## TURLI TIZIMDAGI O‘LCHASH ASBOBLARNI TEKSHIRISH VA XATOLIKLARINI ANIQLASH

**S.M. Jovliyev**

QarMII “Fizika va elektronika” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Magnitoelektrik, elektromagnit tizimlarga oid o‘lchov asboblarning ish prinsipi va nazariyasini o‘rganish hamda shu tizimdagi voltmetrni tekshirish.

**Kalit so‘zlar:** Magnitoelektrik, elektromagnit, tizim, o‘lchov, prinsip, voltmetr, o‘lchash mexanizmi, doimiy magnit, magnit qutb, po‘lat o‘zak, chulg‘am, spiral prujinalar, posongi.

## ПРОВЕРКА И ВЫЯВЛЕНИЕ ПОГРЕШНОСТЕЙ ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ ПРИБОРОВ В РАЗЛИЧНЫХ СИСТЕМАХ

**С.М. Жовлиев**

Преподаватель кафедры “Физика и электроника” КарМПИ

E-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Изучение принципа работы и теории измерительных приборов, относящихся к магнитоэлектрическим и электромагнитным системам, и проверка вольтметра в этой системе.

**Ключевые слова:** Магнитоэлектрический, электромагнитный, система, измерение, принцип, вольтметр, измерительный механизм, постоянный магнит, магнитный полюс, стальной сердечник, катушка, спиральные пружины, посонги.

## CHECKING AND IDENTIFYING ERRORS OF MEASURING DEVICES IN VARIOUS SYSTEMS

**S.M. Jovliyev**

Teacher of the “Physics and Electronics” department of QarMII


e-mail: [jovliyev19sarvar96@gmail.com](mailto:jovliyev19sarvar96@gmail.com)

### ABSTRACT

Studying the working principle and theory of measuring devices related to magnetoelectric and electromagnetic systems and checking the voltmeter in this system.

**Keywords:** Magnetoelectric, electromagnetic, system, measurement, principle, voltmeter, measuring mechanism, permanent magnet, magnetic pole, steel core, coil, spiral springs, posongi.

Magnitoelektrik o'lchash mexanizmi (1.1-rasm) doimiy magnit 1, magnit qutb uchliklari 2, silindrsimon po'lat o'zak 3, qo'zg'aluvchan chulg'am (ramka) 4, spiral prujinalar 7,8, ko'rsatkich (strelka) 9 va posongilar 10 dan tuzilgan.



**1.1-rasm. Magnitoelektrik tizimdagi o'lchash mexanizmi.**

Ramkadan o'tayotgan tok bilan (1.1-rasm) doimiy magnit maydonining o'zaro ta'sirida ramkani harakatga keltiruvchi kuch  $F = BlwI$  hosil bo'ladi.

Ifodada  $B$ - qutb uchliklari va silindrsimon o'zak oralig'idagi magnit induksiyasi;  $w$ -ramkaning o'ramlar soni;  $l$ -magnit maydonida joylashgan ramkaning faol qismini uzunligi,  $I$ - tok kuchi.

Bu kuchlarning yo'nalishi chap qo'l qoidasiga binoan topiladi. Bu kuchlar hosil qilgan aylantiruvchi moment quyidagicha ifodalanadi:

$$M_a = 2F \frac{b}{2} = Fb = BlbwI = BswI \quad , \quad (1.1)$$

bu yerda  $b$  -ramkaning kengligi;

$s$  - ramkaning yuzasi.

Aylantiruvchi moment ta'sirida ramka o'q atrofida aylanganida spiral prujinalar buralib, teskari ta'sir etuvchi moment  $M_T$  hosil qiladi:

$$M_T = Wa \quad , \quad (1.2)$$

bu yerda  $W$ - solishtirma teskari ta'sir etuvchi moment bo'lib, spiral prujinaning materiali va o'lchamlariga bog'liq:

$\alpha$  - ramkaning burilish burchagi (ko'rsatkichning shkala bo'ylab surilishini ko'rsatadigan burchak yoki bo'laklar soni)

Ramkaga ta'sir etayotgan ikki (aylantiruvchi va teskari) moment o'zaro tenglashganda ramka harakatdan to'xtab, muvozanat holatida bo'ladi, ya'ni:

$$M_T = M_a$$

yoki

$$W a = B l w I \quad (1.3)$$

bundan

$$\alpha = \frac{B s w}{W} I \quad (1.4)$$

Oxirgi (1.4) ifoda magnitoelektrik o'lchash mexanizmlarining shkala tenglamasi deb ataladi.

$$\frac{B s w}{W} = S_I - \text{o'lchash mexanizmining tok bo'yicha sezgirligi deyiladi. Ko'rilgan}$$

o'lchash mexanizmi uchun  $S_I = \text{const}$

Shuni hisobga olib (1.4) ni quyidagicha yozamiz:


$$\alpha = S_I \cdot I \quad (1.5)$$

Ya'ni ramkaning burilish burchagi  $\alpha$  o'lchanuvchi tokning qiymati 1 ga to'g'ri proporsional, shu tufayli, magnitoelektrik o'lchash mexanizmlari o'zgarmas tok zanjirlarida ishlatiladi va ularning shkalasi bir tekis darajalangan bo'ladi. Bunday shkaladan foydalanish ancha qulay.


Magnitoelektrik o'lchash mexanizmlari ampermetr, voltmeter, Ommeter va galvanometrlar sifatida ishlatiladi. Bunday asboblarda ancha murakkab bo'lsada yuqori sezgirlikka ega bo'lib, quvvatni kam iste'mol qiladi va tashqi magnet maydonining ta'siridan osongina muhofaza etiladi.

## II .Elektromagnit o'lchash mexanizmi.

Elektromagnit o'lchash mexanizmlari yassi (1.2-rasm) va dumaloq (1.3-rasm) g'altakli qilib tayyorlanadi. Bu g'altaklar qo'zg'almas bo'lib, ulardan o'lchanuvchi tok o'tadi. Bunda hosil bo'ladigan magnet maydoni qo'zg'aluvchan 2 o'zakka ta'sir etishi oqibatida (1.2-rasm) bu o'zak g'altak ichiga tortiladi, natijada o'q aylanib, ko'rsatkichni biror burchakka buradi. 1.3-rasmdagi mexanizmda qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan o'zaklar bir xilda magnetlanadi; natijada qo'zg'aluvchan o'zak qo'zg'almas o'zakdan itarilib, o'qni aylantiradi.



1.2-rasm



1.3-rasm

Umuman aylantiruvchi moment  $M_a$  magnet maydoni energiyasidan qo'zg'aluvchan qismni burilish burchagi bo'yicha olingan hosilaga teng.

$$M_e = \frac{dW_e}{d\alpha} \quad (1.6)$$

Ferromagnit o'zakli g'altak magnet maydonining energiyasi

$$W_e = \frac{1}{2} LI^2 \quad (1.7)$$

bu yerda  $L$ -g'altak induktivligi bo'lib, o'zakning holati va g'altakning o'lchamlariga bog'liq:  $I$ -g'altakdan o'tayotgan doimiy tok.

Qo'zg'aluvchan qism muvozanat holatida bo'lganida

$$M_a = M_T \text{ yoki } \frac{1}{2} I^2 \frac{dL}{d\alpha} = W_e \alpha \quad (1.8)$$

Bundan

$$\alpha = \frac{1}{2W} I^2 \frac{dL}{d\alpha} \quad (1.9)$$

(1.9) ifoda elektromagnit o'lchash mexanizmlarining **shkala tenglamasi** deb ataladi. Burilish burchagi  $\alpha$  o'lchanayotgan tokning kvadratiga to'g'ri proporsional. g'altakdan o'zgaruvchan tok o'tganda ham  $\alpha$  uchun (1.9) ifodaga ega bo'lamiz. Bu holda (1.9) ifodadagi  $I$ -tokning effektiv qiymatidir. Shu sababli elektromagnit o'lchash asboblari o'zgarvas va o'zgaruvchan tok zanjirida qo'llanishi mumkin. Ularning shkalasi notekis bo'lib, kvadratik xarakterga ega va bunday shkalaning boshlang'ich qismidan foydalanish ancha noqulay.




Elektromagnit o'lchash mexanizmlari ampermetr, voltmotr sifatida va logometrik prinsipida yasalganida esa fazometr, faradomer va chastotomerlar sifatida ishlatiladi.

#### IV. Ishning mazmuni

1. Magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik tizimlarga oid asboblarning tuzilishi va ishlashi bilan tanishish.
2. Voltmetr va ampermetrni zanjirga ulash va namunaviy asboblarning yordamida ularning xatoligini aniqlash.
3. Tekshirilayotgan voltmotr va ampermetrlarning texnikaviy ma'lumotlari bilan tanishish va ularni jadvalga yozish.
4. Tajribadan olingan qiymatlar asosida ikkinchi punkt bo'yicha voltmotr va ampermetrlarning mutlaq, nisbiy va keltirilgan xatoliklarini aniqlash.
5. Voltmetr va ampermetr usuliga asoslanib voltmotrning qarshiligini aniqlash va ish vaqtida asbob iste'mol qilgan quvvatni hisoblash.
6. Asbobning sxematik eskizini chizish.

#### V. Ulash sxemasi



##### 1. Voltmetrni tekshirish

Bu yerda:  $V_0$ ,  $A_0$ -namunaviy voltmotr va ampermetr;  
 $V_x$ ,  $A_x$  - tekshirilayotgan voltmotr va ampermetr;  
mA-milliampermetr; mV- millivoltmetr;  
 $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$ -dastakli reostatlar;  
PT-kuchlanishni pasaytiruvchi transformator 220/12 V.

#### VI. Ish bo'yicha tushuntirish va ko'rsatmalar

1. Asboblarning strelkasi korrektor yordamida nolga keltiriladi.

2. Asbobni tekshirishdan oldin nominal tokda 15 minut davomida ishlatib olish lozim.
3. Asbobning faqat darajalangan qiymatlari tekshirilishi kerak.
4. Tekshirishlar kuchlanishni avval oshirila borish jarayonida, keyin kamaytirib borishda erishiladigan qiymatlarda olib boriladi.

## VII. Jadvallar.

### 1-jadval

O'lch	$U_x$	$U_0'$		$U_0''$		$U_{0o'r}$	$\Delta'$	$\Delta''$	$\beta$	$\beta_k$	$\gamma$	$\delta$
1	V	bo'l	V	bo'l	V	V	V	V	%	%	%	V

### Jadvaldagi belgilar

- $U_x$  - tekshirilayotgan asbobning ko'rsatishi;
- $U_0'$  -namunaviy asboblarning qiymatlari oshirilayotganidagi qiymatlari;
- $U_0''$  - namunaviy asboblarning qiymatlari kamaytirib borilayotganidagi qiymatlari;
- $U_{0o'r}$  -namunaviy asboblar ko'rsatishining o'rtacha qiymatlari;

## VIII. Hisoblash formulalari

1. Voltmetrlarning ko'rsatishi oshirilib va kamaytirilib borilganda mutlaq xatoligi.

$$\Delta' = U_x - U_0', \quad \Delta'' = U_x - U_0''.$$

2. Voltmetrning eng yuqori nisbiy xatoligi

$$\beta = \frac{\Delta'}{U_0'} 100\%, \quad \beta = \frac{\Delta''}{U_0''} 100\%.$$

3. Voltmetrning eng yuqori nisbiy keltirilgan xatoligi

$$\beta = \frac{\Delta'(\text{yoki} \Delta'')}{U_{XN}} 100\% .$$

4. Voltmetr ko'rsatishining variatsiyasi (o'zgarishi)

$$\gamma = \frac{U_0' - U_0''}{U_{XH}} 100\% .$$

bu yerda  $U_{XN}$ -voltmetrning yuqori o'lchash chegarasi.

5. Tuzatma

$$\delta = U_{0yp} - U_x.$$

### Olingan natijalar

O'Ich	$U_x$	$U_0'$	$U_0''$	$U_{0o'r}$	$\Delta'$	$\Delta''$	$\beta$	$\beta_k$	$\gamma$	$\delta$
№	V	V	V	V	V	V	%	%	%	V
1	6	6,17	6,16	6,11	0,09	0,08	1,4	0,6	1	0,03
2	8	8,12	8,11	8,08	0,12	0,1	1,4	0,8	1	0,07
3	10	10,16	10,13	10,09	0,16	0,13	1,5	1,06	3	0,09

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Коржавов М. Ж. Проблемы классической физики конца XIX века. Возникновение квантовой теории // " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION. – 2023. – Т. 10. – №. 1.
2. Korjavov M. J. KVANT FIZIKASIDA DETERMINIZM TAMOILINI RAD ETISH //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 220-229.
3. Tursunov Q.Sh., Eshmirzayeva M. A., Qorjavov M. J. Questions of the Methodology of Knowledge in Text books Physics of the New Generation //International Journal of Latest Research in Humanities and Social Science (IJLRHSS). – 2021. – Т. 3. – С. 18-22.
4. Jovlievich K. M. Some Methodological Methods Of Solving Issues From Quantum Physics //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 5. – С. 188-192.
5. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. (2022). MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VA TAXLIL QILISH STATISTIK USULLARINING YETTI INSTRUMENT USULLARI // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(6), 41–45.
6. Jovliyev Sarvar Mustafo o'g'li. (2022). TEXNIKA OLIY O'QUV YURLARI TA'LIMIDA KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(5), 791–794
7. Тураев З.Б., Юсупов Р.Э., Эшонкулов М.Н., Жовлиев С.М., Алмарданов Х.А., Хатамов И.А. Применение солнечных концентраторов для приема альтернативного топлива через устройство гелиопиролиза //UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. – 2021, Март. –№. 3(84). С. 8-11.

8. Zhovliev SM ugli. Specialty of technological processes and production automation – profession of the XXI century // ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021, May. –T.2. №.05. –C. 15-19.
9. Raximov A.X., Jovliyev S.M. Xolbutayeva X.E.  
Radio monitoring and recognition of radio emissions radio electronic equipment //International Journal For Innovative Engineering and Management Research. –2021, April. –T.10. №.4. –C. 506-507.
10. Mallayev A.R., Sharipov G.Q., Sodikov A.R., Zhovliev S.M. Mathematical modeling of dynamics formation of hydrates at pipeline natural gas transport // International Journal For Innovative Engineering and Management Research. –2021, April. –T.10. №.4. –C. 31-35.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕРЕДАЧИ ПРИВОДА ТЕХНИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ

Уринов Н.Ф., Саидова М.Х., Аминов М.Х.  
(магистрант)

Бухарский инженерно-технологический институт

### АННОТАЦИЯ

В статье представлено исследование аналога планетарного механизма по типу волнового редуктора, отличительной особенностью которого является применение тел качения вместо гибкого элемента.

**Ключевые слова:** Передача, сепаратор, подшипник качения, тело качения, волновой редуктор, планетарный механизм, привод.

## RESEARCH OF DRIVE TRANSMISSION OF TECHNICAL SYSTEM

Urinov N.F., Saidova M.Kh., Aminov M.H.  
(migrant student)

Bukhara Engineering and Technology Institute

### ABSTRACT

The article presents a study of an analogue of a planetary mechanism of the wave gear type, the distinctive feature of which is the use of rolling elements instead of a flexible element.

**Keywords:** Transmission, separator, rolling bearing, rolling body, wave gear, planetary mechanism, drive.

### ВВЕДЕНИЕ

Создание нового и модернизация действующего технологического оборудования

промышленных предприятий идет по пути внедрения современных приводов.

Привод технической системы — это кинематическая цепочка технических устройств, предназначенных для передачи энергии рабочему органу, создания у него требуемой скорости и задания ему требуемой траектории движения. В кинематическую цепочку входят — источник энергии, передаточный механизм,

система управления скоростным режимом и распределения движения по параллельным потребителям.

Являясь главным организатором работы машины, в то же время привод выступает в роли вспомогательного элемента технической системы, поэтому идеология его проекта основана на предельной компактности и максимальной производительности.

Проблемы приводов разнообразны и зависят от типа машины и комплектов привода. Их можно систематизировать по решаемым приводом задачам — передача рабочему органу энергии для совершения механической работы, задание потребной кинематики режимов движения, задание требуемой траектории движения рабочего органа. Дополнительно приводы требуют совершенствования в рамках решения проблем по экономии ресурсов и экологии рабочего процесса. Одним из стратегических направлений совершенствования приводов машин можно сформулировать следующим образом: снижение потерь мощности на внутреннее трение[1].

Все чаще в научных публикациях можно встретить описание новых конструкций двигателей, компрессоров, зубчатых дифференциальных вариаторов и других агрегатов, имеющих цель обеспечить предельно малые габариты, топливную экономичность, управляемость рабочим процессом и экологию на уровне «ЕВРО-5, 6». Во многих из них применены волновые, зубчатые планетарные и дифференциальные схемы, обеспечивающие малую массу и габаритные размеры.


### **МЕТОДОЛОГИЯ**

Планетарные механизмы настолько универсальны, что могут воспроизводить не только вращение из вращения при традиционной схеме их использования, но и синтезировать прямолинейную траекторию при определённых размерах колёс. Конструктивно они относятся к роторным схемам, поэтому имеют их достоинства. Звенья в виде зубчатых колёс имеют высокую технологичность и надёжность конструкции. Имея свойство трансформироваться в дифференциал, планетарные механизмы управляемы и адаптированы к смене параметров техпроцесса

На сегодняшний день для передачи крутящего момента существуют различные механизмы, одними из которых являются зубчатые передачи. В свою очередь и зубчатые передачи различаются между собой по принципу работы, по форме зуба, по типу зуба и т.п[3]. В рамках работы исследуется аналог планетарного механизма по типу волнового редуктора, отличительной особенностью которого является применение тел качения вместо гибкого



элемента. Рассмотрим принцип работы исследуемой передачи с промежуточными телами качения на примере (рис.1):



**Рисунок 1 - Плоская радиальная передача с промежуточными телами качения.**

1 – генератор волн, 2 – сепаратор, 3 – профильное колесо, 4 – промежуточные тела качения, 5 – подшипник качения, 6 – корпус механизма.

Представленная передача работает следующим образом: при вращении ведущего вала эксцентриковый диск генератора 1 воздействует на установленный в него подшипник качения 5, который в свою очередь вызывает радиальные перемещения тел качения 4 в пазах сепаратора 2, которые, обкатываясь при этом по внешнему профилю колеса 3, вызывают его вращение при закрепленном сепараторе 2 или поворачивают сепаратор 2 при закрепленном зубчатом колесе 3. Весь механизм при этом смонтирован в корпус 6.

В качестве исходных данных для проектирования передачи следует выбирать радиус тел качения  $r_{tk}$ , длину тел качения (если применяются ролики)  $l$ , количество тел качения  $n$  и радиус центров тел качения  $r$ .<sup>2</sup> Подробные аспекты проектирования передачи данного типа в рамках работы не исследуются.


Особое внимание стоит уделить к передачам с промежуточными телами качения. Данные передачи способны обеспечить высокую нагрузочную способность за счет многопарности зацепления, повышенное значение крутящего момента, а также высокое передаточное число в

совокупности с относительно небольшими габаритами.

На сегодняшний момент имеется ряд исследований отечественных и зарубежных авторов по анализу такого вида механизмов. Однако, практически отсутствуют определенные и однозначные методики по решению вопроса о силовом анализе данных механизмов. Проведение силового анализа одного из представителей этого типа механизмов является актуальной.

Исследуемый механизм, представляет из себя статически неопределимую систему. Статическая неопределимость системы обуславливается необходимостью применения уравнений не только статики, но и дополнительно уравнений, учитывающих поведения деформаций тел [2,5].

Предположим, что при зафиксированном сепараторе и профильном колесе, генератор при повороте за счет крутящего момента и деформаций, возникающих в контактах тел качения с элементами передачи, повернется на определенный угол, обозначенный как  $\beta$  (рис.1) [4].



**Рис 1. Деформации при повороте генератора на угол  $\beta$**

На рисунке пунктирной линией показано начальное положение генератора, а сплошной утолщенной конечное, после поворота. Места деформации, возникающие в телах качения, заштрихованы. Согласно методике раскрытия силовой статической неопределимости механизма, указанной в работе [3], делаем предположение о том, что суммарная деформация от смятия тела качения для второго и третьего тел будут определены как зависимости:

$$\delta_2 = \alpha_{к.2} \cdot \beta \quad (1)$$

$$\delta_3 = \alpha_{к.3} \cdot \beta \quad (2)$$

где:  $\delta_2, \delta_3$  - суммарные деформации тел качения;  $\alpha_{к.2}, \alpha_{к.3}$  - длины нормалей к линии действия сил;  $\beta$  – угол поворота генератора.

Максимальная суммарная деформация смятия будет в том случае, когда

нормаль будет максимально возможной. В нашем случае максимально возможным плечом является эксцентриситет передачи.

Сделаем следующее предположение о том, что воспринимаемые телами качения нагрузки связаны соответственно с возникающими деформациями в контакте тел качения и элементов передачи, определенные в зависимостях (1, 2). Запишем данную зависимость ссылаясь на [3] как:

$$\frac{P_i^{\tau}}{a_i^{\Gamma}} = \frac{P_{\max}^{\tau}}{a_{\max}^{\Gamma}} \quad (3)$$

где  $P_i^{\tau}$  – усилие на  $i$ -том теле качения;  $P_{\max}^{\tau}$  – максимально возникающее усилие;

$a_i^{\Gamma}$  – плечо действия силы  $i$ -того тела качения;  $a_{\max}^{\Gamma}$  – плечо, возникающее при максимальном усилии.

Так как максимально возможным плечом действия сил является эксцентриситет передачи соответственно, что отмечено выше, то преобразуем выражение (3) для нахождения усилия от генератора на любом теле качения как:

$$P_i^{\Gamma} = \frac{P_{\max}^{\Gamma} a_i^{\Gamma}}{e} \quad (4)$$

где  $e$  – эксцентриситет передачи.

## ВЫВОД

С использованием программного обеспечения Microsoft Excel можно определить каждое значение плеча и подставив в формулу 4 определить значения усилий генератора от величины плеча на искомым телах качения.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. Fayzilloevich, Urinov Nasillo, and Dubrovets Lyudmila Vladimirovna. "Parametric Optimization of Technological Processes." Eurasian Journal of Research, Development and Innovation 13 (2022): 17-22.
2. Статически неопределимая система // Википедия. [2014—2014]. Дата обновления: 08.05.2014. URL: <http://ru.wikipedia.org/?oldid=62951254> (дата обращения: 08.05.2014).
3. Кудрявцев В. Н., Кирдяшев Ю. Н. (ред.). Планетарные передачи: справочник. – 1977.
4. Саидова М.Х. Исследование современных систем зацеплений. Educational Research in Universal Sciences (ERUS)" jurnal. 11/2023
5. Fayzilloevich, Urinov Nasillo, and Dubrovets Lyudmila Vladimirovna. "Control of force parameters during processing diamond grinding." Academicia Globe: Inderscience Research 3.02 (2022): 73-77.

## ОЦЕНКА ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ ЛЕЙКОЗОМ

**Аминова Нафиса Нарзуллаевна**

Бухарский государственный медицинский институт  
имени Абу Али ибн Сины. Узбекистан

E-mail: [aminovanafisa0@gmail.com](mailto:aminovanafisa0@gmail.com)

**Орсид:** <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-6687-0064>

### АННОТАЦИЯ

В статье представлена полная информация о том, что такое лейкоз, его распространенность в Бухарской области, изменения в сердце и сосудах у больных лейкозом, а также какие заболевания он вызывает. Это доказывает, насколько лейкемия является опасным для жизни заболеванием.

**Ключевые слова:** лейкемия, сердечно-сосудистая система, ЭКГ, ЭкзоКГ, миелограмма, АЛТ, АСТ.

#### **Актуальность:**

Во многих странах мира, а также в Узбекистане в последние 2-3 года растет заболеваемость лейкозом.

Из медицинской статистики известно, что каждый 1 млн. Среди населения у 35 диагностирован лейкоз.

Основными причинами этого являются загрязнение экологической среды, неправильное использование химикатов в сельском хозяйстве, резкое увеличение по сравнению с нормой количества пестицидов в почве.

В настоящее время видно, что функциональные изменения сердечно-сосудистой системы значительно усилились у больных лейкозом Бухарской области.

#### **Цель работы:**

Оценка функциональных изменений сердечно-сосудистой системы у больных лейкозами Бухарской области

#### **Задачи исследования:**

Изучить уровень и виды лейкозов среди населения, проживающего в Бухарской области.

Изучение распределения заболеваний сердечно-сосудистой системы у больных лейкозом.

Внедрение методов раннего выявления функциональных изменений сердечно-сосудистой системы у больных лейкозами.

### Материалы и методы:

Материалы взяты из гематологического отделения многопрофильного медицинского центра Бухарской области и амбулаторных поликлиник районов Бухарской области. Диагноз собирался для анализа результатов среди пациентов, подтвержденных симптомами, периферическим клиническим анализом, миелограммой, биохимическим анализом крови, ЭКГ и экзЭКГ на основании клинических данных, а также проводился статистический анализ.

### Результаты исследования

В исследование включены 60 больных со средним возрастом  $58,4 \pm 1,7$ , для сравнительного анализа данных в исследование включены 10 больных лейкозом в возрасте 35-60 лет, далее обследованы пациенты без изменений, средний возраст которых составил  $45 \pm 2,8$ .

При анализе по полу в основной группе женщин было 59,1% (n=32), мужчин - 40,9% (n=19), а в контрольной группе женщин - 55% (n=7), мужчин - 45. % (n=3) составляет.


Частоту типов лейкозов определяли на основании анализа серий миелограмм в общем анализе крови исследуемых больных.



АНАЛИЗ ВЫЯВЛЕННЫХ ТИПОВ ЛЕЙКОВ ПО ПОЛУ: хронический лимфобластный лейкоз - 34,5% у мужчин, 40,5% у женщин; хронический миелобластный лейкоз 44,8% у мужчин, 28,6% у женщин, острый лимфобластный лейкоз 20,8% у мужчин, 30,9% у женщин; острый миелобластный лейкоз составлял 14,8% у мужчин и 11,2% у женщин и схематически объяснялся следующим образом:

НАЗВАНИЕ РАЙОНОВ	Хронический лимфобластный лейкоз	Хронический миелобластный лейкоз	Острый лимфобластный лейкоз	Острый миелобластный лейкоз
Каганский район	23%	14%	21%	13%
Рамитанский район	18%	12%	14%	12%
Бухарский район	17%	15%	15%	12%
Каракульский район	12%	10%	9%	8%
Алатский район	10%	9%	8%	7%
Вабкентский район	9%	10%	9%	8%
Пешкунский район	3%	5%	3%	4%
Гиждуванский район	3%	3%	2%	2%
Каровулбазарский район	3%	8%	1%	5%
Жандарский район	2%	6%	4%	1%






### РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЛЕЙКОЗА В РАЙОНАХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

По этой таблице установлено, что больше всего видов лейкемии встречается у населения Когонского района, а меньше всего лейкемии - у населения Джондорского района, и проведен статистический анализ.

**Заболеваемость сердечно-сосудистыми заболеваниями у больных лейкемией (%)**



### Научно-практическое значение результатов исследования:

Научная значимость результатов исследования объясняется тем, что вероятность развития лейкозов в популяции зависит от возраста, длительности заболевания, медицинских и социальных факторов риска, а также необходимостью использования методов ЭКГ и ЭкзоКГ диагностики для раннего выявления лейкоза. сердечно-сосудистые заболевания у больных лейкемией.

Практическая значимость результатов исследования объясняется тем, что путем проведения современных лабораторных исследований и методов диагностики можно эффективно лечить виды лейкозов среди населения и предупреждать возникновение сердечно-сосудистых заболеваний у этих больных.

**Вывод:**

Результаты исследования показали, что для снижения частоты сердечно-сосудистых заболеваний у больных лейкозами в районах Бухарской области необходимо улучшить использование методов диагностики ЭКГ и ЭкзоКГ при профилактических медицинских осмотрах. В многопрофильных медицинских стационарах с целью профилактики осложнений сердечно-сосудистых заболеваний у больных лейкозами необходимо проводить профилактические методы ЭКГ, ЭкзоКГ диагностики и биохимического анализа крови (АЛТ и АСТ) после применения каждого химического препарата.

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)**

1. Бахрамов С.М. и др., Диагностическое и прогностическое значение изучения влияния женщины, меди и селена на состояние здоровья человека // Биомедицина 2016. №4 стр. 71-77.
2. Болтаев К.Дж. Сравнительные показатели обмена железа и кроветворных микроэлементов у здоровых лиц в зависимости от плода и места проживания // Новый день в медицине. – Бухара, 2020. – №4(33). - С.59-61
3. Бьорклунд Г. и др. Взаимодействие железа с марганцем, цинком, хромом и селеном в связи с профилактикой и лечением дефицита железа // Журнал микроэлементов в медицине и биологии. 2017. Том. 41. С. 41-53. (ЕСЛИ = 2,550.)
4. Душкаева А., Мирошников С., Душкаев Г., Нотова С., Барышева Е., Сизова Е. Элементный статус организма под влиянием пищевого стресса у крыс линии Вистар // Международный журнал биологической химии. — 2015. — Том. 9, Выпуск 3. — Р. 142–147.
5. Милютин А.П., Горбачева А.М., Айнетдинова А.Р., Еремкина А.К., Мокрышева Н.Г. (2021). Проблемы эндокринологии, 67(5), 11–19. <https://doi.org/10.14341/probl12807>
6. Клименко Л.Л. и др. Электролиты сыворотки связаны с маркерами нервного повреждения у пациентов с транзиторной ишемической атакой и ишемическим инсультом // Trace Elem Electroly. 2017. Том. 34 (1). С. 29–33.
7. Момчилович, Б. Воздействие серебра на человека в окружающей среде / Б. Момчилович, В. Вишневич, Ж. Пряк, Н. Мимика, С. Морович, А. Челебич, С. Дрмич, А. В. Скальный // Токсикологическая и химия окружающей среды. —

2012. — Том. 94, № 6. — С. 1238–1246. — ISSN 0277-2248.

**8.** Дерябин Д. Активность производных фуллеренов, несущих аминные и карбоксильные солубилизирующие группы, против *Escherichia coli*: сравнительное исследование // Журнал наноматериалов. — 2014. — Номер статьи 907435, 9 страниц.

**9.** Исследование возможностей использования наночастиц железа и аминокислот в питании птицы / С.А. Мирошников и др. // Международный журнал GEOMATE. 2017. Том. 13, вып. 40. Специальный выпуск по науке, технике и окружающей среде. ISSN: 2186-2990, Япония. DOI:<https://doi.org/10.21660/2017.40.99216>.

**10.** Русакова Е.А., Сизова Е.А., Косян Д.Б., Мирошников С.А., Сипайлова О.Ю. Сравнительная оценка острой токсичности наночастиц цинка, меди и их наносистем с использованием // Восточный химический журнал. — 2015. — Том. 31. — С. 105–112.

**11.** Аминова Н. диагностика и лечение анемии и современный метод // Международный научно-исследовательский журнал — 2023. — Волес. 4 — П. 1596-1599 гг.

**12.** Аминова Н.Н. Современные и методы диагностики железодефицитной анемии // Журнал Импульсы Научный — 2022 — Полевки. 5 — С. 47-50

## ФАРҒОНА МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРДА АМИР ТЕМУР НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ АФСОНАЛАР

**Нодиржон Абдулахатов**

Тарих фанлари доктори

Фарғона вилояти педагогларни янги  
методикаларга ўргатиш марказининг профессори.

E-mail: [an\\_igp@mail.ru](mailto:an_igp@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Фарғона вилоятидаги Амир Темур ва темурийлар даврига доир меъморий ёдгорликлар ва улардаги Амир Темур номи билан боғлиқ ривоятлар тўғрисида сўз юртилади.

**Калит сўзлар:** мазор, ривоят, ёзма манба, авлиё, гумбаз, авлод, уйдирма, меъморчилик.

### АННОТАЦИЯ

Эта статья расскажет об архитектурных памятниках эпохи Амира Темура и Темуридов в Ферганской области и их легендах.

**Ключевые слова:** гробницы, повествования, письменные источники, святые, купола, потомки, измышления, архитектура.

### ABSTRACT

This article will tell about architectural monuments of the Amir Temur and Temurids era in the Ferghana region and their legends.

**Keywords:** tombs, narratives, written sources, saints, domes, descendants, fabrications, architecture.

Соҳибқирон Амир Темур ҳаёти ва фаолияти тўғрисида кўпдан-кўп қўлёзма манбалар, неча ўнлаб китоблар бизгача етиб келди. Булардан бошқа замон уламолари ва фузалолари асарларида ҳам Соҳибқирон тўғрисида муҳим далиллар ёзиб қолдирилди. Шулардан бири Алишер Навоийнинг 901 ҳижрий (1495–96) йилда ёзган “Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул-футувват” (улуғлик хушбўйликларини таратувчи севги шаббодалари) асаридир. Навоий ушбу асаарида Турк машойихлари ҳаёти ва фаолиятидаги буюк улуғворликларига

алоҳида эътибор қаратгандир. Асарнинг турк машойихлари қисмида Абдурахмон Жомийнинг “Нафаҳот ул-унс” асаридан фарқлироқ Абдуллоҳ Муборақ, Абу Мансур Мотуридий, Аҳмад Яссавий, Аҳмад Югнакий, Пахлавон Маҳмуд, Убайдуллоҳ Лутфий, Муҳаммад Табогдгоний, Хожа Боязид ва бошқа юздан ортиқ Турк машойихлари, яъни Туркистон заминида машҳур бўлган туркийзабон авлиёлар ўрин олгандир. Асарнинг бир неча жойида Соҳибқирон шахсиятига оид маълумотлар ҳам баён этилган. Асардаги авлиёлар тавсилотининг 617 рақам тартиб остида Навоий ёзади: “ Хожа Боязид”<sup>1</sup>(Боязид – нурли, порлоқ деган маънога эга) айлайҳирраҳма. Атонинг яқин авлодидандур. Темурбек анинг суҳбатиға келибтур. Ва келурда кўнглида кечибтурки, бу эрнинг маъно оламидин хабари бўлса, бизга иссиқ ҳалво тортқой. Ул муридларға ҳалвони худ буюрғон экандур. Бек била саломлашиб, кўришгондин сўнгра дебдурки, “аввал салом, ўртаси таъом, охири калом”. Филҳол ҳалвони торттурубдур. Бекка бу ҳол зоҳир бўлғач, мурид бўлуб, лангар ясаб кўп авқоф қилибдур”<sup>2</sup>.

Ҳазрат Алишер Навоийни Хожа Боязидга берган таърифини навоийшунос олим Ҳамидхон Исломий қуйидагича изоҳлайди: “Ушбу лавҳада Амир Темур Хожа Боязид суҳбатиға атайлаб келганлиги баён этилган. Соҳибқироннинг Хожа Боязид ҳузурига келишининг ўзи, авлиёнинг ўз замонасида машҳур ва маълум бўлганидан дарак берар эди. Амир Темур кўнглидан кечган фикрни ёки шартли синовни Хожа Боязиднинг ғойибий олам сиррул-асрори руҳияти орқали билиши, яъни Темур кўнглидаги шартни ғойибий идрок этиши, ул зотнинг ботиний илмлардан, маъно оламидан юксак камолотга эришган Авлиё эканидан далолат эди. Демак Темурбек ҳам маъно оламининг сиррул-асрори, ботиний илмлардан бохабар, ғойиб илмига ишонган ва каромат дунёсига интилувчи зукко киши экани маълум бўлади. Шу боис Хожа Боязид зиёратига йўл тортиб, эзгу ният билан ул зоти шариф суҳбатиға келади. Суҳбат ўз даврида билимлар синови, мушкул масалалар ечими, сиррул-асрорнинг зоҳиридаги кўринишлари тўғрисида бўлар эди. Ушбу сабабларга кўра ҳамонки, йўлда Соҳибқирон Хожа Боязид руҳияти билан ғойибона мулоқот қилади.

Бунда Шайхнинг камолоти қай даражада эканини билмак учун руҳан, кўнглида авлиё руҳиятиға таъсир этади (синов шартли сифатида, ўз одамлари билан борганда, уларнинг олдиға иссиқ ҳалво қўядими?). Бу жуда қалтис ва нозик “Ҳолат” эди. Амир Темур, Шайх ҳузурига борганда худди ўйлаганидек,

<sup>1</sup> Бу ерда турк машойихи Хожа Боязид ҳақида сўз кетмоқда.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Тўла асарлар тўплами, ўнинчи жилд. – Тошкент.: “Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2011. – Б.440.

Хожа Боязид Амир Темур ва унинг сафдошларига иссиқ ҳалво торттиради. Албатта, Ҳирот ёки Самарқанддан Фарғона водийсига келган Соҳибқироннинг ўзи муҳофизатчи қўшини – ясовул, қўриқчи, баходир, сардор ва кенгашчилар сафдошлари назарга олинса, кам деганда 200 ёки 300 киши демакдир. Буларнинг барчасига ҳалво торттиришнинг ўзи айна ҳаётда зоҳирий каромат эди.

Ана шундан кейин “маъно олами” ғойиб руҳияти кароматидан кўнгли амин топган Амир Темур ишонч ва қойиллиги билан Хожа Боязидга мурид бўлган экан. Бундан кўриниб турибдики, Соҳибқирон тасаввуф сулукига киришни ният қилган ва бу маъно оламининг сиррул-асрорлари таълимоти йўлида Хожа Боязидни ўз пири – муршиди, деб билган ва тан олган эдилар. Шунинг учун Хожа Боязидга кўп “авқоф”, яъни маблағлар ажратиб, вақф мулклар тайин этган. Айна чоғда бу маблағлар толиби илмларни ўқитиш, мадраса, мактаблар қуриш, улар учун маданий-маънавий шароитлар яратиш, доимий вақфлар учун ер, мол-мулклар ажратиш, таъмин этиш каби ҳаётий, маърифий, маънавий юксалишни таъминлашда Хожа Боязид учун катта имкониятлар яратиб берган эди.

Энди “Лангар” масаласи эса, бу буюк карвонсаройларни ўз ичига олган ҳолда, аҳолини пулсиз, тўловсиз овқат билан таъминлашни йўлга қўйганидан далолат беради. Шу билан бирга Соҳибқирон ўз пири – муршидига чексиз саҳийлик аломатларини кўрсатгани маълум этилган...Хожа Боязид қабри Фарғона вилояти Бувайда туманининг Мозор қишлоғида қад кўтариб турибди. Келгусида бу муборак жой Фарғона водийси халқининг олий зиёратгоҳига айланиб кетишига шубҳа йўқдур”<sup>1</sup>.

Таъкид жоикзи, Фарғона водийсида турк машойихи Хожа Боязидни қабрини янглиш тарзда форс тасаввуф тариқати асосчиларидан, орифлар султони, муҳаққиқлар сардори 785 йили вафот Боязид Бистомийга нисбат бериш ҳоллари учраб туради. Шу сабабдан айримлар Бувайда туманидаги Хожа Боязид қабрини Боязид Бистомий мазори деб аташга ўрганиб қолганлар. Ваҳоланки, Боязид Бистомийнинг мазори Фарғона водийсида бўлиши тарихий ҳақиқатга тўғри келмайди.

Ҳозирда Бастом бува (Бистом бува, Бастом бобо) зиёратгоҳи Бувайда туманининг Бастомбува қишлоғида жойлашган. Темурийлар даврига мансуб меъморий ёдгорликларидан бири бўлган Бастом бува зиёратгоҳи Кўқон хонлиги тарихига доир ёзма манбаларда Султон Боязид (Бояз) Бистомий номи билан тилга олинади. Масалан, Кўқон тарихнавислиги мактабининг энг машҳур

<sup>1</sup> Ҳамидхон Исломиёв. Султон ул-орифин Хожа Аҳмад Яссавий. – Тошкент.: “Фан”, 2005. – Б. 21-25.



намојандаси бўлмиш хонзода Муҳаммадҳакимхон ибн Маъсумхон Махдуми Аъзамий қаламига мансуб бўлган “Мунтахаб ат-таворих” (“Сайланган тарихлар китоби”) номли асарига бу ҳақда жумладан шундай дейилади: “...Шералихон у ердан катта дабдаба ва шон шавкат билан Сайхун дарёсидан кечиб ўтди ва Султон Боязид Бастомий номини олган мавзегга кириб келди. У ердан эса неча ҳашамат ва тажаммул билан пойтахт Хўқандга юзланди”<sup>1</sup>. Қўқон хонлиги тарихига доир архив ҳужжатларида зиёратгоҳ Султон Бояз Бистомий, Султон Баёз Бистом номлари остида қайд этилган. Мазкур ҳужжатларда Султон Бояз Бистомий мазорига ўтказилган маросимлар билан боғлиқ маълумотлар сақланиб қолган<sup>2</sup>.

1939 йилда мазкур зиёратгоҳни кўздан кечирган академик Яҳё Гуломов у ҳақда шундай ёзади: “Урганжи темир йўл бекатининг жанубий томонида афсонавий шай Боязид Бастомий номи билан боғлиқ икки гумбазли мақбара жойлашган. Фарғоналиклар бу мақбарани оддий қилиб Бастом бува деб атайдилар. Ҳар йили август ўрталарида Фарғонинг турли туманларидан келиб қумга тушадилар. Бу ҳудуд сувсиз чўлдан иборат бўлиб, қум барханлари кўчиб юради. Шундай барханлардан бири Бастом бува мақбарасини ҳам қуршаб олган”<sup>3</sup>.

Бувайда тумани, Бачқир қишлоғида жойлашган темурийлар даврига Пошшо Пирим (Ҳазрати Шоҳ, Подшоҳ Пирим ҳам дейилади) – Шоҳ Жарир (Шоҳ Жалил) мақбараси ҳам қадимда худди Бистом бува зиёратгоҳи сингари ўзининг салобати ва кўриниши билан ажралиб турган. Шу сабабдан Қўқон хонлиги тарихига доир ёзма манбаларда ушбу зиёратгоҳ тўғрисида кўплаб маълумотлар учрайди<sup>4</sup>. Подшоҳ Пирим мазорига берилган бундай таърифлар ҳар қандай зиёратчида шубҳасиз катта бир таъсирот қолдиради. Шу сабабдан ҳам Қўқон хонлиги даврига доир ёзма манбаларда мазкур мазорни хон ва унинг аҳли аёнлари томонидан ҳар доим зиёрат қилиб турилганлиги тўғрисида маълумотлар мавжуд<sup>5</sup>.

Масалан, Қўқон хони Худоёрхонни Пошшо Пирим – Шоҳ Жарир мазорига зиёратга келишини тарихчи Зиёвуддин Махзун шундай таърифлайди: “Подшоҳи

<sup>1</sup>Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих / Форс тилидан таржимон, муқаддима, изоҳлар муаллифи: Шодмон Воҳидов. - Тошкент.: “Янги аср авлоди”, 2010. – Б. 662.

<sup>2</sup>Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва.: “Наука”, 1968.С. 94.

<sup>3</sup> Гулямов Я.Г. Отчет о работе третьего отряда археологической экспедиции на строительстве БФК // Труды ИИА. Том IV. Т., 195. С.103-104.

<sup>4</sup> Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент, 2010. С.212.

<sup>5</sup> Бу ҳақда қаранг: Троицкая А.Л. “Заповедники” – Курук Кокандского хана Худаяра // Сборник Государственной публичной Библиотеки имени М.Е. Салтыкова – Шедрина – в. III. –Л., 1955; Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: “Наука”, 1968; Набиев Р.Н. Истории Кокандского ханства. – Ташкент.: “Фан”, 1973; Мирзо Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таварих-ал-хавакин. –Т., 2007.

олам (Шералихон) Шахзода (Худоёрхон)ни кўлини ушлаб туриб: “Шахзода энди Оллоҳ таолони суйган дўстларини бориб зиёрат қилганингиз яхши. Чунки улардан-да мадад бўлади”, деди...Шундай қилиб (Худоёрхон) Шоҳ Жалилни зиёрат қилиб, Яратгандан ёрдам сўради”<sup>1</sup>.

Маълумотларга кўра, айнан Пошшо Пирим – Шоҳ Жарир зиёратгоҳида Худоёрхон 1845 йили оқ кийгизга ўтқазилиб, хон қилиб кўтарилган эди<sup>2</sup>. Қўқон хонлиги тарихига доир архив ҳужжатларида зиёратгоҳ Ҳазрати Шоҳ номи остида қайд этилган. Мазкур ҳужжатларда Ҳазрати Шоҳ мазорида ўтқазилган маросимлар билан боғлиқ маълумотлар сақланиб қолган<sup>3</sup>.1939 йилда мазкур зиёратгоҳни кўздан кечирган академик Яҳё Гуломов у ҳақда шундай ёзади:

“Пошшои пир мазори. Бу катта қабристон Оржоникидзе колхозининг Бачқир қишлоқ совети ҳудудида жойлашган. Ушбу ном афсонавий инсон Пошшои пир мақбараси номидан келиб чиққан. Мақбара қабр турган хона ва зиёратхонадан иборат. Мақбара пештоқи ғарбга қаратилган. Зиёратхона гумбазининг қурилиш услуби XVIII асрдаги мадрасани эслатади. Қабр жойлашган хона икки чиқиш йўлидан иборат: бири зиёратхона орқали, бошқа бири – жанубга қаратилган алоҳида пастаккина хона орқали. Кўринишидан мазкур мақбарага кириш йўли зиёратхона қурилиши даврида беркитиб юборилган. Маҳаллий аҳоли мақбара қурилишини Амир Темурга боғлайдилар. Қабристонинг катта майдонинг устки қатлами қаттиб кетган шўрхок ердан иборат бўлиб, унда Ўрта Осиёда мўғуллар ҳукмронлиги даврига хос 54х54х6см. иборат пишиқ ғишт парчалари учрайди”<sup>4</sup>.

Пошшо Пирим мақбарасининг меъморчиликка хос жиҳатларини санъатшунос олим И.Азимов қуйидагича таърифлайди: “Бувайда тумани Қўқон шаҳридаг шимолроқда жойлашган. Бу ерда ҳозиргача сақланиб қолган икки хонали Шоҳ Жалил, Бўстонбува ва Биби Бувайда мақбаралари диқатга сазовордир. Турли даврларда қурилган Подшо Пирим комплексини ўзагини Фарғона водийсида ислом динини тарғиб қилган Шоҳ Жалил деган кимсанинг дахмаси ташкил этади Бу имом вафотидан сўнг “авлиё” деб эълон қилинган ҳамда қабрини зиёрат қилиш одат тусига кирган. Кейинчалик “авлиё” қабри устига дахма қурилган, аста-секин унинг атрофида қабристон вужудга келган.

Комплекс асосан икки ҳовлидан: тўғри бурчакли ҳовлидаги XV асрда

<sup>1</sup>Магзуни. Фарғана хандарынын тарыхы. Бишкек, 2007. – Б.95.

<sup>2</sup>Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин / Перевод, примечания и указатели – Салиджан Юлдашев. Ташкент, 2007.С.120.

<sup>3</sup>Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века...С. 94.

<sup>4</sup>Гулямов Я.Г. Отчет о работе третьего отряда археологической экспедиции на строительстве БФК // Труды ИИА. Том IV. Т., 1951.С.117.

қурилган пештоқли-гумбазли дарвозахона ҳамда унинг ён томонига XX асрда қурилган очик масжиддан ва кўп қиррали ҳовлидаги XV-XVI асрларга оид қабр ва даҳмалардан иборат бўлган. Масжид тархи тўғри бурчакли хонақоҳ ҳамда шифти маҳаллий услубда ишланган уч томонли айвондан иборат бўлиб, уни 44 та устун кўтариб туради. У Фарғонага хос диний иншоотлар услубида қурилган... Шох Жалил мақбараси ўзининг салобати ва кўриниши билан ажралиб туради”<sup>1</sup>.

Бувайда туманидаги Жалоер қишлоғи Инғирчоқ маҳалласида Галдирбобо мозори жойлашган. Ушбу зиёратгоҳни ҳам пайдо бўлиш тарихини маҳаллий аҳоли Амир Темур номи билан боғлайдилар.

Ривоят қилишларича, Амир Темур Қошғарга юриш қила туриб, Бувайда қишлоғида тўхтади ва бу ерда Галдирбобо исмли бир мохир мерганни учратиб қолади. Амир Темур дарахтга узук осиб, агар шу узукка камондан ўқ отиб теккиза олса, нима тиласа, шунини бажо қилишини айтади. Мерган маҳоратини намойиш этиб, узукка камондан аниқ теккиза олган. Галдирбобо ишни қойилмақом қилиб бажаргач, Амир Темурдан ўзи яшаб турган жойни боғ қилмоқчи эканлигини ва сув келтиришда ёрдам беришини сўрайди. Шундан кейин Амир Темур мерганнинг тилагини бажо қилиб, ариқ қаздириб берган экан<sup>2</sup>. Йиллар ўтиб, Галдирбобо ўздан гўзал боғ қолдириб, оламдан ўтибди. Аввалига уни Валипирим мозорига дафн этибдилар. Бироқ Галдирбобо қишлоқ улуғларини бир нечасининг тушига кириб ”Бу ерда сув ичида қолиб кетдим. Мени олиб кетинглар”, дегач, уни Инғирчоқ қишлоғининг қабристонига дафн этганлар ва шу тарзда қабристон ҳам Галдирбобо номи билан аталган экан<sup>3</sup>.

Фарғона водийсининг қадимий шаҳарларидан бўлган Марғилондаги Кўк мазор, Амир Хизр Валий зиёратгоҳлари тўғрисидаги ривоятлар бевосита Соҳибқирон Амир Темур номи билан боғлиқдир. Бу ривоятлар аксарият ҳолларда, сингари зиёратгоҳлар билан боғлиқдир. Мазкур зиёратгоҳлар тарихини ўрганиш мақсадида уюштирилган илмий сафарларимиз чоғида халқ орасида сақланиб қолган баъзи бир ривоятларни ёзиб олишга муяссар бўлдик.

Ривоятларга кўра, Амир Темур ўзининг ўн тўрт йилга чўзилган мўғулларга қарши юриши чоғида кетаётиб, Марғилонда тўхтаб ўтган экан. Унинг лашкарбошилари олис сафар олдидадан шу ерда отларни тақалаш лозимлигини Амир Темурга маълум қилишгач, Марғилондаги барча тақачи усталарни отларни

<sup>1</sup> Азимов И. Архитектурные памятники Ферганской долины. – Ташкент.: «Узбекистан», 1982. С.35- 36.

<sup>2</sup> Дала тадқиқотлари. 2006 йил. Бувайда тумани Инғирчоқ қишлоғида яшовчи (1940 йилда туғилган) Валижон Сиддиқовдан ёзиб олинди

<sup>3</sup> Абдулаҳатов Н., Раҳмонов А., Аҳмедов М. Бувайда зиёратгоҳлари. – Тошкент.: «Янги аср авлоди», 2013.- Б.91.

тақалаш учун ҳузурига чорлабди. Бироқ ўша вақтларда ҳозирги Кўкмозор ўрнида яшовчи отларга тақа ясовчи Мулло Охун Мирзо Амир Темурнинг ҳузурига келмабди. Амир Темур ўша темирчига одам юбориб келмаганлигининг боисини суриштирибди. Мулло Охун отларини тақалаш билан машғул бўлиб бора олмаганлигини айтибди. Не кўз билан кўришсинки, улкан кўп сонли кўшинидаги барча отларнинг туёқларида тақа бор эмиш. Мулло Охун Мирзо уста валий зотлардан бўлганлиги учун бу ишни бир кечанинг ўзидаёқ биров билмас тарзда уддалаб қўйган экан. Амир Темур устанинг ишларидан ҳайратга тушибди ва унинг ишидан ғоят миннатдор бўлиб сафарида давом этибди. Ҳарбий юришдан қайта туриб, Амир Темур устани кўриш ниятида Марғилонга келибди. Аммо бу вақтда уста оламдан ўтган экан. Амир Темур устага бўлган ҳурмат эҳтиромини адо этиб, унга атаб зиёратгоҳ қурдирибди. Кейинчалик зиёратгоҳ Кўкмозор номи билан халқ орасида машҳур бўлибди.

Яна бир ривоятга кўра, тақачи уста Амир Темурга кароматини ошкор қилиб қўйганидан ҳижолат чекиб бир чангалнинг олдида ғойиб бўлган экан. Яна бир ривоятга кўра, Амир Темур тақаларни кўлида ушлаб кўрса, синиб кетавергач, мулозимларидан бири Марғилонда авлиё темирчи борлигини, у ясаган тақалар ҳеч қачон синмаслигини айтибди. Шундан сўнг Амир Темур ўша темирчига отларини тақалашини буюрган экан. Элшунос олима А. К. Писарчикнинг ёзишича, мозорни аслида Кўкмозор деб аталишига унинг кошинларини кўмғкўк бўлганлиги сабаб бўлган. Яна бир тахмин мозор кўк йўталга шифо бўлганлиги учун шу ном билан аталган экан<sup>1</sup>.

Ёзма манбаларда ушбу зиёратгоҳ Хўжа Оҳангар деб аталган. Махдуми Аъзамнинг набираси Хожа Абул Бақо ибн Хожа Баҳовуддин томонидан 1026 (1616-17) йилда Самарқандда ёзилган “Жомеъ ул-мақомот” (Махдуми Аъзам мақомоти) асари келтирган маълумотга кўра Махдуми Аъзам Марғилонда дафн этилган тобеинлардан бири Хўжа Маоз Жабал мозорини ва Хўжа Оҳангар қабрини зиёрат қилгани келиб турган<sup>2</sup>.

Ҳозирги Фарғона шаҳрининг Ёрмозор мавзесида Амир Хизр Валий Пошшойим мозори жойлашган. Маълумотларга кўра, бу ерга Амир Темурнинг куёви Абдували Хизр Подшоҳ дафн этилган. Нақл қилишларича, Амир Хизр Валий Пошшо пири аслида ажам юртидан бўлиб – авлод аждодлари саййидлар – пайғамбарзодалардан экан. Падари-бузрукворлари бир юртга подшоҳлик ҳам қилган эканлар. Амир Темур Соҳибқирон ўша юртга қилган юриши чоғида

<sup>1</sup> Писарчик А. К. Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы // Сборник статей посвященных искусству. Сталинабад., 1956. С.153.

<sup>2</sup> Хожа Абул Бақо ибн Хожа Баҳовуддин. “Жомеъ ул-мақомот”. Қўлёзма. ЎзФАШИ. – № 72. 116- варақ.

пойтахтни қамал қилиб, қамалдагиларни таслим бўлишга чақиради. Шаҳарни забт этгач, Хизр Валий Пошшопиримнинг отағоналарини Турон заминга олиб келишади. Шунда Амир Валий жар ёқасидаги дарахтдан камон ясаб, дуоибад қилинган икки ўқни Амир Темурга қарата отади. Биринчи ўқни соҳибқироннинг пирлари қўллари билан ушлаб оладилар. Иккинчи ўқ етиб келмагач, Амир Кўрагоннинг пирлари саййидзодағпошшозодаларни кўчириб келиш тайзиқ остида бўлгани хато ишлигини айтиб, улар билан муносабатни яхшилашга чорлайди... Соҳибқирон бу авлоддан узр сўраб, Амир Хизр Валийга ўз қизларини берган экан.

Изланишлари шуни кўрсатмоқдаки, ушбу мазор чиндан ҳам темурийлар даврига таалуқли бўлиб, вақфномалардан бирида келтирилишча, хижрий 824 (1418) йили Амир Хизр Валий мазори олдидаги масжид ва мадраса таъмир этилган. Вақфномада “Амир Хизр Валийнинг қabri Фохираи Марғилонда жойлашган”, дея таъкидланади. Чунки, ўша даврларда Марғилон шаҳри дейилганда катта ҳудуд тушунилган<sup>1</sup>.

Хулоса сифатида таъкидлаб ўтиш жоизки, Фарғона вилоятидаги темурийлар даврига оид зиёратгоҳларда асрлардан асрларга ўтиб, ҳозирга қадар сақланиб келаётган афсона ва ривоятлар, турли ҳикматли ҳикоятлар халқ оғзаки бадий ижодининг намунаси сифатида сақланиб қолган. Ушбу зиёратгоҳлардаги Амир Темур билан боғлиқ афсона ва ривоятларни баъзи бировлар қуруқ уйдирма гаплардек қабул қиладилар ва бошқаларни ҳам бу афсоналарга ишонмасликка ундайдилар. Аммо, айтганларидек, шундай афсоналар борки, ҳар қандай далилдан ҳам тарихийроқдир. Биз сўз юритган улуғ зотларнинг ҳаёти ҳам шундай афсоналарга бой бўлиб, қадимий битикларимизда айтилганидек “Бул ҳикоят агарчи афсона тусида эрсағда, ул ҳақиқатдан йироқ эмасдур”.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

**Qiz bazmi.** Bu marosimning o‘tkazilishi ixtiyoriy bo‘lib, nikoh to‘yidan oldin qizning uyida o‘tkaziladi. Qiz bazmiga kelinning dugonalari, qarindoshlar, qo‘shnilar taklif qilinadi. Qizning ota-onasi uyida oila a‘zolari bilan xayrlashishi, yangi oilada hurmatli, izzatli kelin bo‘lishi uchun yig‘ilganlar tomonidan yaxshi tilaklar bildiriladi. Bu urf-odatlar o‘zbek tilli hududlarning barcha sheva vakillari turmush tarzida mavjud bo‘lib, Bux., Samar., Nav. Karmana tum. **qʻz bazmʻ**, Nav. Konimex, Nurota tum. **qiz toyi**, Qarsh. **qʻzlar davrasʻ**, Xor. **qʻzlar yʻgʻʻnʻ**, Qoraqal. shevalarida **qʻz yʻgʻʻnʻ//qʻz chaqʻrʻshma//qʻz chaqʻrʻq** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o‘tkaziladi. Bu marosimning o‘tkazilishi natijasida ota-onaga bo‘lgan qadr-qimmat, hurmat, ota-onani e‘zozlash kabi ma‘naviy qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi.

**To‘y paytida o‘tkaziladigan marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar:**  
**Kuyov navkar.** To‘y kuni ko‘pgina hududlarda dori bilan, ba‘zi joylarda kuyov navkarlar (kuyov va do‘stlari) kelinnikiga karnay-surnaylar sadosi ostida borishadi. Kelinnikida kuyov navkarlar mehmon qilinadi. O‘sha yerda juda ko‘plab hududlarda kuyovga to‘n kiydirish marosimlari o‘tkaziladi. Samar., Bux., Nav. viloyatlarida



kuyovnikiga kuyov sarpo jo'natiladi. Jiz. viloyatida bu marosimdan keyin kelin va kuyovning nikohlari domla-imom tomonidan o'qitiladi. Mazkur hududda kuyov navkarlar dasturxondan turgandan keyin kelin uyidan yaxshi niyat bilan chinni idishlardan olib ketadilar.

Ma'lumki, to'yga uzoq-yaqindan kelib mehmon bo'lib tunab qolishadi. Bunday paytda ular qo'ni-qo'shnilariga tarqatilgan. Bu odat **mehmōn ɔlsh** deb atalib, o'g'uz va qipchoqlarda ham, qo'ng'iroq va qarluqlarda ham keng tarqalgan. Mazkur odat jamoa-urug'chilik davridan qolgan bo'lib, bu davrda bir qishloq yagona oiladan tashkil topgan. Bu odatlar hozir ham bor bo'lib, Nav. Nurota, Navbahor, Xatirchi tum.; Samar. Paxtachi, Narpay va boshqa ko'pgina tumanlarida to'yga kelgan mehmonga hurmat ko'rsatilib, qo'ni qo'shnilarinikiga **qo'nyoqqa** (mehmonga) uzatilgan. **Qonuq** – mehmon. Yozma yodgorliklarda ham qonuq so'zi qo'llanilgan. Masalan, bir qarib man manqa bu kun kecha qonuqi barinlar, bu eshda jamajin. Men bir yo'lovchiman, menga bu kecha mehmonlikka joy beringlar, shu yerda qolayin [5].

**Poyondoq.** Kuyov va kelinning oyoqlari ostiga to'yda poyondoq tashlash o'zbek xalqining azaldan foydalanib kelingan urf-odatlaridan biridir. Bu marosim o'zbek tilli hududlarda farqlanadi va boshqa hududlarda uchramaydi. Tosh.v.da kelinni olib ketishga kelgan kuyovning oyog'i ostiga tashlanadi. Marosim davom ettirilib, kelinni to'yxonaga olib kirishda kelin va kuyovning oyog'i ostiga tashlanadi. Jiz.da nikoh bazmidan keyin kuyovning do'stlari kelinning yaqin qarindoshlari bo'lgan yigitlar bilan kuyovning nikoh marosimidan chiqishini ostonada kutib turadilar. Yoshi ulug' keksalar poyondoq uchun tayyorlab qo'yilgan atlas matoni kuyov oyoqlari poyiga to'shaydilar. Kuyov o'ng oyog'ini bosgandan keyin uni olib kuyov va kelin tomondan poyondoq tortishga shaylanib turgan yigitlarga oshirishadi. Shundan poyondoq marosimi paytida qo'lga kiritgan kiyimlarini yaxshi niyatlar bilan olib ketadilar. Bu mato bo'laklaridan ayollar ro'molcha, tumor tikadilar yoki kelin-kuyovlarga atab tikiladigan ko'rpa-yostiqlarga quroq sifatida foydalanishadi. Bux., Nav., Samar. **poyondoq**, Qashq. **poyondoz**, Surxan. **payondoz**, Xor. **pəndəz**, Qoraqal. **pyandoz** deb nomlanadi.

**“Ololmaysan marosimi”** to'y bazmi tugagandan keyin o'tkaziladi. Jizzax viloyati an'anaviy to'ylarida o'tkaziladigan odatlardan biri. To'y bazmi tugagandan so'ng kelinni yangalari va uzatib borgan qarindosh ayollar chimildiqqa kirgizishga hozirlangan milliy libosni kiyintiradilar va xonaning chimildiq ro'parasidagi burchagida stulga o'tkazib, uni to'sib turishadi. Shundan keyin kuyovni chopon bilan boshini berkitgan holda chimildiqqa olib kirishadi. Kuyov tomon bir tarafda, kelin tomon bir tarafda: “Ololmaysiz, xo-xo ololmaysiz”, “Ololamiza, ololamiz” deya qo'shiq aytib, raqsga tushishadi. Kuyov tomonidagi yangalardan epchillari kelin

o‘tirgan joyga kelib, chaqqonlik bilan uni boshini qashib olishlari lozim bo‘ladi. Kuyov kelin tomonga kelib, kelinni chimildiqqa o‘lanlar sadosi bilan olib kirish boshlanadi. Kelin kuyov bir-biriga yetgan joyda “**эъқ бəst**” marosimi o‘tkaziladi. Bunday paytda odatda kuyovlar kelinning oyog‘ini astagina bosib qo‘yishadi va chimildiqqa olib kirishadi. Bux. va Nav. viloyatlarida bu marosim kuyov kelinni olib kelish uchun borganda, chimildiqqa kirishadi. Shunda urf-odatlariga ko‘ra “**эъқ бəst**” marosimi bo‘ladi [6].

**Chimildiqda ko‘zguga boqish marosimlari.** Kelin chimildiqqa kirgandan keyin yangi sotib olingan, lekin hali hech kim boqmagan, o‘rab qo‘yilgan ko‘zguni yoshi keksa momolardan biri ochib kelin-kuyovga tutadi. “Hayotlaring oynadek tiniq bo‘lsin, ko‘z ochib ko‘rganing bilan qo‘sha qaringlar” deya, kelin-kuyov atrofida yoqilgan sham aylantiriladi, so‘ngra isiriq tutatilib, ularga novvot choy ichiriladi. Chimildiq atrofida o‘tirgan barcha ayollar kelin-kuyov ichgan novvot choydan yaxshi niyatlar bilan ichadilar. Ba‘zi hududlarda, Samar., Nav. viloyatlarida bu marosim davom ettirilib, kuyovning to‘ni ichiga tuxum solish marosimi o‘tkaziladi.

Shu bois Bux. va Samar. tojiklari lahjasi etnografik leksikasida nikoh qoidalarini bajarish (ahdi nikoh), sharbat ichirish (sharbat dodan), nikoh paytida kelin-kuyovni gulxan yo olov atrofida aylantirish, qirq kun davomida yangi kelin-kuyovning uyida chiroq yoqish kabi marosimlarni ifodalovchi leksik birliklar faol qo‘llaniladi. Unashtirishning eng yuqori nuqtasi kelin to‘yidir.

To‘y marosimi hamisha shodlik, xurramlik, yoshlik, go‘zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o‘tkaziladigan ajoyib oilaviy bayramdir. G‘oyat go‘zal bo‘lgan bu marosim barcha xildagi xalq san‘ati, ashula, raqs bilan o‘tkaziladi. To‘y qo‘shiqlarida shodlik, g‘am, muhabbat, firoq, samimiy ishq, shuningdek, inson hayotining boshqa jihatlari aks ettirilgan. Bugungi kunda eski an‘anaviy qo‘shiqlar, masalan “Ho‘ bale!”, “Salomnoma”, “Ho Layli”, “To‘ylar muborak”, “Yor-yor” zamonaviy yangi usul bilan kuylanadi. Ma‘lum bo‘lganidek, to‘y-hasham marosimlari maxsus dramaviy lahzalarga ega bo‘lib, folklor shaklida yo xalq adabiyoti shaklida maxsus etnografik so‘zlar bilan lahja va shevalarda qamrab olingan. Jumladan, bu jihatlar she‘r-u qo‘shiqchilikda, masxarabozlikda, musiqa, askiyachilik, she‘rxonlik va turli o‘yinlarda to‘yning dramaviy xususiyatini aks ettiradi. To‘y qo‘shiqlarini ijro etishda kelin-kuyov oilasi, qarindoshlari asosiy rol ni o‘ynaydilar.

**Padaroshi** – atama ikki qismdan tuzilgan: padar+osh. Padar – fors-tojikchada ota ma‘nosini anglatadi; osh esa asosan palov ma‘nosida qo‘llaniladi. Padaroshi nikoh to‘yida kuyovning uyida erta saharda osh berish marosimini anglatadi. Bux. **nahorgi osh**, Nav. **қəz oshь**, Samar. **padaroshi**, Qashq. **ota keldь** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o‘tkaziladi. Xor. va Qoraqal. hududlarida bu marosim o‘tkazilmaydi.

**To‘ydan keyingi marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar** to‘y kunining ertasiga kelin salomi bilan boshlanib ketadigan marosim nomlaridan iborat. Masalan, kelin salom, charlar, challadi yoki kelin chaqirdi, yuz ko‘rar kabi.

**Kelin salom** – kelinni to‘yning ertasiga qarindoshlarga tanishtirishga bag‘ishlangan tantananing nomi. Ba’zi hududlarda to‘y ertasiga, ba’zi hududlarda to‘y kuni kelin salom marosimi o‘tkaziladi. Xalqimizga xos bu qadimiy udum O‘zbekistonning har bir viloyatida, har bir vohasida o‘ziga xos tarzda, o‘zgacha bir shukuh bilan o‘tkaziladi. Hammasi ham o‘zida millatimizga xos estetik qarashlarni aks ettiradi. Poytaxtimiz Toshkent shahrida kelinlar boshlariga yopinchiq yopgan holda egilib salom beradilar, Samarqandda esa salom aytilgan vaqtda qo‘llariga ilingan ro‘molcha bilan yuzini yopadi. Qashqadaryo vohasida esa yon tomonga egilgan holatda salom beradi. Milliy liboslarda hayo bilan bosh egib turgan kelinlarning salom berish uchun qilayotgan bu harakatlari ushbu marosimga kelgan barchani maftun etadi. Jamiyatda kelajagiga barqaror bir zamin tayyorlashni istagan yoshlar ota-onaga, qo‘ni-qo‘shnilarga, yor-birodarlarga, qarindosh-urug‘larga hurmat bajo aylagan holda marosim orqali o‘z ehtiromlarini ko‘rsatadilar. Hurmat bajo aylab salom qilayotgan kelinga nomi aytilgan har bir xayrixoh kishi yosh oilaning mustahkamligi va barqarorligi uchun qo‘llaridan kelgunicha o‘z hissalarini qo‘shadilar. Bu ham o‘zbek xalqining jipsligini, o‘zaro mehr-oqibatligini namoyon etadi.

Kelin salom Bux. **yor-yor**, Nav., Samar., Toshk. **kelin salom, padaroshi**, Qashq. **ota keldъ**, Xor. **kelin ochdi**, Qoraqal. shevalarida **yuz ochdi//kelin salem//bet ashar** kabi leksemalar bilan ifodalanadi. Bu kabi etnografizmlar hozirgi kunda yoshlar ong-u shuuriga nurday singib, ularda ezgu, umuminsoniy tuyg‘ularni tarbiyalamoqda.

**Charlar, challadi yoki kelin chaqirdi** – to‘ydan keyin kelin bilan tanishish maqsadida kuyovning qarindoshlari tomonidan tashkil etiladigan ziyofat, tantana bo‘lib, bunda kelin uchun tansiq taomlar pishiriladi, charlar o‘tkazuvchi kishi tomonidan kelinga sovg‘alar taqdim qilinadi.

**Challadi** – aslida chorladi. Ushbu marosim nomi Bux. **challadi//challandi**, Nav., Samar. **challari**, Qashq. **challar**, Toshk. **charlar**, Surxan. **chaqirdi**, Xor. **qàde toy**, Qoraqal. shevalarida **el qàde toy** shakllarida uchraydi. To‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, kelin chaqirdi, kuyov chaqirdi, qiz chaqirdi, quda chaqirdi kabi bir qancha ko‘rinishlari bor. Kelin chaqirdida yangi tushgan kelinchakning chillasi chiqqach, o‘zining va kuyovning yaqin qarindoshlari uylariga chaqiradi. Bundan ko‘zlangan maqsad kelin-kuyovga hurmat ko‘rsatish bilan birga, kuyov taraf uchun kelin bilan yaqindan tanishishdir. Kelin chaqirilgan xonadonga kirguncha uy egalariga, uyning ostonasiga ta’zim qilib kiradi. Kelin-kuyovga sovg‘alar in’om etiladi. Kuyov chaqirdi odatda kelinning ota-onasi, yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Sarshuyon** – fors-tojik tilida sar – bosh, shuyon – yuvmoq soʻzlaridan olingan. Nikoh toʻyidan yetti yoki oʻn kun oʻtib kuyovning uyida boʻlib oʻtuvchi marosim. Bu soʻz tojik tilli hududlarda keng ishlatiladi.

**Raxzanon** – atama rax va zanon qismlaridan iborat boʻlib har ikkalasi ham fors tiliga mansub. Rax (raxt) – koʻrpa-koʻrpachalarning ustma-ust terilgani; zanon – urmoq, termiq. Toʻyda koʻrpa-koʻrpachalarning ustma-ust terilishi bilan bogʻliq marosim.

Hazrat Mir Alisher Navoiy asarlarida ham oilaviy-maishiy etnografizmlar faol qoʻllanilgan boʻlib, Navoiy davri turkiy xalqlari til birliklari, ularning maishiy turmushi borasida mulohaza yuritish bilan bir qatorda oʻzbek tilida faol qoʻllanuvchi nikoh, taloq, aza, motam kabi etnografizmlarning lisoniy xususiyatlari va semantikasi borasida tadqiqot olib borishga hamda tilimizda mavjud soʻzlarning mazmuni borasida tasavvurga ega boʻlish imkonini ham beradi.

Alisher Navoiy “Gʻaroyib us-sigʻar” devonida oʻzining “raz qizi” – ilohiy ishq sharobga nikoh qilinganini quyidagicha bayon qiladi:

Ne erdi maykada gavgʻosi, **raz qizin** goʻyo

Bu shom qildi Navoiyga piri dayr **nikoh**. (GʻS, 22-b.)

Mazkur bayt talqinida nikoh komil pirlar tomonidan qizning yigitga bir umrga jufti halollikka berilishi maʼnosini anglatadi. Navoiy “Badoyeʼ ul-vasat” devonida ham nikoh etnografizmining antonimini qoʻllagan:

Navoiy aylab edi garchi **raz qizini taloq**,

Halol boʻlsa ham ul qizni olgʻusi bu kuyov. (BV, 517-b.)

Yuqoridagi baytda hazrat Navoiy musulmonlar maishiy hayotida keng ommalashgan nikoh etnografizmining antonimi – taloq etnografizmini ham qoʻllaganki, bu oʻzbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida qarama-qarshi maʼnoli ikki etnografizmning semantik mohiyati oʻzgarmaganligidan dalolat beradi. Taloq soʻzi ham etimologik jihatdan arab tiliga mansubdir. Taloq etnografizmi oʻzbek tili leksikasida taxminan VIII asrlardan hozirga qadar qoʻllanilib kelingan. Faqat XX asrning 80-yillaridan keyin mazkur atamaning oʻzbekcha ekvivalenti qoʻllanila boshladi. Taloq erkak kishi tomonidan oʻz jufti haloli boʻlib yashab kelayotgan ayol bilan oʻrtasida hal qilib boʻlmas nizolar sodir boʻlganda uch marta aytiladi va shu soʻzning uch bor takrorlanishi oilaviy nikohni bekor qilinganini anglatadi.

Oʻzbek lingvomadaniyatida toʻy marosimi shunchalar chuqur oʻrin olganki, bu xalq ogʻzaki ijodida ham yorqin kuzatiladi. Oʻzbek tilida toʻy qoʻshiqlari, yaʼni laparlar, yor-yor bilan bir qatorda maqollar ham yaratilgan. Xalqimizda faol qoʻllanuvchi “Toʻydan oldin nogʻora qoqma”, “Toʻyga borsang, toʻyib bor”, “Toʻyga borsang, toʻyib bor, Toʻrqa toʻning kiyib bor”, “Toʻy oshi – toʻpolon oshi”, “Toʻyning

boshi – boshlanguncha”, “Qo‘y semizi – qo‘ychidan, To‘y tamizi – to‘ychidan”, “To‘y kimniki – tegishliniki”, “To‘y – Xudoning xazinasini”, “To‘y ustiga to‘y bo‘lsin, Baloqazo yo‘q bo‘lsin” [7] kabi o‘nlab maqollar va ularning variantlarida o‘zbek xalqiga xos to‘y bilan bog‘liq ezgu an‘analar, urf-odatlar, xususan, yaqinlarga, qarindoshlarga duo qilib to‘y qilishni tilash, to‘yning ezgulik, to‘kinlik, tinchlik, hamjihatlik, yaqinlik, o‘yin-kulgi, xursandchilik, mehmondo‘stlik ramzi sifatida talqin qilinishi ularning haqiqiy lingvomadaniy birlik ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek xalqiga xos to‘y bilan bog‘liq etnografizmlar, antroponimlar, maqol va matallari shu qadimiy xalqqa xos bolajonlik, mehmondo‘stlik, elparvarlik, saxovatpeshalik va halolikka asoslangan milliy hamda diniy urf-odatlarini, marosimlari haqidagi lisoniy, madaniy axborotlarni ifodalash barobarida ularning davrlardan davrlarga, avlodlardan avlodlarga o‘tishini, bardavomligini ta‘minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 49.
2. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тюркского языка XII-XIII вв. – Москва, 1963. – С. 212.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent, 2006. – B. 38.
4. O‘zbek ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 1972. – B. 472.
5. Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1991. – B. 37.
6. <file:///C:/Users/User/Desktop/urf-odat-va-an'analar.html>
7. Shomaqsudov Sh., Shorahimov Sh. Ma‘nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 344–345.

## HETEROPTERALARNING UCHRASH DARAJASI

**Turayeva Zuxra Rajaboyevna**

NamDU- PhD, dotsent

E-mail: [z\\_turaeva78@mail.ru](mailto:z_turaeva78@mail.ru)

**Ekinov Islombek Odiljon o'g'li**

NamDU- o'qituvchi

E-mail: [islombeke98@gmail.com](mailto:islombeke98@gmail.com)

**Xusanova Ismigul Muzaffar qizi**

NamDU 1-kurs magistri

**Umaraliyeva Shodiyona Farxodjon qizi**

NamDU 2-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Namangan viloyati hududida dendrobiont Heteropteraning tadqiqotlar natijasida o'rganilgan ma'lumotlar asosida Hemipteralarning 10 oilasiga mansub 34 turi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Heteroptera, hortobiont, horto-dendrobiont, dendrobiont, tamno-dendrobiont, gerpetobiont; polifitofag, zoofag, zoofitofag, oligofitofag, polifitofag, mezofil, mezo-kserofil, kserofil, gigro-mezofil.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основании данных, полученных в результате исследований дендробионтов полужесткокрылых на территории Наманганской области, идентифицировано 34 вида, принадлежащих к 10 семействам полужесткокрылых.

**Ключевые слова:** Heteroptera, хортобионт, хорто-дендробионт, дендробионт, тамно-дендробионт, герпетобионт; полифитофаг, зоофаг, зоофитофаг, олигофитофаг, полифитофаг, мезофил, мезо-ксерофил, ксерофил, гигро-мезофил.



## ABSTRACT

In this article, 34 species belonging to 10 families of Hemiptera were identified based on the data obtained as a result of studies of dendrobiont hemipterans in the territory of Namangan region.

**Keywords:** Hemiptera, hortobiont, horto-dendrobiont, dendrobiont, tamno-dendrobiont, herpetobiont; polyphytophagous, zoophagous, zoophytophagous, oligophytophagous, polyphytophagous, mesophilic, meso-xerophilic, xerophilic, hygromesophilic.

## KIRISH

Heteroptera hasharotlarning eng noyob turkumlaridan biri bo'lib, turli xil biotoplarda yashaydi va biogeotsenozlarda biologik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Heteroptera turlari orasida yirtqich yoki aralash dietaga ega bo'lgan ko'plab turlar mavjud, ammo o'txo'r shakllar ustunlik qiladi; vaqti-vaqti bilan ko'p miqdorda ko'payib, ular qishloq xo'jaligi ekinlariga (don, yem-xashak, sabzavot, mevalar), shuningdek, yaylovlar va o'rmonlarga katta zarar yetkazadi. Ba'zi Heteropteralar yirtqich bo'lib, madaniy ekinlar va o'rmonlarning zararkunandalarini yo'q qiladi[1].

Tingidae oilasining 17 avlod va 81 tur mavjud[2]. O'zbekistonda tingidlar hamma joyda uchraydi. Ular dashtda, o't o'simliklarida, detritlar orasida va moxlarda yashaydi. Ayrim vakillari dasht va chala cho'llarda suv havzalari qirg'oqlari bo'ylab qir va shpallarda o'sadi.

Shuningdek, Heteroptera hasharotlar tabiatda katta ahamiyatga ega bo'lgan yirik oilalardan biridir. Turli xil atrof-muhit sharoitlariga yaxshi moslashgan, oziq-ovqat munosabatlariga ko'ra, polifitofag, zoofag, zoofitofag, oligofitofag, polifitofag turlarga bo'linadi[3,4].

## MATERIALLAR VA USULLAR

Mualliflar tomonidan Namanganning turli meva-bog' agrotsenozlarida tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda entomologik to'r yordamida to'plangan hasharot turlarining taksonomiyasi va zamonaviy tasnifi ilmiy jihatdan aniqlangan manbalar va internet ma'lumotlaridan foydalanib aniqlandi.

## TADQIQOT NATIJALARI






Ilmiy tadqiqotlar, kolleksiya materiallari va adabiyotlar tahlili asosida Heteroptera turkumining 10 oilaga mansub 34 turi aniqlandi. Oila tarkibi bo'yicha nisbatan eng ko'pi Miridae -11tur va Pentatomidae 8tur[5] oilasiga mansub hamda xortobiont -21 tur, xorto-dendrobiont- 3 tur, xorto-tamno-dendrobiont-1 tur, dendrobiont-1 tur, dendro-xortobiont -1 tur, dendro-tamnobiont-1 tur, tamno-dendrobiont-2 tur, gerpetobiont-4 turligi ma'lum bo'ldi(jadval-1).









Biologik xususiyatlariga ko'ra hamda oziqlanishiga ko'ra, zoofag - 4 tur, Zoofitofag- 4 tur, polifitofag -17 tur, oligofitofag- 9 turni tashkil etdi.









Turlarning quyidagi ekologik guruhlari: mezofil-25 tur, mezo-kserofil-7 tur, gigro-mezofil-1 tur, kserofil -1 tur dan iboratligi aniqlandi.

**Jadval-1**









**Dendrobiont hemipteralarning uchrash darajasi.**






Hemiptera turkumi			
Anthocoridae oilasi			
Anthocoris Fallén, 1814 avlodi			
1	+	Anthocoris pilosus (Jakovlev, 1877) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 4,0-4,5 mm.</b> Xorto-dendrobiont; mezofil; zoofag.	
Orius avlodi			
2	+	Orius niger (Wolff, 1811) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 2,2 mm.</b> Xorto-dendrobiont; mezofil; zoofag.	
Pyrrhocoridae oilasi			
Pyrrhocoris Fallén, 1814 avlodi			
3	++	Pyrrhocoris apterus (Linnaeus, 1758) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 6,5 - 12 mm</b> Gerpetobiont; mezofil; zoofitofag.	
Rhopalidae oilasi			
Stictopleurus Stål, 1872 avlodi			
4	+	Stictopleurus abutilon(Rossi,1970) <b>Tavsifi: Uzunligi 7 - 8 mm.</b> Xortobiont; mezo-kserofil; oligofitofag.	
Corizus Fallén, 1814			
5	+	Corizus hyoscyami (Linnaeus, 1758) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 9 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	

Lygaeidae oilasi			
Melanocoryphus avlodi			
6	++	Melanocoryphus albomaculatus (Goeze, 1778) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 7–9 mm</b> Gerpetobiont; mezo-kserofil; polifitofag.	
Nysius Dallas, 1852 avlodi			
7	+	Nysius ericae (Schilling, 1829) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3,5-4,2 mm.</b> Gerpetobiont; mezo-kserofil; polifitofag.	
Liorhyssus Stål, 1870 avlodi			
8	++	Liorhyssus hyalinus (Fabricius, 1794) <b>Tavsifi: tana uzunligi 6,5-7,5 mm.</b> Xortobiont; mezo-kserofil; polifitofag.	
Rhopalus Schilling, 1827 avlodi			
9	+	Rhopalus distinctus (Signoret, 1859) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 7-7,5 mm.</b> Xortobiont; mezzo-kserofil; oligofitofag	
Miridae oilasi			
Adelphocoris Reuter, 1896 avlodi			
10	+++	Adelphocoris lineolatus (Goeze, 1778) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 7,5-9,5 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Lygus Hahn, 1833 avlodi			
11	+++	Lygus pratensis (Linnaeus, 1758) <b>Tavsifi: tana uzunligi 5,8-7,3 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Deraeocoris Kirschbaum, 1855 avlodi			
12	+++	Deraeocoris punctulatus (Fallen, 1807) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3,8-4,6 mm.</b> Xortobiont; mezofil; zoofitofag.	
Malacocoris Fieber, 1858 avlodi			
13	+++	Malacocoris chlorizans (Panzer, 1794) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3-4 mm.</b> Tamno-dendrobiont; mezofil; zoofitofag.	

Campylomma Reuter, 1878 avlodi			
14	+++	Campylomma verbasci (Meyer-Dur, 1843) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 2,5-3mm.</b> Xorto-dendrobiont; mezofil; zoofitofag.	
Atomoscelis Reuter 1875 avlodi			
15	+++	Atomoscelis onusta (Fieber, 1861) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 2,5–2,6 mm.</b> Xortobiont; mezofil; oligofitofag.	
Orthotylus Fieber, 1858 Avlodi			
16	+++	Orthotylus flavosparsus (C.R.Sahlberg, 1841) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 4–4,5 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Trigonotylus Fieber, 1858 avlodi			
17	+	Trigonotylus pulchellus (Hahn, 1834) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 6-8 mm.</b> Xortobiont; mezofil; oligofitofag.	
Rod Myrmecophyes Fieber, 1870			
18	+	Myrmecophyes alboornatus (Stal 1858) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 2,8-4,5mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Stenodema Laporte, 1832 avlodi			
19	+	Stenodema calcarata Fallen, 1807 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 7-8 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Polymerus Hahn, 1831 avlodi			
20	+	Polymerus cognatus (Fieber, 1858) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3,5-4,6 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Pentotomidae oilasi			
Apodiphus avlodi			
21	+	Apodiphus integriceps Horvath, 1888 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 10-15 mm.</b> Dendrobiont; mezofil; polifitofag.	



Brachynema Mulsant & Rey, 1852: 88 avlodi			
22	+++	Brachynema germarii (Kolenati, 1846) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 12,5-14mm.</b> Xortobiont; kserofil; polifitofag.	
Carpocoris Kolenati, 1846 avlodi			
23	+++	Carpocoris fuscispinus (Boheman, 1850) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 11-14 mm.</b> Xortobiont; mezo-kserofil; polifitofag.	
Dolycoris Mulsant & Rey, 1866: 258 avlodi			
24	+++	Dolycoris penicillatus Horvath, 1904 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 10-12,5 mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Eurydema avlodi			
25	+	Eurydema ornata (Linnaeus, 1758) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 7-9mm.</b> Xortobiont; mezofil; oligofitofag.	
Graphosoma Laporte, 1833: 70 avlodi			
26	++	Graphosoma consimile Horváth, 1903 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 8-12 mm.</b> Xortobiont; mezofil; oligofitofag.	
Palomena Mulsant & Rey, 1866 avlodi			
27	+++	Palomena prasina Linnaeus, 1761 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 12-13,5 mm.</b> Dendro-tamnobiont; mezofil; polifitofag.	
Zicrona avlodi			
28	+	Zicrona caerulea Linnaeus, 1758 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 5-8 mm.</b> Xorto-tamno-dendrobiont; mezofil; zoofag.	
Scutelleridae oilasi			
Eurygaster avlodi			
29	++	Eurygaster integriceps Puton, 1881 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 10-13 mm.</b> Xortobiont; mezo-kserofil; oligofitofag.	

Cydnidae oilasi			
Legnotus Schiødte, 1848 avlodi			
30	+	Legnotus picipes (Fallén, 1807) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3-4 mm.</b> Gerpetobiont; mezofil; oligofitofag.	
Tingidae oilasi			
Tingis Fabricius, 1803 avlodi			
31	++	Tingis pilosa Hummel, 1825 <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3,5-4,1mm.</b> Xortobiont; mezofil; polifitofag.	
Stephanitis avlodi			
32	++	Stephanitis pyri (Fabricius, 1775) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 3-4mm.</b> Tamno-dendrobiont; mezofil; polifitofag.	
Dictyla Stal, 1874: a: 57 avlodi			
33	++	Dictyla lupuli (Herrich-Schäffer, 1837) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 2.5-3.5 mm.</b> Xortobiont; gigro-mezofil; oligofitofag.	
Reduviidae oilasi			
Rhynocoris avlodi			
34	+	Rhynocoris iracundus (Poda, 1761) <b>Tavsifi: Tana uzunligi 15 mm.</b> Dendro-xortobiont; mezofil; zoofag.	

### Izoh:

“+” kam tarqalgan yoki tasodifiy uchrovchi turlar

“++” miqdor zichligi o‘rtacha bo‘lgan turlar

“+++” keng tarqalgan turlar

### XULOSA

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Namangan viloyatining bog‘ sharoitida Heteroptera larning 10 oilasiga mansub 34 turi aniqlangan, ulardan dendrobiont hemiptera barcha o‘rganilgan hududlarda topildi. Anthocoridae oilasi - 2tur, Pyrrhocoridae oilasi - 1tur, Rhopalidae oilasi - 2tur, Lygaeidae oilasi - 4tur, Miridae oilasi - 11tur, Pentotomidae oilasi - 8tur, Scutelleridae oilasi - 1tur, Cydnidae oilasi-



1tur, Tingidae oilasi - 3 tur, Reduviidae oilasi- 1turlaridir. Ular orasida yetakchi turlar xilma-xilligi Miridae oilasiga to‘g‘ri keldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Есенбекова П.А. Полужесткокрылые (Heteroptera) Казахстана. Монография. – Алматы: «Нур-Принт», 2013. – 349 с.
2. Есенбекова П.А., Казенас В.Л. Полужесткокрылые (тип Членистоногие, класс Насекомые). Серия «Животные Казахстана в фотографиях». - Алматы: «Нур-Принт», 2013. - 192 с.
3. Есенбекова П.А., Байжүніс М.Ж., Анарбекова Г.Д.. Дендробионтные полужесткокрылые (heteroptera) Чарынского государственного национального природного парка (Юго-Восточный Казахстан). Казахстан, г. Алматы (ISSN 1563-0218, eISSN 2617-7498 Experimental Biology. №2 (83). 2020. <https://bb.kaznu.kz>).
4. Makhambet G.K., Kurbankul N.N., Bozshatayeva G.T., Ospanova G.S., Turabayeva G.K. Materials to study species composition, life forms and food specialization of hemiptera (hemiptera) Syrdarya-Turkestan regional nature park. biological sciences. European journal of natural history № 3, 2019
5. Musayev D.M., Xusanova I.M. Namangan viloyati mevali bog‘ agrobiosnozlarida tarqalgan qandalalar. “O‘zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi V respublika ilmiy- amaliy anjumani. Toshkent 2023y. 16-noyabr, 30-b.

**TABLE OF CONTENTS**

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	<b>Botirova , Z. X. K., &amp; Jurabayeva , G. U. qizi. (2023). TEACHING APPROACHES OF SPEAKING IN ESL CLASSES. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 4–9. Retrieved from <a href="http://erus.uz/index.php/er/article/view/4797">http://erus.uz/index.php/er/article/view/4797</a></b>
2	
	<b>Мавлянов , А. А., &amp; Худайбергенова, А. Н. (2023). ИНФЛЯЦИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. ВЛИЯНИЕ ВЫСОКОЙ ИНФЛЯЦИИ ВНЕШНЕТОРГОВЫХ ПАРТНЁРОВ НА ИНФЛЯЦИЮ В СТРАНЕ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 10–13. Retrieved from <a href="http://erus.uz/index.php/er/article/view/4798">http://erus.uz/index.php/er/article/view/4798</a></b>
3	
	<b>О‘rinboyeva , K., Abdurashidova, M. G. qizi, &amp; Toshtemirova , D. A. qizi. (2023). QUYOSH AKTIVLIGI VA UNING YER ATMOSFERASI HAMDA BIOSFERASIGA TA‘SIRI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 14–17. Retrieved from <a href="http://erus.uz/index.php/er/article/view/4800">http://erus.uz/index.php/er/article/view/4800</a></b>
4	
	<b>О‘rinboyeva , K., Xoldarova, D. Q. qizi, &amp; To‘lanboyeva , Z. Z. qizi. (2023). QUYOSHNING SUTKALIK GORIZONTAL PARALAKSINI VA UNGA KO‘RA YERDAN QUYOSHGACHA BO‘LGAN O‘RTACHA MASOFANI ANIQLASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 18–21. Retrieved from <a href="http://erus.uz/index.php/er/article/view/4801">http://erus.uz/index.php/er/article/view/4801</a></b>
5	
	<b>Boyxo‘rozova , N. Q. qizi, Halimov , M. X. o‘g‘li, &amp; Karimova, F. S. (2023). HAYOT RIVOJLANISHIDA METALLARNING TUTGAN O‘RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 22–24. Retrieved from <a href="http://erus.uz/index.php/er/article/view/4802">http://erus.uz/index.php/er/article/view/4802</a></b>
6	
	<b>Rustamov , M. M. o‘g‘li. (2023). MAHSULDOR QATLAMNI BIRLAMCHI OCHISH TEXNOLOGIYASI VA MAHSULDOR UYUMGA “KIRISH” USULLARI QATLAMNI BIRLAMCHI OCHISH UCHUN YUVUVCHI SUYUQLIKNING TARKIBINI VA XOSSALARINI TANLASHNING AHAMIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 25–29. Retrieved from <a href="http://erus.uz/index.php/er/article/view/4803">http://erus.uz/index.php/er/article/view/4803</a></b>

7

Sharofiddinova , M. (2023). O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 30–32. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4804>

8

Yaxshilikova, H. U. . qizi. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS (BASED ON THE CULTURE OF READING). Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 33–35. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4805>

9

Ibodulloyev, N. S. (2023). SINFDAN TASHQARI O‘QITISH ISHLARINI TASHKIL QILISHDA O‘QUVCHILARDAGI KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 36–40. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4806>

10

Хамраев, М. (2023). О НЕКОТОРЫХ ПРОБЛЕМАХ В ОБЛАСТИ ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 41–44. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4807>

11

Jumabayev , A. T. (2023). STEM TA’LIMINI ASOSIY MAQSADI VA UN DAN FOYDALANISH USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 45–51. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4808>

12

Акрамбоев , Р. А. (2023). ТОПИНАМБУР (ЕРНОК)НИНГ ХОМ АШЁ ТАВСИФИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 52–58. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4809>

13

Акрамбоев , Р. А. (2023). ТОПИНАМБУР АСОСИДА ТАЙЁРЛАНГАН ДЕСЕРТ ТАОМЛАРНИНГ УМУМИЙ КИСЛОТАЛИЛИГИ ВА PH КУРСАТКИЧИНИ АНИКЛАШДА. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 59–64. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4810>

14

Toshpo‘latova, N. (2023). ANALYSIS OF PHRASES EXPRESSING EMOTIONAL-EXPRESSIVE ATTITUDE IN THE UZBEK LANGUAGE. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 65–72. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4811>

15

Умурзоқов, Б. С. (2023). “ШАРҲ-И ФУСУС АЛ-ҲИКАМ” АСАРИНИНГ НОДИР ҚЎЛЁЗМА НУСХАСИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 73–81. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4812>

16

Khamzaeva , D. S. (2023). PRIORITY AREAS FOR DIVERSIFICATION AND SEASONALITY OF THE TOURISM PRODUCT. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 82–94. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4813>

17

Urinova, R. B. qizi, & Arzikulov, H. N. (2023). EFFECTIVE METHODS OF USING THE TRIZ (THEORY OF INVENTIVE PROBLEM SOLVING) PROGRAM IN PRESCHOOL EDUCATION LESSONS. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 95–97. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4814>

18

Якубова, Ф. (2023). НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ГРАММАТИЧЕСКОМ ТРАКТАТЕ АХМАДА ИБН МУХАММАДА АЛ-МАЙДАНИ “НУЗХАТУ-Т-ТАРАФ ФИ ИЛМИ-С-САРФ”. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 98–104. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4816>

19

Ergashev , Y., & Marifxonov, B. U. o‘g‘li. (2023). IMPROVEMENT OF THE WORKING PARTS OF COTTON CLEANING EQUIPMENT. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 105–109. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4817>

20

Shomurodov , S. (2023). TEMURIY SHAHZODA ABDULLATIF OBRAZIDA DAVR VA SHAXS FOJIASINING OCHILISHI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 110–119. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4818>

21

Mirzohidova, L. B. (2023). “QUTADG‘U BILIG” ASARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNI IJODIY TAFAKKUR QILISHGA YO‘NALTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 120–125. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4819>

22

Nurullayeva, Z. R. qizi. (2023). **MILLIY BOSH KIYIMLARNING TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 126–129. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4820>

23

Rustamova , S. A., & Juraeva , S. D. qizi. (2023). **TECHNOLOGY’S IMPACT ON THE EDUCATION PROCESS.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 130–134. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4821>

24

Axmedov, Y. O. (2023). **AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKASI FANI O‘QITISHNI HOZIRGI KUNDAGI MAVJUD HOLATI.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 135–138. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4822>

25

Toliyeva , S. I. (2023). **QORAQALPOQ TILIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 139–142. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4823>

26

Vafoqulova , M. A. qizi, Abdumutalova , S. D. qizi, & Karimova , F. S. (2023). **SANOATDA OQAVA SUVLARINI TOZALASH USULLARI BILAN TANISHISH.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 143–145. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4824>

27

Turdiyev, J. (2023). **СУЛАЙМОН БОҚИРҒОНИЙ МЕЪРОЖНОМАСИ ВА УНИНГ МАТНИЙ ТАҲЛИЛИ.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 146–151. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4825>

28

Умирзакова , Н. А., Нусратуллаева , Н. К., & Жабборов, А. У. (2023). **СОВРЕМЕННАЯ ЭТИКА МЕДИЦИНСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 152–157. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4826>

29

Safarov , X. S. S. o‘g‘li, & Xabibullayev , A. X. o‘g‘li. (2023). **LYAPUNOV FUNKSIYASINI ELEKTR ENERGIYA TIZIMIDA MATEMATIK MODELLAR EKVIVALENT MEZONI SIFATIDA QO‘LLANISHI.** Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 158–162. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4827>



30

Jamolova, S. Q. (2023). FIZIKA FANINI O‘QITISHDA MOBIL DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 163–168. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4828>

31

Sattorova, D. G., & Ahmadi, B. (2023). MEDICAL HIGHER EDUCATION IN DEVELOPING UZBEKISTAN: PROBLEMS OF EDUCATION QUALITY AND REFORMS IN MEDICAL INDUSTRY. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 169–171. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4829>

32

Nigmatova, I., & Ahmadi, B. (2023). IDENTIFICATION OF KEY DETERMINANTS IMPACTING THE DURATION OF ORTHODONTIC TREATMENT. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 172–174. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4830>

33

Уразманова, З., & Исаев Д. (2023). АНАЛИЗ ПРОЦЕССА СТРУЖКООБРАЗОВАНИЯ И ЕГО РЕОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ ОБРАЗОВАНИЯ СЛИВНОЙ СТРУЖКИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 175–180. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4831>

34

Rashidov, N. (2023). SUV EROZIYASIGA QARSHI TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYA TAHLILI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 181–184. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4832>

35

Ergashev, I., & Ismatov, A. (2023). TUPROQQA ISHLOV BERADIGAN, O‘G‘IT SOLIB, URUG‘ EKADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN QURILMA. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 185–190. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4833>

36

Turgunov, D., & Kabilov, B. (2023). PRACTICAL ANALYSIS OF THE PLACEMENT OF FILTHY ON THE SAME COTTON WOOL IN STACKS AND WAREHOUSES. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 191–197. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4834>

37

Назирова, З. Р. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ “ОБУЧЕНИЕ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ” ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 198–204. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4835>



38

Нодиржон , У. . А. (2023). МЎМИНЖОН ҲАКИМ МАРҒИЛОНИЙ ХОТИРАЛАРИ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 205–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4836>

39

Qodirova, S. N. (2023). TECHNOLOGY OF GROWING VEGETABLES IN PROTECTED LANDS. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 212–217. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4837>

40

Чориева, Г., Исроилова, Р., & Каюмова , Д. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПОДХОДА К ВЕДЕНИЮ БЕРЕМЕННЫХ, ОТЯГОЩЕННЫХ ЦЕРВИКАЛЬНЫМИ ИНТРАЭПИТЕЛИАЛЬНЫМИ НЕОПЛАЗИЯМИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 218–230. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4838>

41

Do’sanov , E. A. (2023). O‘SMIRLARNI VIRTAVUL OLAM TA’SIRLARIDAN ASRASH, ULARDA INTERNETGA TOBELIK VA UNI BARTARAF ETISHDA HORIJ VA O‘ZBEK OLIMLARINING QARASHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 231–238. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4839>

42

Abdullayeva , N. K. qizi, Ahunjanova, M. S. qizi, & Botirova, Z. (2023). BRIDGING THE LACUNA: ADDRESSING LINGUISTIC GAPS AND EXPLORING SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 239–242. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4840>

43

Yesemuratov , B. A. (2023). OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA TALABALARNING. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 243–248. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4841>

44

Mirvaliyeva , D. . A. (2023). KONSEPT TUSHUNCHASI. “DO‘ST” SO‘ZINING PRAGMATIK ASPEKTDAGI KONTEKSTUAL MA’NOLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 249–257. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4842>

45

Jumaniyozova , O. O., O‘ktamova , S. A. qizi, Murtozoqulova, S. N. qizi, & Karimova, F. S. (2023). SANOATDA OQAVA SUVLARINI TOZALASHNING ISTIQBOLLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 258–263. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4843>

46

Jovliyev, S. (2023). O‘LCHASH NATIJALARINI QAYTA ISHLASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 264–269. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4844>

47

Уринов, Н., Дубровец, Л., & Собиров, М. (2023). НЕКОТОРЫЕ ВИДЫ ИЗНОСА ТОКАРНЫХ РЕЗЦОВ И МЕТОДЫ ЕГО СНИЖЕНИЯ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 270–273. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4846>

48

Raximqulova, M. S. qizi, & Sindorov, L. K. (2023). LINGVOKULTURALOGIYANING O‘RGANILISHIGA DOIR MULOHAZALAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 274–279. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4847>

49

Yusupova, R., & Saidmurodov, S. (2023). 15-18 YOSHDAGI DZYUDUCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISH DARAJASI VA TAYYORGARLIGI DINAMIKASI, OG‘IRLIK TOIFASI HISOBGA OLINGAN HOLDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 280–282. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4848>

50

Jovliyev, S. (2023). TURLI TIZIMDAGI O‘LCHASH ASBOBLARNI TEKSHIRISH VA XATOLIKLARINI ANIQLASH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 283–290. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4849>

51

Уринов, Н., Саидова, М., & Аминов, М. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕРЕДАЧИ ПРИВОДА ТЕХНИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 291–295. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4851>

52

Аминова, Н. Н. (2023). ОЦЕНКА ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ ЛЕЙКОЗОМ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 296–301. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4852>

53

Нодиржон, А. (2023). ФАРҒОНА МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРДА АМИР ТЕМУР НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ АФСОНАЛАР. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 302–310. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4853>

54

Эшимов , Т. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПРАКТИЧЕСКОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 311–317. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4894>

55

Eshimov , T. A. (2023). JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXSISLARINI AMALIY JISMONIY TARBIYOTI JARAYONINI TAKIMLAYISH . Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 318–323. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4895>

56

Mirzaliyeva , G. A. (2023). BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALAR YECHISH BOSQICHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 324–328. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4896>

57

Темиров , И. Г. (2023). ДВУХЪЯРУСНЫЙ ПЛУГ ДЛЯ ОСНОВНОЙ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ ХЛОПКОВЫХ ПОЛЕЙ. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 329–332. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4897>

58

Собирова , З. Ж., Ашрапова, Ш. Ф., & Каримова , Ш. Ф. (2023). ИММУННЫЕ ФАКТОРЫ МАТЕРИНСКОГО МОЛОКА. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 333–338. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4898>

59

Safarova, N. N. (2023). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 339–342. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4899>

60

Krasnenkova, M., & Nishonov, M. (2023). KESAR KESISH AMALIYOTI VAQTIDA PROPOFOLNING GEMODINAMIK KO‘RSATGICHLARGA TA‘SIRI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 343–349. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4900>

61

Krasnenkova , M., Nishonov , M., Djalilov , U., & Isabekov , M. (2023). OG‘IR TRAVMATIK MIYA SHIKASTLANISHI OLGAN BEMORLARDA O‘LIMGA OLIB KELUVCHI OQIBATLAR STRUKTURASI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 350–357. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4901>

62

Yodgorov, R. A. ogli, Kurbanov Faxriddin , B., Khudoykulova, G. I. qizi, & Primkulova, M. O. qizi. (2023). SYNTHESIS AND RESEARCH OF SORBENTS BASED ON MELAMINFORMALDEHYDE RESIN. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 358–362. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4902>

63

Ochilboev, A. B. ugli. (2023). ADVOCACY AND ENFORCEMENT OF CIVIL COURT DECISIONS. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 363–367. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4903>

64

Ibodullayeva , D. S. (2023). FUQAROLIK JAMIYATIDA INSON QADRI, HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 368–373. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4904>

65

Suvanova, M. (2023). NIKOH TO‘YIGA OID ETNOGRAFIK ZAMONALARNING AREAL TARQALISHI HAQIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 374–381. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4905>

66

Turayeva, Z. . R., Ekinov, I. O. o‘g‘li, Xusanova, I. M. qizi, & Umaraliyeva, S. F. qizi. (2023). HETEROPTERALARNING UCHRASH DARAJASI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 382–389. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4906>